“ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ ВА КОНСТИТУЦИЯНИНГ ЎЗАРО УЙҒУНЛИГИ: ХАЛҚАРО ВА МИЛЛИЙ ҲУҚУҚИЙ КАФОЛАТЛАР ТАҲЛИЛИ”

МАВЗУСИДАГИ ЁШ ОЛИМЛАР ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯСИ

МАТЕРИАЛЛАРИ ТЎПЛАМИ

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ МОЛОДЫХ УЧЕНЫХ

«ВЗАИМОСВЯЗЬ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА И КОНСТИТУЦИИ: АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНЫХ И НАЦИОНАЛЬНЫХ ПРАВОВЫХ ГАРАНТИЙ»

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE OF YOUNG SCIENTISTS

“HUMAN RIGHTS AND CONSTITUTIONAL HARMONY: INTERNATIONAL AND NATIONAL LEGAL GUARANTEES”

MATERIALS COLLECTION

Тошкент – 2026

“Инсон ҳуқуқлари ва Конституциянинг ўзаро уйғунлиги: халқаро ва миллий ҳуқуқий кафолатлар таҳлили” мавзусидаги ёш олимлар халқаро илмий-амалий конференцияси мақолалари тўплами (2025 йил 11 декабрь, Тошкент ш.) / Масъул муҳаррир А.Х. Саидов. – Тошкент: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2026. – 134-б.

Мазкур тўплам Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази Илмий-мувофиқлаштирувчи кенгашининг 2026 йил 12 февралдаги 3-сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган.

Масъул муҳаррир: А.Х. Саидов, академик

Тузувчилар: К. Олимова, юридик фанлар номзоди, доцент
Н. Аслонов, юридик фанлар бўйича фалсафа доктори, (Phd)

Тўплам конференция иштирокчиларининг маърузалари, тақдимотлари ҳамда илмий-тадқиқот институтлари, олий ўқув муассасалари ва давлат ташкилотлари вакилларининг илмий мақолалари асосида тайёрланди.

Нашр давлат органлари ходимлари, илмий ходимлар, фуқаролик жамияти вакиллари, ўқитувчилар, олий ўқув юртлари докторантлари, мустақил тадқиқотчилар, талабалар учун мўлжалланган.

Тўпламга киритилган мақолаларнинг мазмуни ва келтирилган фактларнинг ҳақиқийлиги учун муаллифлар жавобгардир.

Мақолалар муаллифлик таҳририда нашр этилди.

ISBN 978-9910-8717-8-8

© Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2026

МУНДАРИЖА

Саидов А. Х. Кириш 5

Джавакова Каринэ,
Защита и расширение прав женщин – важный приоритет нового Узбекистана 7

Мирҳамидова Маҳиннора,
Конституцияда аёллар ҳуқуқларини таъминлашнинг халқаро-ҳуқуқий асослари 11

Довлетов Шуҳрат,
Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатлари ижроси устидан прокурор назоратининг инсон ҳуқуқларини таъминлашдаги аҳамияти 15

Ишанходжаев Саидахмад,
Халқаро миграция ҳуқуқи шаклланиши ва ривожланишига оид айрим масалалар 20

Ахмадов Ойбек,
Янги Ўзбекистонни Ислом ҳамкорлик ташкилоти билан инсон ҳуқуқлари соҳасидаги ҳамкорлигини такомиллаштириш масалалари 27

Xushnazarov Asliddin,
Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlarining huquqiy maqomi: tahliliy yondashuv 35

Akmalov Hamid,
Konstitutsiyada inson huquqlarining talqini va himoyasi 39

Аслонов Наврўзбек,
Рақамлаштириш шароитида инсоннинг ахборот олиш ҳуқуқининг ҳуқуқий табиати: назария ва амалиёт 42

Sultonov Nodirbek,
Bola huquqlarini ta’minlashda Konstitutsiya va xalqaro standartlarning o‘zaro uyg‘unligi 45

Осмонова Нафисахон,
Аёллар ҳуқуқлари – ижтимоий барқарорлик омиллари 49

Abdurashidova Zarina,
Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar huquqlarining xalqaro va konstitutsiyaviy kafolatlari 52

Rashidova Shakhzoda,
The family as a strategic resource of the state: evolution of the legal status of the institution of the family in the context of the social reforms of the New Uzbekistan 56

Arslonova Robiya,
The UN’s 80th anniversary: implications for business and human rights 64

Матчанова Мийригуль,
Инициатива Узбекистана – как элемент молодежной дипломатии: создание всемирного движения молодежи за мир 67

Ёкубова Умидахон,
Роль государственного регулирования фармацевтического рынка
в реализации конституционных прав граждан..... 69

Калимбетов Несип,
Давлат фуқаролик хизмати ва адвокатура институтларининг қарама-қаршилиги:
миллий қонунчилигимиздаги нормалар коллизиясининг ҳуқуқий таҳлили 73

Турсунов Тулкин,
Конституция Республики Узбекистан и защита прав человека 77

Raxmanov Jo‘rabek,
Inson huquqlarini himoya qilishda ijro hokimiyati organlarining hisobdorligi:
milliy qonunchilik va xalqaro kafolatlar tahlili 80

Toxirova Sabina,
Ijod erkinligi va intellektual mulk huquqlarining konstitutsiyaviy asoslari 85

Jumaboyev Doniyor,
Ijtimoiy huquqlarning xalqaro huquqiy asoslari va ularning milliy qonunchilikka
implementatsiya qilinishi 90

Ishmuratova Sevara,
Professional ethical principles of journalists in covering gender-based violence 95

Nurulloyeva Madina,
The formation of the National human rights centre of the Republic of Uzbekistan
in the context of global experience: a historical perspective 98

Атовуллоев Рустам,
Халқаро ҳуқуқ нормаларининг миллий ҳуқуқ нормалари билан ўзаро нисбати 104

Рамазонов Азизбек,
Инсон ҳуқуқлари журналистикаси: публицистик мақолалар таҳрири тамойиллари 108

Turdibekov Ahror,
O‘zbekiston Respublikasida yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan
mahrum bo‘lgan bolalar huquqlarini himoya qilishga oid milliy qonunchilik
va institutsional mexanizmlarning huquqiy tahlili 113

Азимов Азимбек,
Ўзбекистонда давлат сиёсатида ёшларга доир масалаларнинг ҳуқуқий таҳлили 117

Юлдашов Фарход,
Янги Ўзбекистон Конституцияси ва коррупцияга қарши курашиш масалалари 120

Чибилова Моҳирахон,
Одам савдосидан жабрланган шахсларнинг ҳуқуқлари:
халқаро стандартлар ва миллий амалиёт 125

Жиенбаев Ержан,
Основные приоритеты новой конституционной реформы Казахстана 130

КИРИШ

Инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлаш, уларнинг конституциявий кафолатларини мустаҳкамлаш ҳамда халқаро ҳуқуқнинг умумэътироф этилган принцип ва нормаларини миллий ҳуқуқ тизимига самарали имплементация қилиш бугунги кунда демократик ҳуқуқий давлат қуришнинг муҳим шартларидан бири ҳисобланади. Шу маънода, инсон ҳуқуқлари ва конституциянинг ўзаро уйғунлиги масаласи ҳуқуқшунослик фанининг энг долзарб ва истиқболли тадқиқот йўналишларидан бири сифатида алоҳида аҳамиятга эга.

Дунёда кечаётган глобаллашув жараёнлари, янги ҳуқуқий чақириқлар ва инсон ҳуқуқларини таъминлашнинг замонавий механизмлари давлатлар олдига миллий қонунчиликни халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш вазифасини қўймоқда. Айниқса, инсон ҳуқуқларининг конституциявий мақомини мустаҳкамлаш, шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш, қонун устуворлиги ҳамда адолат тамойилларини қарор топтириш ҳар қандай демократик жамият тараққиётининг асосий мезони сифатида намоён бўлмоқда.

Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясида инсон ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини таъминлаш давлат сиёсатининг устувор йўналиши сифатида белгиланган мамлакатимизда инсон қадрини улуғлашга қаратилган конституциявий ислоҳотларнинг мантиқий давоми бўлди. Конституциямизда инсон ҳуқуқларига оид халқаро стандартларнинг акс эттирилиши миллий ҳуқуқ тизимини янада такомиллаштириш, ҳуқуқни қўллаш амалиётини ривожлантириш ва инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг институционал механизмларини мустаҳкамлаш учун ҳуқуқий замин яратди.

Қўлингиздаги “Инсон ҳуқуқлари ва Конституциянинг ўзаро уйғунлиги: халқаро ва миллий ҳуқуқий кафолатлар таҳлили” мавзусидаги ёш олимлар халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами айнан шу муҳим масалаларга бағишлангани билан аҳамиятлидир. Мазкур тўпламга киритилган илмий мақолаларда инсон ҳуқуқларини таъминлашнинг назарий ва амалий жиҳатлари, конституциявий кафолатлар тизими, халқаро ҳуқуқий механизмларнинг миллий ҳуқуқ тизими билан ўзаро таъсири, ҳуқуқий ислоҳотларнинг долзарб йўналишлари ҳамда инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг институционал асослари кенг ёритилган.

Тўпламдан ўрин олган 29 та илмий мақола ёш тадқиқотчиларнинг инсон ҳуқуқлари соҳасидаги илмий изланишлари самараси ҳисобланади. Уларда илгари сурилган назарий ёндашувлар, таҳлилий мулоҳазалар ва амалий

таклифлар инсон ҳуқуқлари бўйича миллий ва халқаро ҳуқуқий тизимларнинг ривожланиш тенденцияларини чуқур англашга хизмат қилади.

Ёш олимларнинг инсон ҳуқуқлари соҳасидаги илмий фаоллигини қўллаб-қувватлаш, уларнинг тадқиқот натижаларини илмий жамоатчиликка етказиш ҳамда халқаро илмий мулоқотни ривожлантириш бугунги кунда интеллектуал тараққиётнинг муҳим омили ҳисобланади. Мазкур конференция ҳам ана шундай мақсадларга хизмат қилиб, ёш тадқиқотчилар учун фикр алмашиш, илмий ҳамкорликни мустаҳкамлаш ва янги ғояларни шакллантириш майдонини яратди.

Ишончим комилки, ушбу тўплам инсон ҳуқуқлари, конституциявий ҳуқуқ ва халқаро ҳуқуқ соҳаларида илмий изланишлар олиб бораётган олимлар, тадқиқотчилар, докторантлар, магистрантлар, талабалар ҳамда амалиётчи ҳуқуқшунослар учун муҳим илмий манба бўлиб хизмат қилади. Унда баён этилган фикр ва таклифлар инсон ҳуқуқларини таъминлашга қаратилган қонунчилик ҳамда ҳуқуқни қўллаш амалиётини янада такомиллаштиришга муносиб ҳисса қўшади.

Акмал САИДОВ,
Инсон ҳуқуқлари бўйича
Ўзбекистон Республикаси
Миллий маркази директори, академик

ЗАЩИТА И РАСШИРЕНИЕ ПРАВ ЖЕНЩИН – ВАЖНЫЙ ПРИОРИТЕТ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Джавакова Каринэ,
доктор философских наук, профессор

Повышение статуса женщин, расширение их прав и возможностей, создание условий для улучшения их жизни и деятельности является актуальной проблемой для многих стран мирового сообщества. И Узбекистан здесь не исключение, т.к. на конец 2025 года, в Узбекистане насчитывается около 19 млн женщин, что составляет примерно 49,6% от общего населения.

В Узбекистане есть четкое понимание того, что участие женщин в созидательных процессах – важнейший компонент стабильности и устойчивого продвижения общества к демократическому государству. И если проанализировать государственную политику Узбекистана, можно отметить, что реализуются последовательные меры, направленные на укрепление институтов, призванных обеспечивать достойное положение женщин.

Прежде всего, это относится к развитию нормативно-правовой базы в данном направлении. Узбекистан, одним из первых в Центральной Азии, ратифицировал ряд конвенций ООН и Международной организации труда, такие как «О ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин», «Об охране материнства», «О дискриминации в области труда и занятий» и на сегодняшний день присоединился практически ко всем основным международным договорам по защите женщин от любых форм дискриминации и притеснений. В Основном законе страны статья 58 гласит: «Женщины и мужчины имеют равные права. Государство обеспечивает равенство прав и возможностей женщин и мужчин в управлении делами общества и государства, а также в других сферах общественной и государственной жизни», и отражает равенство прав женщин и мужчин[1]. Сегодня эта конституционная норма находит свое отражение во всех аспектах нашей жизни, в том числе в защите прав и свобод женщин. Приняты законы «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин»[2], «О защите женщин от притеснения и насилия»[3], «Об охране репродуктивного здоровья граждан»[4], «О внесении изменений и допол-

[1] См.: Конституция Республики Узбекистан // Национальная база данных законодательства, 01.05.2023 г., №03/23/837/0241

[2] См.: Закон Республики Узбекистан «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин» // Национальная база данных законодательства, 03.09.2019 г., № 03/19/562/3681

[3] См.: Закон Республики Узбекистан «О защите женщин от притеснения и насилия» // Национальная база данных законодательства, 03.09.2019 г., № 03/19/561/3680; 10.12.2021 г., № 03/21/736/1144

[4] См.: Закон Республики Узбекистан «Об охране репродуктивного здоровья граждан» // Национальная база данных законодательства, 12.03.2019 г., № 03/19/528/2741

нений в статью 15 Семейного кодекса»[1], «Об утверждении Трудового кодекса Республики Узбекистан»[2]. В последнем речь идет о расширении трудовых возможностей женщин.

Вместе с тем приняты около 40 подзаконных актов в соответствии с нормами международного права и стандартами в этой сфере. В частности, внесены изменения, направленные на предотвращение насилия в отношении женщин и борьбу с устаревшими обычаями. К примеру, 4 января 2020 года с целью защиты жертв домашнего насилия принято Постановление Кабинета Министров «О мерах по совершенствованию системы защиты женщин от притеснения и насилия»[3]. Утверждены положения «О порядке выдачи охранных ордеров женщинам, подвергшимся притеснению и насилию, обеспечения их исполнения, проведения мониторинга» и «О порядке прохождения лицами, совершившими или имеющими склонность к оказанию давления и насилия, программ по корректировке их поведения».

Что немаловажно, в системе МВД созданы специальные должности инспекторов-женщин по работе с женщинами, которые нуждаются в правовой и социальной помощи. С целью оперативного и качественного оказания поддержки женщинам, пострадавшим от притеснения и насилия, разработаны и внедрены стандартные операционные процедуры по совместному реагированию на гендерное насилие для правоохранительных органов, работников здравоохранения и социально-психологической сферы.

Несомненно, что в этих условиях важно, с одной стороны, чтобы сами женщины были осведомлены о новшествах в законодательстве по гендерному равенству, с другой стороны – повышение компетентности ответственных лиц, их обучение на основе соответствующих правовых норм для обеспечения исполнения их на практике применения права.

Кроме того, введена обязательная гендерно-правовая экспертиза законодательных актов, направленная на устранение несоответствия положений нормативно-правовых актов принципам гендерного равенства, выявление возможных рисков дискриминационного характера в процессе их применения, а также утверждена Стратегия достижения гендерного равенства в Республике Узбекистан до 2030 года[4], которая будет способствовать продвижению гендерного равенства в экономической, политической и социальной жизни для создания условий реализации равных прав и возможностей женщин и мужчин, и соблюдения фундаментальных прав человека.

---

[1] См.: Закон Республики Узбекистан «О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан в связи с установлением дополнительных гарантий прав ребенка» //Национальная база данных законодательства, 11.03.2020 г., № 3/20/608/0278.

[2] См.: Закон Республики Узбекистан «Об утверждении Трудового кодекса Республики Узбекистан» // https://lex.uz/docs/145261

[3] См.: Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 4 января 2020 г., № 3 «О мерах по совершенствованию системы защиты женщин от притеснения и насилия» // https://lex.uz/docs/4679532

[4] См.: Постановление Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан «Об утверждении стратегии достижения гендерного равенства в Республике Узбекистан до 2030 года» // https://lex.uz/uz/docs/5466673

Помимо нормативно-правовой базы в этом направлении действует ряд ведомств, институциональных структур, способствующих реализации государственной политики, направленной на обеспечение гендерного равенства. К ним можно отнести – Комиссию по вопросам обеспечения гендерного равенства, которую возглавляет Председатель Сената Олий Мажлиса; Комитет по вопросам женщин и гендерного равенства в Сенате, который ведет мониторинг за исполнением законодательства в этой области; Парламентскую комиссию по контролю за реализацией Национальных целей и задач в области устойчивого развития на период до 2030 года, где пятая цель посвящена задачам достижения гендерного равенства; Республиканский общественный совет женщин во главе с Председателем Сената Олий Мажлиса, одной из основных задач которого наряду со всесторонней поддержкой женщин и девушек является координация вопросов по выполнению положений Конвенции ООН о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин, реализации Пекинской платформы действий и Национального плана действий. 1 марта 2022 года вновь был создан Государственный комитет по делам семьи и женщин как уполномоченный орган госуправления, осуществляющий разработку и реализацию единой госполитики в сфере поддержки семьи и женщин, защиты их прав и законных интересов. При этом на Госкомитет по делам семьи и женщин возлагаются функции управлением Фондом по поддержке женщин и ведению «Женской тетради». С 2020 года была внедрена совершенно новая система «женской тетради», для социально-экономической поддержки женщин, адресной работы с ними. Новая система позволяет точнее определить, кто действительно нуждается в помощи, организовать адресную работу с уязвимыми слоями населения, оказывать более 30 видов социальных услуг в электронной форме.

Таким образом, в стране продолжается масштабная работа по всесторонней поддержке женщин, их активному участию в общественной, экономической и политической жизни. За последние годы последовательно реализовано более 200 комплексных мер, направленных на укрепление законодательных и институциональных основ защиты прав и интересов женщин. При этом результаты свидетельствуют о том, что доля женщин, обучающихся на уровне бакалавриата, выросла с 38 до 53%, а в магистратуре – с 34 до 66%. Число женщин-докторантов увеличилось почти в семь раз – с 584 до 4 129 человек. В сфере бизнеса женщины стали активнее: если ранее индивидуальным предпринимательством занимались 69 тысяч женщин, то сегодня их число достигло 262 тысяч[1]. Заметен не малый прогресс и в политике. Ведь демократизация общественного развития невозможна без полноценного участия женщин в политической жизни. К примеру, доля женщин среди депутатов нового со-

[1] См.: В Узбекистане приняли свыше 200 мер для усиления защиты прав и возможностей женщин // https://podrobno.uz/cat/obchestvo/v-uzbekistane-prinyali-svyshe-200-mer-dlya-usileniya-zashchity-prav-i-vozmozhnostey-zhenshchin-narba/

зыва Законодательной палаты выросла с 32% до 38%[1]. В мировом рейтинге Межпарламентского союза «Женщины в парламенте» Узбекистан поднялся сразу на 92 позиции – с 130-го на 38-е место среди 193 стран. Всемирный банк также отметил Узбекистан как одну из самых быстро развивающихся в сфере гендерного равенства, и включил страну в пятерку наиболее динамично развивающихся государств в сфере гендерного равенства[2].

Отметим, что нормативная база, к примеру, касающаяся участия женщин в политике и избирательных процессах, определена в первую очередь в международно-правовых актах. Так, если Всеобщая декларация прав человека устанавливает равноправное участие женщин в политических и избирательных процессах, основанное на принципах недискриминации и равного осуществления политических прав, то Конвенция о политических правах женщин и ряд других региональных конвенций закрепляют, что осуществление таких прав должно быть обеспечено без разделения по признаку пола. В то же время Международный пакт о гражданских и политических правах устанавливает, что никакая дискриминация по признаку пола не допускается при осуществлении права участвовать в голосовании и общественной жизни, а Конвенция о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин обязует государства принимать соответствующие меры для устранения любых проявлений такой дискриминации.

Что касается таких международных документов как Пекинская декларация и Платформа действий (1995 г.), то отметим, что это наиболее прогрессивная «дорожная карта» для расширения прав и возможностей женщин во всем мире. Это объясняется тем, что в этих важнейших международных документах в сфере гендерного равенства закреплены принципы свободы выбора и равенства возможностей: все девочки и женщины имеют право на жизнь, свободную от насилия, на образование, участие в процессах принятия решений и получение равной с мужчинами оплаты труда. При этом, платформа действий сформулировала всеобъемлющие обязательства по 12 важнейшим проблемным областям, в том числе участие женщин в процессах принятия решений и власти. А это считаются очень важным и требует должного внимания для обеспечения гендерного равенства и реализации прав женщин в политическом измерении.

В целом можно отметить, что критерии свободы действий женщин включают юридическое равенство, политическое и экономическое участие, право на личную неприкосновенность и автономию, а также свободу от насилия и отражены в международных конвенциях и национальных законах, которые гарантируют женщинам равные права с мужчинами в сфере образования, труда, семьи и общественной жизни.

---

[1] ЦИК зарегистрировал новоизбранных депутатов Олий Мажлиса // https://www.gazeta.uz/ru/2024/10/31/deputies/

[2] См.: В Узбекистане приняли свыше 200 мер для усиления защиты прав и возможностей женщин // https://podrobno.uz/cat/obchestvo/v-uzbekistane-prinyali-svyshe-200-mer-dlya-usileniya-zashchity-prav-i-vozmozhnosteyzhenshchin-narba

КОНСТИТУЦИЯДА АЁЛЛАР ҲУҚУҚЛАРИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ХАЛҚАРО-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Мирҳамидова Маҳиннора,
ЖИДУ "Халқаро ҳуқуқ ва
оммавий ҳуқуқ фанлари"
кафедраси доценти

Янгиланган Конституцияда инсон, унинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни ва қадр-қиммати олий қадрият ҳисобланадиган инсонпарвар демократик давлатни, очиқ ва адолатли жамиятни барпо этиш борасида ҳозирги ва келажак авлодлар олдидаги юксак масъулият эканлиги қайд этиб қўйилган.

Дарҳақиқат, Конституция нормаларининг асосий қисми инсон ва фуқароларнинг ҳуқуқ ҳамда эркинликларини таъминлашга қаратилган. Шу жумладан, хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатларини ҳимоя қилишга оид нормаларнинг мустаҳкамланиши мамлакатимизда аёлларга нисбатан юксак эътибор ва доимий ғамхўрлик кўрсатилаётганидан далолат беради.

Хотин-қизларнинг Конституцияда мустаҳкамлаб қўйилган ҳуқуқлари ҳақида тўхталар эканмиз, ушбу қоидалар умумэътироф этилган халқаро стандартларнинг нормаларига ҳамоҳанг шакллантирилганини гувоҳи бўлишимиз мумкин.

Жумладан, Конституциянинг 19-моддасида "Ўзбекистон Республикасида инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликлари халқаро ҳуқуқнинг умумэътироф этилган нормаларига биноан ҳамда ушбу Конституцияга мувофиқ эътироф этилади ва кафолатланади", деб қайд этилган. Мазкур нормага кўра инсон ҳуқуқ ва эркинликлари давлат томонидан олий даражада кафолатланади. Шунингдек, ушбу модданинг 2-бандида "Ўзбекистон Республикасида барча фуқаролар бир хил ҳуқуқ ва эркинликларга эга бўлиб, жинси, ирқи, миллати, тили, дини, эътиқоди, ижтимоий келиб чиқиши, ижтимоий мавқеидан қатъи назар, қонун олдида тенгдирлар", деб белгилаб қўйилган. Бу нормага кўра қонун олдида эркак ва аёлларнинг тенг ҳуқуқлилик принципи ҳам мустаҳкамланмоқда. Мазкур принцип, энг аввало, Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясининг 2-моддасида[1], Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 2-моддасида[2] ва Хотин-қизларни камситишнинг барча шаклларига барҳам бериш тўғрисидаги конвенциянинг бир қатор моддаларида[3] ва бошқа халқаро ҳужжатларда ўз ифодасини топган. Бу ҳужжатларда белгиланганидек, жинс белгиси инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликларидан фойдаланишда ҳеч қандай чегара ёки камситиш асоси бўла олмайди.

---

[1] Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi // Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalari to'plami. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2023. – B. 9.

[2] Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt // Ўша жойда. – B. 13.

[3] Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya // Ўша жойда. – B. 62–71.

Давлатимизда хотин-қизларнинг ўз имкониятларини тўлақонли рўёбга чиқариш, уларнинг ҳақ-ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, эркаклар ва хотин-қизларнинг тенглик принципини амалга ошириш масаласи давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланди. Хусусан, мамлакатимизда хотин-қизлар ва эркакларнинг тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларини таъминлашга қаратилган ислоҳотлар БМТнинг Барқарор ривожланиш мақсадларининг 5-мақсади – Гендер тенгликни таъминлаш ва барча хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва имкониятларини кенгайтиришга қаратилган мақсади билан ҳам ҳамоҳангдир[1]. Давлатимизда БМТнинг Барқарор ривожланишнинг мазкур мақсадининг таъминланиши хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва имкониятларини кенгайтириш камбағалликни қисқартириш, аҳоли саломатлиги ва таълим сифатини ошириш, иқтисодий ўсишни рағбатлантириш, ижтимоий тенгсизликларни камайтириш ҳамда самарали ва инклюзив институтларни шакллантиришга замин яратади.

Янги Конституция ва қонунчиликда юқоридаги тамойилнинг мустаҳкамланиши эса давлатнинг гендер тенгликни кафолатлашдаги муҳим сиёсий мажбурияти ҳисобланади.

Тенг ҳуқуқлилик принципи жамиятдаги роллар, имкониятлар ва ресурслар тақсимотида адолатни таъминлашга қаратилган. Аввало, ижтимоий адолатни таъминлаш, эркак ва аёлларнинг ҳаётнинг барча соҳаларида тенг иштирок этиши демократик жамиятнинг асосий мезони ҳисобланади. Шу билан бирга, гендер стереотипларини бартараф этиш жамиятда аёл ва эркакларга нисбатан анъанавий, чекловчи қарашларни юмшатишга хизмат қилади. Бундан ташқари, аёлларнинг меҳнат бозори, тадбиркорлик ва илмий соҳаларда фаол иштирокини рағбатлантириш иқтисодий ривожланишни ошириш ва умумий иқтисодий самарадорликни таъминлайди.

Конституциянинг 19-моддаси барча фуқароларнинг қонун олдида тенглиги принципини умумий ҳуқуқий қоида сифатида белгилаб, шахснинг асосий ҳуқуқ ва эркинликларининг жинси, миллати, эътиқоди ёки бошқа белгилардан қатъи назар барчага тенг татбиқ этилишини кафолатлайди. Бу модда инсон ҳуқуқларининг универсаллигини конституциявий даражада таъминлайди.

Шу билан бирга, янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 58-моддаси мазкур умумий тамойилни гендер соҳасида аниқлайди ҳамда хотин-қизлар ва эркакларнинг тенг ҳуқуқлилигига оид махсус кафолатларни белгилайди. Унда давлат фақат формал тенгликни таъминлабгина қолмасдан, балки амалий тенг имкониятларни таъминлаш учун институционал ва ташкилий чора-тадбирларни амалга ошириши шартлиги алоҳида таъкидланади. Бу норма Хотин-қизларни камситишнинг барча шаклларига барҳам бериш тўғрисидаги конвенциянинг биринчи, иккинчи ва учинчи моддаларидаги камситишни бартараф этиш ва тенг ҳуқуқлиликни таъминлаш бўйича халқаро стандартлар билан уйғун тарзда ишлайди. Шунингдек, мазкур Кон-

[1] Цели в области устойчивого развития // https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/sustainable-development-goals/

венцияга мувофиқ, иштирокчи-давлатлар ушбу принципни конституция ва бошқа тегишли қонунларга киритишлари зарур. Айтиш жоизки, Ўзбекистонда ушбу қоида Асосий қонун билан бирга бир қатор бошқа қонун ҳужжатларида ҳам мустаҳкамлаб қўйилган. Жумладан, Ўзбекистон Республикасининг "Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида"ги қонуннинг мазмун-моҳияти ҳам тўлиқ равишда гендер тенглиги принципининг амалга оширилишига бағишланган бўлиб, унга кўра мазкур қонунда хотин-қизлар ва эркаклар ўртасида тенгликка эришиш, жамият ҳаётининг барча соҳаларида уларнинг иштирокини кенгайтириш, жинс бўйича бевосита ва билвосита камситишни бартараф этишга доир қатор қоидалар ўз аксини топган[1]. Шунингдек, Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси гендер тенглигини оилавий муносабатларда – никоҳ, оила бошқаруви, фарзанд тарбияси ва оилавий мулк масалаларида аниқ ифодаласа[2], Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодексида эса жинсга қарамасдан – эркак ва аёлларнинг меҳнат ҳуқуқларини тенг таъминлашни, меҳнат муносабатларида камситишни таъқиқлашни ва бир хил меҳнат учун бир хил тўловни кафолатлайди[3]. Ушбу ҳужжатлар ҳам мамлакатда гендер тенглиги кафолатларини ҳуқуқий жиҳатдан тўлиқ мустаҳкамлаб беради. Айтиш жоизки, гендер тенглик принципи бошқа нормаларда ҳам ўз аксини топган, хусусан, Конституциянинг 76-моддасида "Никоҳ Ўзбекистон халқининг анъанавий оилавий қадриятларига, никоҳланувчиларнинг ихтиёрий розилигига ва тенг ҳуқуқлилигига асосланади", деб эътироф этилган. Ушбу норманинг Конституциядаги ифодаси умумэътироф этилган ҳужжатларда келтирилган моддаларга уйғун шакллантирилган.

Юртимизда хотин-қизларнинг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий фаоллигини ошириш, уларнинг маънавий ва интеллектуал салоҳиятини юксалтириш, саломатлигини мустаҳкамлаш, оила, оналик ва болаликни муҳофаза қилиш бўйича имкониятлар ҳамда ҳуқуқий кафолатлар ҳам яратилган.

Асосий Қонунимизнинг 42-моддасига кўра, "ҳомиладорлиги ёки боласи борлиги сабабли аёлларни ишга қабул қилишни рад этиш, ишдан бўшатиш ва уларнинг иш ҳақини камайтириш тақиқланади".

Ҳомиладор ва болали аёлларни меҳнат муносабатларида камситишни тақиқловчи мазкур норма халқаро ҳуқуқ стандартлари билан тўлиқ уйғунлашган, шунингдек уларнинг тўғридан-тўғри имплементацияси сифатида хизмат

---

[1] Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 сентябрдаги "Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида"ги ЎРҚ-562-сон қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон; 16.12.2022 й., 03/22/809/1091-сон; 12.04.2023 й., 03/23/829/0208-сон; 09.04.2025 й., 03/25/1053/0317-сон

[2] Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 22.10.2021 й., 03/21/723/0983-сон; 14.03.2022 й., 03/22/759/0213-сон; 18.05.2022 й., 03/22/770/0424-сон; 12.04.2023 й., 03/23/829/0208-сон; 08.05.2023 й., 03/23/838/0257-сон; 07.02.2024 й., 03/24/905/0106-сон; 09.04.2025 й., 03/25/1053/0317-сон; 20.10.2025 й., 03/25/1089/0953-сон

[3] Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.10.2022 й., 02/22/798/0972-сон; 12.04.2023 й., 03/23/829/0208-сон; 29.11.2023 й., 03/23/880/0905-сон; 22.02.2024 й., 03/24/911/0142-сон; 04.07.2024 й., 03/24/934/0469-сон; 21.09.2024 й., 03/24/963/0735-сон; 14.02.2025 й., 03/25/1030/0144-сон; 24.06.2025 й., 03/25/1070/0536-сон; 12.11.2025 й., 03/25/1095/1036-сон; 09.12.2025 й., 03/25/1101/1135-сон; 30.12.2025 й., 03/25/1109/1241-сон

қилади. Жаҳон меҳнат ва инсон ҳуқуқлари тизимида бу масалага алоҳида муҳофаза объекти сифатида қаралади. Хотин-қизларни камситишнинг барча шаклларига барҳам бериш тўғрисидаги конвенция аёлларнинг меҳнат соҳасидаги тенг ҳуқуқларини кафолатлайди ва давлатларни аёлларни ишга қабул қилишда, ишдан бўшатишда ёки уларнинг меҳнат шароитларини белгилашда ҳомиладорликка асосланган камситишни қатъий равишда тақиқлашга мажбур қилади[1].

Мазкур Конвенцияга кўра, ҳомиладорлик, туғиш ва бола парвариши билан боғлиқ ҳолатлар аёлларнинг ишга қабул қилинишига таъсир қилмаслиги керак; давлатлар иш берувчиларнинг бундай амалиётини ман қилувчи қонунчиликни жорий этиши шарт.

Шунингдек, ХМТнинг Оналикни муҳофаза қилиш тўғрисидаги 103-сонли конвенцияси (1952 йил) оналик билан боғлиқ ижтимоий заифликларни эътиборга олган ҳолда, аёлларни ишдан бўшатиш ва камситиш орқали меҳнат бозоридан четлатишга йўл қўймасликни белгилайди[2]. Бу Конвенция аёлларнинг меҳнат ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, гендер тенглигини таъминлаш ва ижтимоий адолатни мустаҳкамлашга қаратилган асосий халқаро ҳуқуқий ҳужжат ҳисобланади. Шу билан бирга, Конвенциянинг 6-моддасига мувофиқ, "Аёл ушбу Конвенциянинг қоидаларига мувофиқ унга берилган оналик таътили асосида ишда бўлмаса ва шу пайтда иш берувчи томонидан мазкур аёлни ишдан бўшатиш тўғрисида буйруқ қабул қилинса ёки ушбу аёлнинг бундай таътили пайтида муддати тугайдиган буйруқ қабул қилинса, бундай буйруқ ноқонуний ҳисобланади".

Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясининг 23-моддаси меҳнат соҳасида барча кишиларнинг тенг ҳуқуқларга эгалигини белгилаб, жинс ёки репродуктив ҳолат (ҳомиладорлик, бола парвариши) асосида камситишни бутунлай ман этади[3].

Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 3-моддаси эркак ва аёлларнинг иқтисодий ва ижтимоий ҳуқуқларда тенглигини кафолатласа, 7-моддаси тенг қадрли меҳнат учун тенг иш ҳақи принципини мустаҳкамлайди[4]. Шу боис, аёлларни ҳомиладорлиги ёки бола парвариши сабабли ишдан четлатиш ёки иш ҳақини камайтириш Пакт талабларига зиддир.

Шундай қилиб, халқаро ҳуқуқ ҳужжатлари меҳнат муносабатларида гендер тенглигини ва репродуктив ҳолат бўйича камситишни бартараф этишни қатъий қоида сифатида белгилайди.

Хулоса қилиб айтганда, Конституциямизда хотин-қизлар ва эркакларнинг тенг ҳуқуқли эканлигининг белгилаб қўйилиши, мамлакатимизда жамият ва

---

[1] Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya // Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalari to'plami. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2023. – B. 62–71.

[2] ХМТнинг Оналикни муҳофаза қилиш тўғрисидаги 103-сонли конвенцияси // https://lex.uz/docs/2747580

[3] Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi // Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalari to'plami. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2023.– B. 8–12.

[4] Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt // Ўша жойда. – B. 33–40.

давлат ҳаётида хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар яратилишига эришиш, жамият ва давлат ишларини бошқаришда уларнинг тенг иштирок этишини таъминлашга мустаҳкам асос сифатида хизмат қилади.

СУД ҲУЖЖАТЛАРИ ВА БОШҚА ОРГАНЛАР ҲУЖЖАТЛАРИ ИЖРОСИ УСТИДАН ПРОКУРОР НАЗОРАТИНИНГ ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ АҲАМИЯТИ

Довлетов Шуҳрат,
Ўзбекистон Республикаси
Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси
Ўқув-услубий бошқармаси катта прокурори

Инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш ҳуқуқий демократик давлатнинг асосий белгиларидан бири ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 13-моддасида “Ўзбекистон Республикасида демократия умуминсоний принципларга асосланади, уларга кўра инсон, унинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни, қадр-қиммати ва бошқа ажралмас ҳуқуқлари олий қадрият ҳисобланади”[1], деб белгилаб қўйилган.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президенти Конституциямизнинг қабул қилинганига 31 йил тўлиши муносабати билан йўллаган байрам табригида конституциявий ҳуқуқ ва эркинликларни таъминлашда инсон ҳуқуқлари бўйича миллий институтларнинг ўрнига алоҳида эътибор қаратган ҳолда қуйидаги фикрни билдирган: “Конституциямизда аниқ ва қатъий белгилаб қўйилганидек, инсоннинг шаъни ва қадр-қиммати дахлсиз ҳисобланади. Шу боис, инсоннинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига зид келадиган ҳар қандай хатти-ҳаракатларга қарши курашиш, шубҳасиз, давлат олдида турган энг муҳим ва долзарб вазифалардан бири ҳисобланади”[2].

Мазкур қоида давлат органлари, жумладан ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолияти инсон ҳуқуқларини таъминлашга қаратилган бўлиши лозимлигини англатади.

Инсон ҳуқуқлари жамият тараққиёти давомида шаклланган энг муҳим маънавий ва ҳуқуқий қадриятлардан бири ҳисобланади. Шахс, жамият ва давлат ўртасидаги ўзаро муносабатлар ҳар бир тарихий даврда турлича мазмун касб этган бўлса-да, ушбу муносабатларнинг асосий объекти ҳар доим инсон ва унинг қадр-қиммати бўлиб келган. Бу масалага дунё цивилизацияси тарихида Абу Наср Форобий, Алишер Навоий, Жон Локк, Шарль Луи Монтескьё каби мутафаккирлар ўз асарларида алоҳида эътибор қаратган ҳолда, инсон

[1] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон

[2] Президент Шавкат Мирзиёевнинг Конституция куни муносабати билан байрам табриги // https://president.uz/uz/lists/view/6917

ҳуқуқларини таъминлашнинг турли фалсафий ва ҳуқуқий асосларини илгари сурганлар.

Илмий манбаларда инсон ҳуқуқларининг мазмуни, аввало, инсон қадрининг дахлсизлиги ва барчанинг қонун олдида тенглиги тамойиллари билан боғлаб изоҳланади. Бу ғоялар Шарқ мутафаккирлари меросида ҳам ўз ифодасини топган. Хусусан, Алишер Навоий инсонни борлиқнинг энг олий мақсади сифатида талқин қилиб, дунё яратилишининг асл моҳияти инсон манфаатларига хизмат қилишдан иборат эканини ўзининг "Ҳайратул-аброр" асарида қуйидаги сатрлар орқали ёритиб берган:

Ганжинг аро нақд фаровон эди,
Лек боридин ғараз инсон эди[1].

Мазкур фалсафий қарашлар бугунги кунда инсон ҳуқуқларини олий қадрият сифатида эътироф этувчи замонавий ҳуқуқий тизимлар учун муҳим маънавий манба бўлиб хизмат қилади.

Сўнгги йилларда мамлакатимизда амалга оширилаётган сиёсий-ҳуқуқий ислоҳотлар, аввало, қабул қилинаётган қарор ва қонун ҳужжатларининг амалдаги ижросини таъминлаш масаласини кун тартибига олиб чиқди. Янги таҳрирдаги Конституция асосида шаклланган парламент ва ижро ҳокимияти органлари фаолиятида натижадорликка эришиш, қабул қилинган қарорларнинг ҳаётга тўлиқ татбиқ этилиши устувор вазифа сифатида белгиланмоқда. Чунки ҳар қандай ҳуқуқий ҳужжатнинг қиймати унинг ижроси билан белгиланади, ижросиз қонун эса фуқароларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини реал ҳимоя қила олмайди.

Айнан шу маънода, суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларининг ўз вақтида ва тўлиқ ижро этилиши инсон ҳуқуқларини таъминлашнинг амалий кафолати ҳисобланади. Ижро жараёнида қонунийликка риоя этилиши, давлат ижрочилари фаолиятининг самарадорлиги ва мазкур соҳада прокурор назоратининг таъсирчанлиги фуқароларнинг давлатга бўлган ишончини мустаҳкамлайди. Шу боис, ижро механизмини такомиллаштириш, ижро интизомини кучайтириш ва инсон ҳуқуқларига дахлдор ҳар бир ҳужжатнинг сўзсиз бажарилишини таъминлаш демократик ҳуқуқий давлат барпо этишнинг муҳим шарти сифатида намоён бўлади.

Қонунлар ижросини таъминлаш жараёнида прокурор назорати ва инсон ҳуқуқлари бўйича миллий институтларнинг ўзаро ҳамкорлиги алоҳида аҳамият касб этади. Қабул қилинган қарорлар ижроси устидан тизимли назорат ўрнатилиши, ижро интизомини бузиш ҳолатларига нисбатан ҳуқуқий таъсир чораларининг қўлланилиши ҳамда бузилган ҳуқуқларни тиклашга қаратилган аниқ механизмларнинг ишлаши инсон ҳуқуқларини реал таъминлаш имконини беради. Ана шу механизмлар самарали ишлаган тақдирдагина, қонун нормалари ҳаётий мазмун касб этиб, давлатнинг инсонпарвар сиёсати амалда ўз ифодасини топади.

Амалиёт шуни кўрсатадики, суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатлари қабул қилиниши билан фуқароларнинг ҳуқуқлари автоматик тарзда

[1] Навоий А. Ҳайратул-аброр. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 12.

тикланмайди. Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларининг амалий ижроси инсон ҳуқуқларини реал таъминлашнинг ҳал қилувчи босқичи ҳисобланади. Айнан ижро жараёнида сусткашлик, қонун талабларига риоя этмаслик ёки ваколатларни суиистеъмол қилиш ҳолатлари юзага келиши мумкин.

Шунга кўра, суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатлари ижроси устидан прокурор назорати инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг муҳим ҳуқуқий кафолати сифатида намоён бўлади.

Бугунги глобаллашув ва халқаро ҳуқуқий ҳамкорликнинг фаоллашуви шароитида прокурор назорати ҳамда ижро иши юритишни ташкил этиш соҳасида хорижий тажрибани таҳлил қилиш алоҳида аҳамият касб этмоқда. Бу зарурат, аввало, турли давлатларда ҳуқуқни муҳофаза қилиш тизимининг қандай шаклланган, прокуратура органларининг давлат ҳокимияти тизимидаги ўрни ҳамда суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш жараёнидаги иштирок даражасини ўрганиш билан боғлиқдир. Зеро, ҳар бир мамлакатда ушбу институтлар миллий ҳуқуқий анъаналар ва сиёсий тизим хусусиятларига мувофиқ равишда ривожланган.

Қиёсий-ҳуқуқий таҳлил шуни кўрсатадики, дунё мамлакатларида прокуратура органларининг ташкил этилиши ва ваколатлари ягона ҳуқуқий модель асосида эмас, балки турли ёндашувлар асосида шаклланган. Айрим давлатларда прокуратура суд ҳокимияти билан чамбарчас боғлиқ бўлган ҳолда фаолият юритса, бошқа мамлакатларда у мустақил назорат институти сифатида қонунлар ижроси устидан кенг ваколатларга эга. Шу жиҳатдан, суд ҳокимиятининг давлат бошқаруви тизимида тутган ўрнига қараб, прокуратура органларининг функциялари ҳамда суд қарорларини ижро этувчи органлар фаолиятида сезиларли фарқлар мавжуд.

Хусусан, Германия Федератив Республикаси ва Ўзбекистон Республикасида прокуратура органларининг ҳуқуқий мақоми ҳамда суд қарорларини ижро этиш жараёнидаги иштироки ўртасида принципиал фарқлар мавжуд. Германия “Суд-ҳуқуқ тизими тўғрисида”ги қонунининг 147-моддасига[1] мувофиқ прокуратура маъмурий жиҳатдан ижро этувчи ҳокимият Адлия вазирлигига бўйсуниши билан характерланади. Бу ҳолат прокуратура фаолиятининг асосан жиноий таъқиб ва судларда давлат айбловини қўллаб-қувватлаш функциясига йўналтирилганини кўрсатади. Шу сабабли Германия моделида прокуратура суд қарорларини ижро этиш жараёнида бевосита назорат ваколатларига эга эмас, ижро ишлари алоҳида ижро этувчи тузилмалар орқали амалга оширилади.

Ўзбекистон Республикасида эса прокуратура органлари мустақил давлат институти сифатида фаолият юритади ва қонунлар ижроси устидан умумий назоратни амалга ошириш ваколатига эга. Айниқса, суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларининг ижроси соҳасида прокуратура давлат ижрочилари фаолияти устидан назоратни амалга оширади. Бу назорат ижро интизоми-

[1] Нимеллер М. Уголовное судопроизводство и роль прокуратуры в Германии // Российская юстиция. 1994. – № 10. – С. 29.

ни таъминлаш, қонунбузарликларни аниқлаш ва бартараф этиш, шунингдек фуқароларнинг бузилган ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини тиклашга қаратилган.

Германия моделида прокурорлар суд ҳокимияти билан институционал жиҳатдан боғлиқ бўлган ҳолда фаолият юритса, Ўзбекистонда прокуратура қонун устуворлигини таъминловчи алоҳида назорат органи сифатида шаклланган. Бу фарқ суд қарорларини ижро этиш жараёнида ҳам яққол намоён бўлади. Германияда ижро масалалари асосан судлар ва махсус ижро органлари ваколатига киритилган бўлса, Ўзбекистонда ижро жараёни устидан прокурор назорати инсон ҳуқуқларини таъминлашнинг муҳим кафолати сифатида қаралади.

Шунга кўра, Германия моделида прокуратуранинг ижро иши юритиш соҳасидаги иштироки чекланган ва билвосита характерга эга бўлса, Ўзбекистон моделида прокуратура фаол иштироки билан ажралиб туради. Бу ҳолат Ўзбекистонда суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларининг ижросини инсон ҳуқуқларини таъминлаш билан узвий боғлаб қараш тенденцияси устувор эканини кўрсатади ҳамда прокуратуранинг ушбу соҳадаги роли институционал жиҳатдан кенгроқ экани билан ажралиб туради.

Суд ҳужжатларининг ижроси адолатни тиклашнинг якуний босқичидир. Ижро этилмаган суд ҳужжати ёки бошқа органлар ҳужжатлари ҳуқуқий кучга эга бўлсада, инсон ҳуқуқларини амалда таъминламайди. Алимент ундириш, иш ҳақини ундириш, уй-жой масалалари бўйича қарорларнинг кеч ижро этилиши фуқароларнинг ижтимоий ва иқтисодий ҳуқуқларини жиддий бузади.

Ўзбекистон Республикасининг “Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш тўғрисида”ги қонуни суд қарорларини мажбурий ижро этиш механизмини белгилаб беради. Бироқ қонун нормаларининг амалда бажарилиши самарали назоратсиз тўлиқ таъминланмайди.

Шу маънода прокурор назорати ижро интизомини мустаҳкамлаш, инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва қонун устуворлигини таъминлашда муҳим ўрин тутади.

Шу жиҳатидан Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Мажбурий ижро бюроси давлат ижрочиларига кенг мажбурлов ваколатлари берилган. Мазкур ваколатлар мулкий ҳуқуқлар, меҳнат ҳуқуқлари ва шахсий дахлсизлик билан бевосита боғлиқ. Агар ушбу ваколатлар қонунга зид қўлланилса, инсон ҳуқуқларининг жиддий бузилишига олиб келади.

Амалиётда мол-мулкни асоссиз хатлаш, ижро ҳаракатларини кечиктириш, мурожаатларни ўз вақтида кўриб чиқмаслик ҳолатлари учраб туради. Бундай ҳолатлар фуқароларнинг давлатга бўлган ишончини пасайтиради.

Шу сабабли давлат ижрочилари фаолияти устидан самарали прокурор назорати объектив зарурат ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикасининг “Прокуратура тўғрисида”ги қонунига мувофиқ, прокуратура органлари “Ўзбекистон Республикаси ҳудудида қонунлар-

нинг аниқ ва бир хилда бажарилиши устидан назоратни амалга оширадилар”[1]. Бу назорат давлат ижрочилари фаолиятига ҳам тааллуқли.

Прокурор назоратининг моҳияти ва мақсади, аввало, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлашга қаратилган ҳуқуқий механизм сифатида намоён бўлади. Қонунбузарлик ҳолатларини аниқлаш, уларни бартараф этиш ҳамда бузилган ҳуқуқларни тиклаш прокурор назоратининг асосий вазифалари ҳисобланиб, мазкур фаолият инсон қадр-қимматини ҳимоя қилишнинг амалий кафолати сифатида хизмат қилади. Айниқса, суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларининг ижроси соҳасида прокурор назорати фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқларини реал таъминлашда ҳал қилувчи аҳамият касб этади.

Прокурор назоратининг предмети Конституция ва қонун ҳужжатларига риоя этилишини қамраб олган ҳолда, ижро иши юритиш соҳасида инсон ҳуқуқларига бевосита дахлдор бўлган муносабатларни ҳам ўз ичига олади. Суд қарорларининг ўз вақтида ва тўлиқ ижро этилмаслиги фуқароларнинг мулк ҳуқуқи, меҳнат ҳуқуқи, ижтимоий таъминот олиш ҳуқуқи ҳамда суд ҳимоясига бўлган ҳуқуқини амалий жиҳатдан чеклаб қўяди. Шу боис, давлат ижрочилари томонидан мажбурлов чораларининг қонуний ва мутаносиб қўлланилиши устидан прокурор назорати инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг муҳим ҳуқуқий кафолати сифатида қаралади.

Шу билан бирга, прокурор назорати инсон ҳуқуқларини таъминлашда ҳуқуқий мутаносиблик тамойилига таянади. Прокуратура органлари давлат ижрочиларининг тезкор ёки ташкилий фаолиятига аралашмасдан, фақат қонунбузарлик ҳолатлари мавжуд бўлган тақдирдагина таъсир чораларини қўллайди. Бу ёндашув инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш билан бир вақтда давлат органлари ваколатларининг мувозанатли амалга оширилишини таъминлайди ҳамда давлат ҳокимияти тизимида ваколатлар тақсимоти принципига риоя этилишига хизмат қилади.

Амалиёт шуни кўрсатадики, фуқароларнинг бузилган ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини тиклашда прокурор аралашуви самарали ҳуқуқий восита ҳисобланади. Прокурор томонидан киритиладиган протестлар, тақдимномалар ва судларга бериладиган даъволар инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишда таъсирчан механизм сифатида намоён бўлиб, ижро жараёнидаги қонунбузарликларни бартараф этишга хизмат қилади. Бу ҳолат прокурор назоратининг фақат давлат манфаатларини эмас, балки инсон ҳуқуқларини таъминлашга қаратилган ижтимоий аҳамиятга эга институт эканини тасдиқлайди.

Хулоса қилиб айтганда, суд ҳужжатлари ижроси устидан прокурор назорати инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлашнинг муҳим ҳуқуқий кафолатларидан бири ҳисобланади. Ушбу институтни такомиллаштириш, прокурор ваколатларини инсон ҳуқуқлари тамойиллари асосида аниқ белгилаш ҳамда ижро интизомини кучайтириш қонун устуворлигини мустаҳкамлашга ва фуқароларнинг ҳуқуқларини ишончли ҳимоя қилишга хизмат қилади.

---

[1] Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 29 августдаги “Прокуратура тўғрисида”ги 257-II-сон қонуни // https://lex.uz/acts/106197

ХАЛҚАРО МИГРАЦИЯ ХУҚУҚИ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИГА ОИД АЙРИМ МАСАЛАЛАР

Ишанходжаев Саидахмад,
А. Авлоний номидаги Педагогик маҳорат миллий институти "Таълим менежменти" кафедраси доценти

Ҳозирги замон халқаро ҳуқуқ тизими жадал трансформация жараёнини бошдан кечирмоқда. Глобаллашув, инсон ҳуқуқларининг универсаллашуви ва давлатлараро ўзаро боғлиқликнинг кучайиши натижасида анъанавий тармоқлар билан бир қаторда янги институтлар ва мустақил соҳалар шаклланмоқда. Шу қаторда халқаро миграция муносабатларини ҳуқуқий тартибга солиш масаласи ҳам долзарб аҳамият касб этмоқда.

Бироқ, халқаро миграция ҳуқуқи алоҳида ва тўлиқ "тармоқ" сифатида шаклланган-шаклланмаганлиги юзасидан халқаро ҳуқуқшуносликда ягона нуқтаи назар мавжуд эмас. Бугунги кунда миграция оқимларининг кўлами, сабаблари ва оқибатлари глобал тус олган бир шароитда халқаро миқёсда мажбурий ва ихтиёрий миграцияни ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солувчи универсал механизмларнинг самарадорлиги ва етарлилиги масаласи янада кун тартибига чиқмоқда. Шу нуқтаи назардан, халқаро миграция ҳуқуқининг шаклланиш босқичлари, норматив манбалари ва тармоқ ёки соҳа сифатидаги истиқболлари илмий тадқиқот учун муҳим назарий ва амалий аҳамият касб этади.

Миграция ҳуқуқи атамаси илк бор 1927 йил Л. Варлец Р. Плендернинг "Халқаро миграция қонуни"ни 1972 йилда нашр этилишидан олдин Гаага академиясида ўзининг ўқув курсида қўллаган эди. Сўнгги икки ўнг йиллик ичида халқаро хуқуқнинг ўсиб бораётган ушбу соҳасини акс эттириш учун кўплаб дарсликлар чоп этилди. Халқаро миграция ҳуқуқи, қабул қилувчи давлатлардаги мигрантларнинг ҳуқуқий мақоми ва шахсларнинг давлатлар ўртасидаги ҳаракатланишини тартибга солувчи жами халқаро қоидалардир. Бироқ, халқаро миграция ҳуқуқи халқаро ҳуқуқнинг бошқа соҳаларини алмаштирмайди ва автоном режим ҳисобланмайди. Аксинча, у амалдаги турли ҳуқуқ соҳаларидаги нормаларни аниқ шакллантириш учун ташкил топган. Бошқа кўплаб ҳуқуқий фанлар каби (масалан, экология ҳуқуқи ёки савдо ҳуқуқи), халқаро миграция ҳуқуқи, аввалambор, халқаро ҳуқуқ манбалари ва субъектларидан келиб чиққан ҳолда доктринал тузилишга эгадир[1]. Инсон ҳуқуқлари бўйича Европа Кенгаши комиссари бошқармаси директори ўринбосари Н. Ситаропоулоснинг фикрига кўра, халқаро миграция ҳуқуқи автоном ҳуқуқ режими эмасдир. Бу турли хил халқаро, минтақавий ёки икки томонлама шарт-

[1] Vincent C. Conceptualizing International Migration Law (November 18, 2016) // Proceedings of the one hundred tenth annual meeting of the American Society of International Law, 2017. – P. 201–204 // https://ssrn.com/abstract=2872141

номалар ва келишувлардан ташкил топган кўп босқичли ҳуқуқлар тўпламидир[1].

Халқаро миграция ҳуқуқининг асосчиси Л. Варлез тўғри таъкидлаганидек, "миграция ҳуқуқи мавҳум эмас, балки доимий равишда ҳаракатда бўлган ҳодисаларга таъсир ўтказувчи тирик ҳуқуқдир. Шунингдек, миграция ҳуқуқини ҳуқуқий тартибга солиш предмети, бу, аввало, тегишли давлат органлари ва мигрант ўртасида пайдо бўладиган давлат бошқаруви йўналишидаги ижтимоий муносабатлардир. Шу боис, миграция ҳуқуқи миграция фаолиятини ташкил этишга ваколатли давлат ҳокимияти органларининг қарорларини қабул қилиш, мигрантларнинг маъмурий-ҳуқуқий қоидаларини бузиш муносабати билан келиб чиқадиган барча ижтимоий муносабатларни тартибга солади"[2].

А.Ю. Ястребова "замонавий илм-фан шахсларнинг дунё бўйлаб халқаро ҳаракатланишини глобал муаммолардан бири сифатида баҳолаб, унинг ижобий ва салбий омилларига таъсир этишнинг инновацион метод ва технологиялар ишлаб чиқилишини талаб этишини" таъкидлаб ўтади[3]. Фикримизча, инновацион метод ва технологиялар ишлаб чиқилишида биометрик маълумотларни йиғиш ва қайта ишлаш халқаро стандартлар билан тўлақонли ҳимоя механизми ҳанузгача жорий этилмаганлиги келтириб ўтилган фикрни асослашда бир қатор саволларни туғилишига сабаб бўлмоқда.

Хусусан, олимлар М. Абомҳара ва С. Й. Яйилган "мазкур муаммоларнинг асосий сабабларидан бири шундаки, биометрик тизимлар яратилиш жараёнида маълумотларни ҳимоя қилиш ва "privacy-by-design" (ҳимояни илгари режалаштириш) тамойилларини жорий этиш бўйича метод ва йўриқномалар етарлича ишлаб чиқилмаган. Биометрик таниш технологияси бугунги кунда хавфсизлик, кириш назорати ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш каби турли соҳаларда кенг қўлланилаётган технология ҳисобланади. Бироқ, бундай тизимлар шахсий ҳаёт дахлсизлиги ва маълумотларни ҳимоя қилиш юзасидан жиддий хавфларни юзага келтиради. Маълумотлардан ноқонуний фойдаланиш, шахснинг шахсий ҳаётига аралашиш ёки рухсатсиз маълумот қайта ишлаш ҳолатлари орқасида юзага келадиган зарар қайтариб бўлмайдиган, салбий оқибатларга олиб келиши мумкин[4]" деб ҳисоблашади.

Халқаро ҳуқуқ бўйича таниқли швейцариялик олим В. Четтил "Халқаро миграция ҳуқуқини бевосита ҳам, кўчма маънода ҳам "деконструктив архитектура" сифатида тавсифлаб, уни концептуаллаштириш мумкинлигини, шу-

---

[1] Sitaropoulos N.Why international migration law does not give a licence to discriminate (May 20, 2015) // European Journal of International Law Blog // https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2811643

[2] Қаранг: Исоқов Л. Мигрантлар ҳуқуқлари: қиёсий-ҳуқуқий таҳлил. – Т.: EFFECT-D, 2022. – Б. 34–35.

[3] Ястребова А.Ю. Международно-правовые механизмы регулирования миграции: доктринальные подходы и опыт Российской Федерации. Автореф. дис. ... докт. юрид. наук. – М., 2017. – С. 5.

[4] Abomhara M., Yayilgan S.Y. An Example of Privacy and Data Protection Best Practices for Biometrics Data Processing in Border Control: Lesson Learned from SMILE // Yildirim Yayilgan, S., Bajwa, I.S., Sanfilippo, F. (eds) Intelligent Technologies and Applications. INTAP 2020. Communications in Computer and Information Science. – 2021. – Vol 1382 // https://doi.org/10.1007/978-3-030-71711-7_29

нингдек уни уйғунлик, бирлик ва барқарорлик анъаналарини шубҳа остига қўядиган, ихтилоф ва номутаносибликка асосланган парчаланган архитектура деб ҳисоблайди. Халқаро миграция ҳуқуқини кесишувчи (cross-cutting) соҳалардан бири сифатида миграция ҳуқуқи инсон ҳуқуқлари, савдо ҳуқуқи, гуманитар ҳуқуқ, меҳнат ҳуқуқи, қочоқлар ҳуқуқи, денгиз ҳуқуқи ва шунга ўхшаш бошқа соҳаларга тааллуқли устма-уст тушган, хилма-хил ҳуқуқий нормалар орқали тартибга солиниши"[1]ни келтириб ўтади. Фикримизча, мазкур таъриф тизимли равишда баён этилган ҳолда очиб берилганида, унинг мазмуни янада бойтилган бўлар эди. Масалан, Халқаро миграция ҳуқуқи – шахсларнинг давлатлар чегаралари орқали ҳаракатига оид жараёнларни тартибга солувчи, инсон ҳуқуқларининг универсаллиги асосида давлатлар мажбуриятларини белгилайдиган, тарқоқ ва кесишувчи ҳуқуқий нормалар мажмуасидир. У инсон ҳуқуқлари, меҳнат ҳуқуқи, қочоқлар ҳуқуқи, гуманитар ҳуқуқ, денгиз ҳуқуқи, савдо ҳуқуқи ва иқлимга оид ҳуқуқ соҳалари билан ўзаро боғлиқ ҳолда амал қилади.

Халқаро миграция ҳуқуқи мигрантларнинг турли тоифалари (ихтиёрий, мажбурий, номақбул мақомдаги), уларнинг ҳуқуқий мақоми, муҳофаза кафолатлари ҳамда давлатларнинг суверен ҳуқуқлари билан халқаро мажбуриятлари ўртасидаги мувозанатни назарда тутади. Ушбу соҳанинг ҳуқуқий асослари халқаро шартномалар, оммавий ҳуқуқ, минтақавий битимлар ва халқаро ташкилотлар амалиётида намоён бўлади. Бизнинг фикримизча, халқаро миграция ҳуқуқи ўзига хос халқаро ҳуқуқий асослар ва институтлар ҳамда халқаро-ҳуқуқий механизмларга эга бўлган халқаро-ҳуқуқнинг мустақил соҳасидир.

Халқаро миграция ҳуқуқи шаклланиши ва ривожланиши ҳақидаги назарий қарашлар юзасидан турлича ёндашувлар мавжуд бўлиб, у баҳсли ва мунозарали ҳисобланиб, соҳага оид турли олимларнинг субъектив ва объектив назарий қарашлари асосида шаклланганлигини кўришимиз мумкин.

Шунингдек, хорижий олимларнинг халқаро ҳуқуқ тизимида соҳаларнинг ажралиб чиқишига оид турли фикрлар мавжуддир. Масалан, Т.Я. Хабриева миграция ҳуқуқини соҳалараро ҳуқуқий мажмуаси ва уни бошқа соҳалардан алоҳида бўлиб бораётган тенденцияси ҳақида[2] фикр билдириб ўтган.

Е.Ф. Сафронованинг фикрича, анъанавий халқаро ҳуқуқ назариясида ички ҳуқуқ соҳасидаги ажралиб чиқиш асосий мезонлар халқаро ҳуқуқ соҳасидан фарқ қилади. Чунки ички ҳуқуқ соҳасидаги асосий мезонлар (предмет ва тартибга солиш методи) бир хил ҳисобланади[3]. Шунга кўра халқаро ҳуқуқ соҳасини ажралишига оид қўшимча (факультатив) белгилари бўйича баҳслар ҳанузгача тўхтамаган.

---

[1] Chetail, V. The Architecture of International Migration Law: A Deconstructivist Design of Complexity and Contradiction. Cambridge University Press. – 2017. – Vol. 111. – P. 18–23 // https://doi.org/10.1017/aju.2017.11

[2] Хабриева Т.Я. Миграционное право: сравнительно-правовое исследование. – М.: Институт законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве Российской Федерации, 2019. – 400 с.

[3] Сафронова Е.В. Очерки теории международного публичного права. – Елец: ЕГУ им. И.А. Бунина, 2009. – С. 55.

Халқаро ҳуқуқнинг умумий предмети давлатлараро муносабатлар ҳукмронлик характерида бўлиши, ягона методига давлатлар иродасини мувофиқлаштириш деб ҳисоблайди.

Д.И. Фельдман, таклиф этилган мезонлар орасида: маълум бир гуруҳ нормалар автономияси[1]дир. Е.А. Шибаева ҳуқуқий нормаларнинг ўзига хослиги ва уларни яратиш усуллари, мустақил ҳуқуқ соҳасини шакллантириш зарурлигини таъкидлайди. С.А. Малинин сифатли алоҳида муносабатлар. Аниқ бир гуруҳ ижтимоий муносабатларни ҳуқуқий жиҳатдан ривожланиши ва такомиллаштирилишида жамиятнинг манфаатдорлиги (Масалан, атом ҳуқуқи А.И. Йорыш). Тегишли муносабатлар соҳаси учун катта ҳажмдаги норматив ҳуқуқий ҳужжатлар ва уларнинг "ўзаро боғлиқлиги" табиати (Ю.М. Колосов). Муайян соҳадаги ижтимоий муносабатларнинг халқаро-ҳуқуқий нормалар кодификацияси (С.А. Гуреев). Махсус халқаро ҳуқуқ тамойиллари мавжудлиги (Л.П. Ануфриева, Е.Т. Устенко)[2].

Е.Ф. Сафронова "халқаро ҳуқуқ назариётчи олимлар томонидан танланган ва тавсия этилган шунга ўхшаш қўшимча мезонларнинг бир нечаларидан фойдаланиш зарур, энг аввало: ижтимоий муносабатларнинг аниқ гуруҳини ривожланишида жамиятнинг манфаатдорлиги; ўзига хос функциялар; етарли кўламда норматив материаллар; таркибий қисмларни ташкил этувчи махсус тамойиллар; муайян соҳадаги халқаро-ҳуқуқ нормаларнинг кодификацияси ва бошқалар"[3]дир. Бизнинг фикримизча, халқаро-оммавий ҳуқуқ соҳаларини ажратишнинг асосий мезонлари қаторига ҳуқуқий муносабат объекти киритилиши мақсадга мувофиқдир. Хусусан, биринчидан, тадқиқот объектида ижтимоий муносабатларнинг муайян гуруҳи такомиллаштирилиши нуқтаи назаридан илмий-назарий муаммо сифатида ўрганилса"[4], иккинчидан, тадқиқот объекти аниқлаштирилмасдан туриб, унинг предмети ўрганилса ва тадқиқ этилса назаримизда чалкашликларга сабаб бўлиши мумкин. Ижтимоий муносабатлар доимий статик ҳолатда эмаслиги халқаро ҳуқуқ тизимида халқаро ҳуқуқда инсон ҳуқуқлари ва халқаро ҳуқуқда аҳоли институтлари каби алоҳида тоифадаги шахслар ҳуқуқлари деб аталувчи халқаро миграция ҳуқуқи соҳаси шаклланган дейишимизга тўлиқ асослар мавжуд.

Н.Н. Зинченконинг фикрига кўра, миграция ҳуқуқи универсал ва минтақавий даражадаги миграциявий муносабатларнинг кенг доирасини тартибга солувчи умумий халқаро-ҳуқуқий нормалар ва принциплардир. Шунингдек, икки томонлама битимлар асосида халқаро ҳуқуқ тизимида алоҳида ўрин тутади ва унинг кўплаб институтлари ва тармоқлари билан боғлиқдир. Бу-

---

[1] Фельдман Д. И. О системе международного права // Советский ежегодник международного права. 1977. М.: Наука, 1979. – С. 105–107.

[2] Ануфриева Л.П. Соотношение международного публичного и международного частного права: правовые категории. – М.: Спарк, 2002. – С. 133, 71; Фельдман Д.И. О системе международного права // Советский ежегодник международного права. 1977. – М.: Наука, 1979. – С. 105–107.

[3] Сафронова Е. В. Очерки теории международного публичного права. – Елец: ЕГУ им. И.А. Бунина, 2009. – С. 55.

[4] Алемасов В., Мамадалиев Ш. Илмий тадқиқот: методология, методика, ижодиёт. Катта илмий ходимлар-изланувчилар ва мустақил изланувчилар учун ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. – Б. 18.

ларга, аввало, аҳоли ва ҳудуд институтлари, халқаро меҳнат ҳуқуқи, халқаро гумманитар ҳуқуқ ва бошқаларни киритиш мумкин деб таъкидлайди. Муаллиф томонидан миграция жараёнларини ижтимоий-ҳуқуқий тартибга солиш масалаларининг ўрганилиши, Россия Федерал қонунчилиги ва халқаро-ҳуқуқ нормалари, ушбу соҳада халқаро жамият томонидан ишлаб чиқилган ҳуқуқий амалиётни таҳлил қилиш асосида миграция ҳуқуқининг халқаро-ҳуқуқ тизимида аҳамияти ва ўрни ҳақида мунозарали хулосаларга келган. Замонавий халқаро ҳуқуқ, шу жумладан халқаро ҳуқуқ соҳасидаги махсус соҳа предметининг шаклланишига оид хулосасида – халқаро миграция ҳуқуқи, халқаро ҳуқуқнинг мустақил соҳаси эмас, балки, шубҳасиз, унинг институти, эҳтимол, ривожланиб бораётган истиқболли тармоқларидан биридир[1], деб таъкидлайди.

Бизнинг фикримизча, халқаро ҳуқуқ тизимида халқаро миграция ҳуқуқи янги тармоқ эмас, балки тўлиқ шаклланиб улгурган соҳа сифатида эътироф этилиши зарур.

Биринчидан, давлатлараро миграциявий муносабатларни тартибга солишга қаратилган икки ва кўп томонлама халқаро ҳамкорликнинг шаклланганлигини ва ривожланиб бораётганлигини келтириб ўтиш жоиздир.

Хусусан, АҚШнинг Чикаго университетининг тадқиқотчилари Чилтон, Познер ва Вода томонидан қуйидаги олтита умумий келишув турлари келтирилган:

1. Муддатли меҳнат шартномалари асосида ишлашга оид келишувлар. Бу турдаги келишувлар бир мамлакат фуқароларига бошқа мамлакатга вақтинча ишлаш учун бориш имконини беради. Масалан, 2016 йилда Камбоджа ва Саудия Арабистони ўртасида имзоланган шартнома камбоджалик ишчиларнинг Саудияда қонуний меҳнат фаолиятини амалга ошириш шартларини белгилайди. Унда шартнома муддати тугагач, ишчилар ватанига репатриация қилиниши (қайтарилиши) аниқ кўрсатилган.

2. Мавсумий меҳнатга оид келишувлар. Бу келишувлар ишчиларга муайян мавсум давомида ишлаш учун бошқа мамлакатга қисқа муддатга бориш имконини беради. Масалан, 1992 йилда Франция ва Польша ўртасида мавсумий ишчиларни Францияда ишга жойлаштиришни тартибга солувчи шартнома имзоланган. Унда маълум соҳалар билан чекланилмасдан, қисқа муддатли меҳнат миграциясини бошқариш бўйича умумий ҳамкорлик принциплари белгиланган.

3. Стажёрлар/амалиётчилар алмашинувига оид келишувлар. Бу келишувлар стажировка мақсадида ишчи кучининг давлатлар ўртасида ҳаракатланишини тартибга солади. Масалан, 1992 йилда Эстония ва Швеция ўртасида тузилган шартнома ҳар икки мамлакатдан бир неча юз киши бир йил давомида бошқа мамлакатда иш тажрибасини орттиришига имкон беради. Бу орқали ишчиларнинг малакавий кўникмалари оширилиши кўзда тутилади.

[1] Зинченко Н.Н. Концептуальные основы институциональной теории международного миграционного права // Миграционное право. – 2017. – № 4. – С. 8.

4. Доимий миграцияга оид келишувлар. Бу турдаги келишувлар фуқароларга мамлакатга кўчиб ўтиб, у ерда доимий яшаш ва ишлаш ҳуқуқини беради. Масалан, 1956 йилда Австралия ва Нидерландия ўртасида тузилган шартнома голландиялик муҳожирларни танлаш, уларнинг сафарини ва ишга жойлашишини тартибга солади. Шу асосда улар Австралияда доимий яшаш ҳуқуқини олади.

5. "Иш ва таътил" (Working Holiday) дастурларига оид келишувлар. Бу келишувлар ёшлар ўртасида халқаро алмашинувни рағбатлантиради. Уларда ишлаш асосий мақсад эмас, лекин меҳнат фаолиятига рухсат берилган бўлади. Масалан, 2015 йилда Чили ва Чехия Республикаси ўртасида тузилган шартнома ҳар икки мамлакат ёшларига бир-бирининг ҳудудига бориб, ишлаб кўриш имконини беради. Аммо ишлаш шартнома бўйича асосий мақсад ҳисобланмайди.

6. Саёҳатларни тартибга солувчи, лекин ишчи миграциясига оид моддаларни ҳам ўз ичига олган келишувлар. Бу келишувлар умумий саёҳат қоидаларини белгилайди, аммо иш фаолияти билан боғлиқ қўшимча бандларни ҳам ўз ичига олади. Масалан, 1978 йилда Камерун ва Франция ўртасида тузилган шартнома ҳар икки мамлакат фуқаролари учун саёҳат шартларини белгилайди ва туристлар, талабалардан ташқари, ишлаш мақсадида сафар қилувчи шахсларга оид махсус талабларни ҳам назарда тутади.

2017 йилда АҚШнинг Чикаго университетининг тадқиқотчилари Чилтон, Познер ва Вода томонидан ишлаб чиқилган маълумотлар базаси ("Тижорий ишлов юклама маълумотлари") 582 та[1] ва 2019 йилда Питерс томонидан чоп этилган икки томонлама меҳнат шартномалари маълумотлар базаси 779 та[2] эканлиги келтирилган ("Питерс маълумотлари").

Иккинчидан, халқаро миграция ҳуқуқи объекти ва предметининг мавжудлигидир. Халқаро миграция ҳуқуқининг объекти – инсонларнинг давлат чегаралари орқали ҳаракатланиши (ихтиёрий ёки мажбурий, вақтинчалик ёки доимий), уларнинг ҳуқуқий мақомини белгилаш, шунингдек, давлатлар, халқаро ташкилотлар ва шахслар ўртасида юзага келадиган миграция жараёнлари билан боғлиқ халқаро-ҳуқуқий муносабатлар мажмуасидир. Бу муносабатлар меҳнат миграцияси, қочоқлар ва бошпана изловчилар, апатридлар (фуқаролиги бўлмаган шахслар), мигрантларнинг инсон ҳуқуқлари ва давлатларнинг суверен ҳуқуқлари ўртасидаги мувозанатни белгилашни ўз ичига олади.

Хорижлик олимлар Б. Опескин, Р. Перрушу, Дж. Редпат-Кросснинг фикрларига кўра "Биз терминология бўйича баҳсларга киришмасдан, халқаро миграция ҳуқуқини халқаро ҳуқуқнинг алоҳида бир соҳаси сифатида қабул қилишни маъқул кўрамиз. У муайян, бироқ хилма-хил мазмундаги предметга эга бўлиб,

---

[1] Chilton A., Posner E., Woda B. Bilateral Labor Agreements Dataset. Harvard Dataverse. Version 1 (Aug. 30, 2017) // https://doi.org/10.7910/DVN/14YF9K

[2] Peters M. Bilateral Labor Agreements Dataset and Additional Replication Data for: Immigration and International Law", Harvard Dataverse. Version 1 (May 13, 2019) // https://doi.org/10.7910/DVN/9ADZUF

ўз ичига халқаро миграция жараёнларини, шунингдек, унда иштирок этувчи шахсларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини тартибга солувчи барча халқаро нормалар, принциплар ва қоидаларни қамраб олади”[1].

Бизнинг фикримизча, халқаро миграция ҳуқуқининг предмети – бу инсонларнинг бир давлатдан бошқа давлатга ихтиёрий ёки мажбурий ҳаракатланиши натижасида давлатлар, халқаро ташкилотлар ва миграция субъектлари ўртасида юзага келадиган халқаро-ҳуқуқий муносабатларни тартибга солувчи нормалар, принциплар ва институционал механизмлар мажмуасидир.

Учинчидан, халқаро миграциявий жараёнларни тартибга солишнинг алоҳида халқаро-ҳуқуқий ва институционал асослар ва механизмларнинг шаклланганлиги.

Тўртинчидан, халқаро миграция ҳуқуқи ҳозирги кунда халқаро ҳуқуқ тизимида шаклланаётган, ўзига хос ҳуқуқий предмет ва субъектларга эга бўлган мустақил соҳа бўлиши билан бир қаторда, у интердисциплинар ва трансверсан хусусиятга эга. Бу шуни англатадики, у бошқа халқаро ҳуқуқ соҳаларидаги мавжуд принциплар, институтлар ва ҳуқуқий механизмлардан амалий ва норматив жиҳатдан фойдаланиш қобилиятига эга.

Бешинчидан, халқаро миграция субъектларининг алоҳида категорияларга мансублиги.

Халқаро миграциявий жараёнларни тартибга солишнинг алоҳида халқаро ҳуқуқий асослар, бу соҳага оид норма ижодкорлиги жараёни ҳозирги замон халқаро ҳуқуқида jus cogens, яъни халқаро “қаттиқ ҳуқуқ” ва халқаро “юмшоқ ҳуқуқ” нормаларини шакллантириш асосида ривожланиб бораётганлигини кўрсатмоқда. Шу билан бирга, ушбу нормалар давлатларнинг универсал, минтақалараро, минтақавий ва икки томонлама ҳамкорликларининг норматив натижалари сифатида ҳам ривожланмоқда. Халқаро миграциявий жараёнларни тартибга солишга оид механизмлар универсал, минтақалараро, минтақавий ва субминтақавий механизмларга бўлинади. Халқаро миграция ҳуқуқи халқаро ҳуқуқда инсон ҳуқуқлари соҳаси ва халқаро ҳуқуқда аҳоли институти билан узвий чамбарчас боғлиқ ҳолда шаклланиб ва ривожланиб келмоқда.

Миграция соҳасига оид глоссарийда халқаро миграция ҳуқуқи миграция учун қўлланилган халқаро миграция ҳуқуқининг норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари[2] дейилган.

[1] Foundations of international migration law / Ed. B. Opeskin, R. Perruchoud, J. Redpath-Cross. – New York. Cambridge University Press, 2012. – P. 9.

[2] Международное миграционное право: глоссарий терминов в области миграции / Под ред. Р. Перрушу. – Женева: Международная организация по миграции, 2005.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИ ИСЛОМ ҲАМКОРЛИК ТАШКИЛОТИ БИЛАН ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ СОҲАСИДАГИ ҲАМКОРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Ахмадов Ойбек,
Инсон ҳуқуқлари бўйича
Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази
мустақил изланувчиси

Замонавий халқаро ҳуқуқ ва халқаро муносабатлар тизимида инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг универсал ва минтақавий механизмлари ўртасидаги ўзаро алоқадорлик масаласи энг мураккаб ва баҳсли мавзулардан бири бўлиб қолмоқда.

Мустақилликка эришгандан сўнг Ўзбекистон икки томонлама ва кўп томонлама муносабатларни фаол ўрнатиш ва ривожлантиришга киришди. Бугунги кунда Ўзбекистон БМТ, ЕХҲТ, ШҲТ, ИҲТ ва бошқа 40 дан ортиқ халқаро ташкилотларга аъзодир[1]. Ўзбекистон Республикасининг ташқи сиёсий стратегиясида, хусусан, "Янги Ўзбекистон" концепцияси доирасида халқаро ташкилотлар билан кўп томонлама ҳамкорликни чуқурлаштириш устувор вазифа сифатида белгиланган. Ушбу жараёнда Ислом ҳамкорлик ташкилоти билан алоқалар алоҳида стратегик аҳамият касб этмоқда.

Ўзбекистоннинг ИҲТ билан ҳамкорлигининг такомиллаштирилиши гендер тенглиги, болалар ҳуқуқлари, фуқаролик жамиятини жалб этиш ва миллий институтларни кучайтириш каби йўналишларда, хусусан, ИҲТнинг ИҲМДК билан ўрнатилган ҳамкорлик орқали ривожланиб бормоқда. Бироқ, олимларнинг полемикаси шуни кўрсатадики, бу жараён ҳам ижобий имкониятларни, ҳам диний ва сиёсий зиддиятларни ўз ичига олади, бу эса Ўзбекистоннинг ИҲТ билан ҳамкорлигининг самарадорлигини ошириш учун илмий ва амалий таклифлар яратишга асос бўлади.

ИҲТ доирасида инсон ҳуқуқлари масаласи ташкил этилган кундан бошлаб турли хил талқинларга ва илмий низоларга сабаб бўлиб келмоқда. Олимларнинг қарашларини шартли равишда учта асосий гуруҳга бўлиш мумкин: танқидий-скептик ёндашув (асосан Ғарб олимлари), прагматик-геосиёсий ёндашув (МДҲ ва Россия олимлари) ҳамда конструктив-уйғунлаштирувчи ёндашув (Ўзбекистон ва прогрессив ИҲТ олимлари).

Ўзбекистон Республикасининг ИҲТ билан инсон ҳуқуқлари соҳасидаги ҳамкорлиги фақат декларатив характерда эмас, балки аниқ институционал механизмларга асосланган. Сўнгги йиллардаги ўзгаришлар Ўзбекистоннинг ташкилот ичидаги "кузатувчи" мақомидан "фаол ташаббускор" мақомига ўтганлигини кўрсатмоқда.

---

[1] Политический атлас современности // https://www.hyno.ru/tom2/1765.html

Ўзбекистон Республикаси 2017 йилдан кейинги ислоҳотлар даврида инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишни ташқи сиёсатнинг устувор йўналишларидан бири сифатида белгилади. Бу давлатнинг халқаро майдондаги обрўсини тиклаш ва халқаро ҳамкорликни, хусусан, ИҲТ доирасида чуқурлаштиришга қаратилган эди. Расмий риторикага кўра, Ўзбекистоннинг "Ўзбекистон – 2030" ривожланиш стратегияси Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Барқарор ривожланиш мақсадлари билан тўлиқ уйғунлаштирилган бўлиб, бу давлатнинг ижтимоий ва иқтисодий соҳаларда халқаро меъёрларга содиқлигини акс эттиради. Ўзбекистон Ташқи ишлар вазири Б. Саидовнинг таъкидлашича, бу сиёсат камбағалликни тўрт баробар камайтириш, таълимга эришишни яхшилаш ва гендер тенгликни ошириш каби сезиларли ютуқларга эришишга имкон беради[1].

ИҲТнинг инсон ҳуқуқлари соҳасидаги асосий органи – бу 2011 йилда ташкил этилган Инсон ҳуқуқлари бўйича мустақил доимий комиссия ҳисобланади. Ушбу орган 18 нафар мустақил экспертдан иборат бўлиб, улар аъзо давлатлар ҳукуматларидан мустақил равишда фаолият юритадилар[2].

Ўзбекистон вакилларининг ушбу Комиссиядаги фаолияти мамлакатнинг "юмшоқ кучи" (soft power) ва халқаро ҳуқуқдаги нуфузини оширишга хизмат қилмоқда:

Академик А. Саидовнинг (2018–2021) Комиссия аъзоси ва кейинчалик раиси этиб сайланиши Ўзбекистон учун бурилиш нуқтаси бўлди. Унинг раҳбарлиги даврида Комиссия ишида таҳлилий ёндашув кучайди. А. Саидов Комиссия кун тартибига "Ривожланиш ҳуқуқи" (Right to Development) ва "Барқарор ривожланиш мақсадлари" мавзуларини олиб кирди. Бу Ўзбекистоннинг БМТдаги устувор йўналишлари билан ҳамоҳанг эди[3].

Ҳамкорликнинг янги босқичи сифатида 2025 йил июнь ойида Истанбулда бўлиб ўтган ИҲТ Ташқи ишлар вазирлари кенгашининг 51-сессиясида Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази директорининг биринчи ўринбосари М. Тиллабаев (2025–2028) ИҲМДК аъзолигига сайланди[4].

Профессор М. Тиллабаевнинг илмий-амалий фаолияти таҳлили шуни кўрсатадики, унинг Комиссиядаги фаолияти қуйидаги устувор йўналишларда давом этиши кутилмоқда:

Конституциявий ислоҳотлар ва инсон ҳуқуқлари. Ўзбекистоннинг янгиланган Конституциясидаги инсон ҳуқуқлари кафолатларини (Миранда қоидаси, Хабеас корпус ва ҳ.к.) ИҲТ маконида намуна сифатида тақдим этиш.

Тошкент декларацияси – Норматив дипломатия намунаси. Ўзбекистон ва ИҲТ ҳамкорлигининг энг ёрқин натижаларидан бири – бу Ёшлар ҳуқуқлари

---

[1] Statement summary // https://gadebate.un.org/en/79/uzbekistan

[2] Independent Permanent Human Rights Commission (IPHRC) of The Organisation of Islamic Cooperation (OIC) // https://www.oic-iphrc.org/home/post/28

[3] Studies, Reports and Declarations // OIC-IPHRC Journal. – 2022. – Vol. 2 // https://oic-iphrc.org/pdf/Journal/2022/IPHRC-Journal-Volume-2022.pdf

[4] Uzbekistan Elected to the Independent Permanent Human Rights Commission of the OIC // https://dunyo.info/en/Fakt/uzbekistan-izbran-v-sostav-nezavisimoy-postoyannoy-komissii-po-pravam-cheloveka-ois

тўғрисидаги Тошкент декларациясининг қабул қилинишидир. 2019 йил октябрь ойида Тошкентда ўтказилган ИҲМДКнинг 6-халқаро семинари "Ёшлар ҳуқуқларини рағбатлантириш ва ҳимоя қилиш" мавзусига бағишланди[1].

Ушбу ҳужжатнинг академик таҳлили шуни кўрсатадики, Ўзбекистон бу ерда стратегик дипломатик юришни амалга оширди. Биринчидан, "Ёшлар ҳуқуқлари" мавзуси ИҲТ макони учун ўта долзарб, чунки аъзо давлатлар аҳолисининг катта қисмини ёшлар ташкил этади ва улар орасида радикаллашув хавфи юқори. Иккинчидан, бу мавзу Ғарб ва Ислом дунёси ўртасидаги "қадриятлар тўқнашуви"дан холи бўлган, барча томонларни бирлаштирувчи "нейтрал" майдондир.

Тадқиқотчи У. Хўжаев таъкидлаганидек, Ўзбекистоннинг 2016 йилда ИҲТ Ташқи ишлар вазирлари кенгашига раислиги давридаёқ "Таълим ва маърифат – тинчлик ва бунёдкорлик йўли" шиорини илгари суриши бежиз эмас эди[2]. Тошкент декларацияси айнан шу стратегиянинг мантиқий давоми бўлиб, у кейинчалик БМТ даражасида Ёшлар ҳуқуқлари тўғрисидаги халқаро конвенцияни қабул қилиш ташаббусига асос бўлди.

Ҳуқуқий муаммолар ва зиддиятларни бартараф этиш йўллари. Илмий холислик тамойилига кўра, Ўзбекистон ва ИҲТ ўртасидаги ҳамкорликда мавжуд бўлган муаммоли жиҳатларни ҳам очиқ таҳлил қилиш зарур.

Қоҳира декларацияси ва Ўзбекистон қонунчилиги ўртасидаги коллизия. 1990 йилги Қоҳира декларацияси ва Ўзбекистон Конституцияси ўртасида фундаментал фарқлар мавжуд. Ўзбекистон Конституцияси давлатнинг дунёвийлигини қатъий белгилайди, Қоҳира декларацияси эса ҳуқуқларни диний нормалар билан боғлайди.

Тадқиқотчи Ж. Муратова ўзининг PhD диссертациясида Ўзбекистон ва Қозоғистон таълим тизимларини қиёслаб, ушбу давлатлар совет давридан кейин "диний эркинлик" ва "дунёвийлик" ўртасидаги нозик балансни сақлашга интилаётганини кўрсатади. Ж.Муратованинг фикрича, Ўзбекистонда диний либослар ва таълим ҳуқуқи масаласидаги ёндашувлар халқаро стандартларга асосланган бўлса-да, ИҲТнинг айрим консерватив ҳужжатлари билан тўлиқ мос келмаслиги мумкин.

Ўзбекистон бу коллизияни қандай ҳал қилмоқда? Таҳлилимиз шуни кўрсатадики, Ўзбекистон "танлаб олиш" ва "ислоҳ қилиш" стратегиясини қўлламоқда:

Ўзбекистон Қоҳира декларациясининг фақат миллий Конституцияга зид келмайдиган қоидаларини эътироф этади. Ўзбекистон ИҲТ доирасида ҳужжатларни янгилаш жараёнида фаол қатнашмоқда. Хусусан, 2020 йилда қабул қилинган ИҲТ Инсон ҳуқуқлари бўйича Қоҳира декларацияси лойиҳаси-

[1] Tashkent declaration on importance of promoting and protecting the rights of youth for building peaceful democratic societies and sustainable development // https://www.oic-iphrc.org/en/data/docs/seminars/881132.pdf

[2] Khodjaev U. Analysis of the relations of Uzbekistan and the Organization of Islamic Cooperation // American Journal of Social Sciences and Humanity Research. – 2023. – Vol. 3. – Issue 12. – P. 7–11 // https://inlibrary.uz/index.php/ajsshr/article/view/38353

ни ишлаб чиқишда Ўзбекистон вакиллари уни универсал нормаларга яқинлаштириш тарафдори бўлганлар. Бу янги ҳужжатда шариатга ҳаволалар камайтирилган ва универсал тилдан кўпроқ фойдаланилган[1].

Ўзбекистон Республикасининг ИҲТ билан инсон ҳуқуқлари соҳасидаги ҳамкорлигининг ҳозирги ҳолати илмий адабиётларда кенг муҳокама қилинган масалалардан бири бўлиб, олимларнинг фикрларида қарама-қаршилик ва полемика ҳукмронлик қилади.

Марказий Осиё-Кавказ институти илмий ходими Р. Вейтз ўз китобида Ўзбекистоннинг янги ташқи сиёсатини таҳлил қилиб, Президент Ш. Мирзиёев даврида инсон ҳуқуқлари соҳасидаги ислоҳотларни ижобий баҳолаб, ИҲТ билан ҳамкорликни Марказий Осиё мамлакатлари учун стратегик манфаат сифатида кўришини таъкидлайди[2].

Ўзбекистонлик олим Д. Эшонқулова ўзининг мақоласида Ўзбекистоннинг ИҲТ билан ҳамкорлиги сўнгги 2–3 йилда янги босқичга кўтарилганини таҳлил қилиб, 2019 йилда Тошкентда ўтказилган ИҲМДКнинг 6-семинарини мисол қилиб кўрсатади, унда ёшлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, таълим ва иш билан таъминлаш масалалари муҳокама қилинган; бу ҳамкорликнинг долзарблигини илмий асослайди, чунки у гендер тенглиги ва зўравонликка қарши курашишга ҳам хизмат қилади[3].

Ҳамкорликни такомиллаштириш борасидаги асосий методологик муаммолардан бири ИҲТнинг ўзига хос ҳуқуқий ёндашуви билан боғлиқ. ИҲТнинг асосий ҳуқуқни ҳимоя қилиш инструменти ҳисобланган Инсон ҳуқуқлари бўйича Қоҳира декларацияси ғарб ҳуқуқшунослари томонидан Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясига муқобил, шариатга асосланган ёндашув сифатида кўриб чиқилади.

Ўзбекистон ва ИҲТ ҳамкорлигини такомиллаштириш мавзусидаги баҳс-мунозарада турли нуқтаи назарлар мавжуд. Масалан, Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети талабаси Г. Низомова ушбу алоқаларни Ўзбекистоннинг бошқа мусулмон давлатлари билан муносабатларни янада кучайтириш, ислом оламидаги жойини мустаҳкамлаш ва ташқи сиёсатдаги имкониятларини кенгайтириш жиҳатидан муҳим[4] деб ҳисоблайди.

Шунингдек, Г.Низомованинг таъкидлашича, Ўзбекистоннинг ИҲТга аъзо бўлиши миллий манфаатларни ҳимоя қилишда, давлатлараро мулоқотни кенгайтиришда муҳим аҳамиятга эга. Муаллиф бу қарашга қисман қўшилади, чунки ҳақиқатдан ҳам янги ўзбек даврида Ислом ҳамкорлик ташкилоти билан ҳамкорлигимиз жадал ривожланмоқда.

---

[1] New Phase of Human Rights Cooperation with OIC // http://pravacheloveka.uz/en/news/new-phase-of-human-rights-cooperation-with-oic

[2] Weitz R. Uzbekistan's New Foreign Policy: Change and Continuity under New Leadership // Silk Road Paper January 2018 // https://www.silkroadstudies.org/resources/pdf/SilkRoadPapers/1801Weitz.pdf

[3] Eshonqulova D. Uzbekistan's Current Relations with the Organization of Islamic Cooperation // Frontline Social Sciences and History Journal. – 2021. – Vol. 1. – Issue 8. – P. 11–17 // https://www.frontlinejournals.org/journals/index.php/fsshj/article/view/76

[4] Низомова Г.Ш. Сотрудничество Узбекистана и ОИС: состояние и перспективы // Молодой учёный. – 2022. – № 49. – С. 512 // https://moluch.ru/archive/444/97349

ИҲТ бутун дунё мусулмонларининг ҳуқуқларини, шунингдек, исломнинг асл қадриятларини ҳимоя қилишга интилади. Бундан ташқари, ташкилот мусулмонларга нисбатан камситишларни барча шакл ва кўринишларида бартараф этишни ўз олдига мақсад қилиб қўйган. ИҲТ мусулмонларнинг ҳаётий манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида БМТ ва бошқа ҳукуматлараро ташкилотлар билан алоқаларни қўллаб-қувватлайди. Ўзбекистон учун ИҲТга аъзо бўлиш ислом маданиятини қайта тиклаш йўлидаги муҳим қадам бўлди. Маълумки, СССР даврида дин ва диний анъаналар давлат томонидан қаттиқ назорат қилинган. Тақиқлар нафақат Ўзбекистонга, балки Марказий Осиёнинг бошқа республикаларига ҳам тегишли эди.

Бироқ, мустақилликдан сўнг вазият бутунлай ўзгарди. Диний қадриятларни тиклаш жараёни бошланди, Қуръон ва ҳадислар, уларга ўзбек тилидаги шарҳлар катта тиражларда нашр этилди. Ўзбекистоннинг исломий мероси фаол тарғиб қилинди. Қайта тикланиш жараёни бошқа ислом давлатлари томонидан илиқ кутиб олинди.

Ўзбекистоннинг ИҲТга кириши ислом оламининг муҳим қисми сифатида тан олинишини англатади. Бу бошқа ислом давлатлари билан муносабатларни янада мустаҳкамлашнинг муҳим жиҳатига айланди ва шу билан Ўзбекистон ташқи сиёсати имкониятларини яхшилади ва кенгайтирди.

Ўзбекистоннинг ИҲТдаги бир қатор устувор йўналишлари:

– Фан ва маданият ривожига ҳисса қўшиш;

– ИҲТга аъзо давлатлар бирлиги ва хавфсизлигини таъминлаш;

– Улар ўртасидаги мавжуд келишмовчиликларни бартараф этиш, терроризм ва экстремизм мафкурасига қарши курашда саъй-ҳаракатларни бирлаштириш;

– ИҲТ доирасида ҳамкорлик механизмларини такомиллаштириш ва ўзаро манфаатли савдо-инвестиция алоқаларини кенгайтириш;

– Ўзбекистон ядро қуролидан холи зоналар географиясини изчил кенгайтиришни қўллаб-қувватлайди ва Яқин Шарқда ядросиз зона яратиш ғоясини маъқуллайди.

Бироқ, ғарблик олимлар полемикасида танқидий нуқтаи назар устувор. Масалан, Лос-Анжелесдаги Оссидентал коллежининг Халқаро муносабатлар кафедраси доценти Э.Т. Чейз ўзининг ишида ИҲТнинг инсон ҳуқуқлари билан боғлиқ фаолиятини танқид қилиб, уни авторитаризм ҳукмронлик қилувчи давлатлар томонидан бошқарилгани учун инсон ҳуқуқларининг субверсияси (қайта талқин қилиш) сифатида кўрсатади, хусусан, 1990 йилги Қоҳира декларациясини мисол қилиб, унинг шариатга тобелиги инсон ҳуқуқларининг универсаллигини бузади, деб илмий изоҳлайди, чунки ушбу Декларация давлат ҳокимиятини кучайтиришга хизмат қилади[1].

Халқаро ҳуқуқшунос М. Бадериннинг фикрича, бу ёндашув, аслида, аъзо давлатларга ўз ички ҳуқуқ бузилишларини оқлаш учун идеологик асос ярата-

[1] Chase A.T. The Organization of Islamic Cooperation: A case study of international organizations' impact on human rights // https://www.humanrights.dk/files/media/migrated/2015.2_matters_of_concern_chase_2015_final.pdf

ди. Танқидчилар, айниқса, АҚШ ва Европадан бўлган ҳуқуқшунослар, ИҲТнинг ИҲМДК фаолиятини шубҳа остига олиб, унинг мақсади универсал ҳуқуқларни тарғиб қилишдан кўра, аъзо давлатларнинг халқаро танқидлардан ҳимояланишига қаратилганлигини таъкидлайдилар.

Бу концептуал келишмовчилик Ўзбекистон ва ИҲТ ҳамкорлигини баҳолашда муҳим аҳамиятга эга: ҳамкорлик ҳақиқий ҳуқуқий ислоҳотларга эришиш воситаси бўладими ёки фақат сиёсий легитимация ва "Ислом оламидаги етакчи" мавқеини мустаҳкамлаш учун хизмат қиладими?

Биринчи полемик йўналиш: дин, давлат ва фуқаролик эркинликлари муаммоси. Янги Ўзбекистоннинг инсон ҳуқуқлари соҳасидаги ҳамкорлигини такомиллаштириш бўйича биринчи полемика диний сиёсатнинг мазмуни ва йўналишига қаратилган[1].

Ислоҳотлар давомийлиги ва диннинг "секуляризацияси" тезиси – Пропонент (танқидий тезис). Бу йўналишдаги энг кескин танқидий позицияни германиялик таниқли сиёсатшунос д-р А. Шмиц илгари суради. Д-р Шмицнинг таҳлилига кўра, Янги Ўзбекистонда бошланган диний сиёсат "либераллашув" шиори остида амалга оширилаётган бўлса-да, моҳиятан аввалги давр сиёсатининг муҳим жиҳатларини давом эттиради.

Ўзбекистоннинг "бағрикенглик модели" тезиси – Оппонент (расмий тезис). Танқидий ёндашувга жавобан, ИҲТнинг расмий вакиллари ва Ўзбекистон ҳамда МДҲ давлатлари олимлари Ўзбекистоннинг ёндашувини ноёб ва ижобий модел сифатида тақдим этадилар.

ИҲТ Бош котиби ёрдамчиси профессор Ю. Алдобеай Ўзбекистон томонидан 2022 йилда қабул қилинган "Бухоро декларацияси" нима учун муҳимлигини таъкидлайди. Унинг фикрича, Ўзбекистон давлат институтлари ва диний ташкилотлар ўртасида мувозанатга асосланган секуляризм моделини таклиф қилмоқда. Ю.Алдобеай бу моделни виждон эркинлигини қўллаб-қувватлаш ва динлараро тотувликни мустаҳкамлашга қаратилган амалий қадам сифатида баҳолайди, бу эса келажак авлодлар учун намуна бўла олади[2].

МДҲ ва Ўзбекистон ҳуқуқшунослари, масалан, А.С. Раҳмонов сингари тадқиқотчиларнинг умумий позицияси, Ўзбекистоннинг диний сиёсатидаги дунёвийлик тамойилини (таълим тизимининг диндан ажратилганлиги) қўллаб-қувватлайди. Улар диний сиёсатни биринчи навбатда хавфсизликни таъминлаш, экстремизмга қарши курашиш ва миллатлараро тотувликни сақлашдаги марказий омил деб ҳисоблайдилар.

Такомиллаштириш бўйича таклиф: ҳамкорликни такомиллаштириш учун Ўзбекистон ИҲТнинг эксперт салоҳиятидан (шу жумладан, уламолар ва ҳуқуқшунослардан) фойдаланган ҳолда, диний эркинлик бўйича халқаро ҳуқуқ меъёрларига мос келиш мақсадида мавжуд чекловчи қонунчиликни қайта кўриб чиқиши лозим. Бу амалий чоралар Шмиц каби олимларнинг "эски сиёсатнинг давоми" ҳақидаги танқидларини бартараф этишнинг ягона йўлидир.

---

[1] German Institute for International and Security Affairs (SWP) // https://www.swp-berlin.org/10.18449/2023RP08/

[2] Uzbekistan is proposing a model of religious freedom and tolerance // https://cisc.uz/en/news-item/583

Иккинчи полемик йўналиш: ИҲТнинг ҳуқуқни ҳимоя қилиш механизмининг холислиги ва универсаллиги муаммоси. Бу полемика ҳамкорликнинг институционал ишончлилигига қаратилган бўлиб, Ўзбекистоннинг ИҲТ билан муносабатлари ҳақиқий ҳуқуқни ҳимоя қилиш воситаси сифатида ишлай оладими ёки фақат сиёсий ютуқ сифатида хизмат қиладими, деган саволга жавоб излайди.

АҚШ ва Европанинг нуфузли халқаро ҳуқуқ мутахассислари ИҲТнинг инсон ҳуқуқлари механизми бўйича кескин танқидий позицияни эгаллайдилар. АҚШнинг Оклахома университети ҳуқуқ коллежи профессори Э.Асвад ва Т.Каяоғлу каби олимлар ИҲМДКнинг структуравий нохолислигини таҳлил қиладилар.

Уларнинг асосий тезиси шундаки, ИҲМДКнинг асосий эътибори фақат аъзо бўлмаган давлатларга (масалан, Исроилнинг босиб олинган ҳудудлардаги вайронагарчиликлари, Мьянмадаги Роҳинжа мусулмонлари муаммоси ва ҳ.к.) қаратилган бўлиб, аъзо давлатлардаги инсон ҳуқуқлари бузилишини танқид қилишдан доимий равишда ўзини олиб қочади. Т.Каяоғлу ИҲТга аъзо давлатларнинг тўққизтаси (шу жумладан, Ўзбекистон ҳам) 2010 йилдаёқ Freedom House томонидан инсон ҳуқуқлари энг ёмон бузиладиган давлатлар қаторига киритилганини таъкидлайди, аммо бу ҳолатлар ИҲМДК томонидан танқид қилинмайди.

Профессор Э. Асваднинг таҳлилига кўра, ИҲМДК универсал ҳуқуқларни тарғиб қилиш ўрнига, аъзо давлатларни халқаро танқидлардан ҳимоя қилишга, шубҳали ҳуқуқий таҳлилларни тақдим этишга қаратилган. Бундан келиб чиқадики, Ўзбекистоннинг ИҲТ билан ҳамкорлиги, энг аввало, БМТ тизимида танқидлардан сиёсий ва идеологик ҳимояланиш вазифасини бажаради, ҳақиқий ҳуқуқий асосга эга эмас.

ИҲМДКнинг институционал заифлиги ва Ўзбекистоннинг роли: Оппонент (прагматик ёндашув): ИҲМДКнинг ўзи ҳам халқаро ҳуқуқшунослар томонидан айтилган танқидларни институционал заифлик сифатида қисман тан олади. ИҲМДК Котибияти ижрочи директори, профессор Н. бинт Заид ал-Рашуд аъзо давлатларни Комиссиянинг мустақиллиги ва объективлигини таъминлаш учун Котибиятнинг бюджет ажратмаларини зудлик билан қайта кўриб чиқишга ва кўпроқ профессионал ходимларни ёллашга чақирган.

Бу ички чақириқ (Ал-Рашуд) халқаро ҳуқуқшуносларнинг (Асвад/Каяоғлу) ташқи танқиди билан мос келади. Бу, ИҲМДКнинг самарасизлиги фақат сиёсий позиция билан эмас, балки институционал тузилма ва молиявий таъминотнинг етишмаслиги билан ҳам боғлиқ эканлигини кўрсатади. ИҲМДКнинг самарадорлигини ошириш ҳамкорликни такомиллаштиришнинг муҳим шартидир.

Такомиллаштириш бўйича таклиф: ҳамкорликни такомиллаштиришнинг асосий йўли – Ўзбекистон ИҲТнинг фаол аъзоси сифатида профессор Ал-Рашуднинг ИҲМДКнинг бюджетини кўпайтириш ва унинг мустақиллигини таъминлаш бўйича чақириғини биринчилардан бўлиб қўллаб-қувватлаши керак.

Бу Ўзбекистонга ИҲТ доирасида ҳақиқий ҳуқуқий ислоҳотлар тарафдори сифатида пешқадамлик қилиш имконини беради ва шу орқали ўз ичида ҳам фуқаролик жамияти эркинлиги бўйича очиқ мулоқотни бошлаш учун платформа яратади.

Учинчи полемик йўналиш: Гендер тенглик ва ижтимоий ҳуқуқларнинг ИҲТ доирасидаги аҳамияти. Бу полемика Ўзбекистоннинг инсон ҳуқуқлари соҳасидаги фаолиятини ижтимоий-иқтисодий ютуқлар нуқтаи назаридан баҳолайди, бу соҳалар Барқарор ривожланиш мақсадлари ва ИҲТ мандатларига энг мос келадиган йўналишлардир.

Иқтисодчи А. Обидов ва Жаҳон банки ҳисоботларига асосланган тадқиқотлар Ўзбекистоннинг гендер тенглик соҳасидаги муайян ютуқларини қайд этади.

Асосий тезис шундаки, Ўзбекистон инсон капиталига сармоя киритишда, айниқса, таълим ва соғлиқни сақлаш хизматлари бўйича эркаклар ва аёллар учун тенг равишда таъминлаш борасида нисбатан яхши натижаларга эришган. Бу, мамлакатнинг глобал гендер тенгсизлиги индексидаги кучли мавқеини таъминлайди. Ҳукумат аёлларнинг иқтисодий салоҳиятини оширишга қаратилган аниқ ташаббусларни нафақат адолат масаласи, балки иқтисодий ўсишнинг асосий драйвери сифатида кўрмоқда.

Бироқ, А. Обидовнинг ўзи ҳам иқтисодий ўсишни тўлиқ таъминлаш учун иш жойидаги гендер камситишлар, меҳнат бозорига киришдаги тўсиқлар ва репродуктив ҳуқуқлар каби ижтимоий-иқтисодий тўсиқларни бартараф этиш зарурлигини таъкидлайди[1].

Ҳамкорликни такомиллаштириш учун Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий соҳалардаги муваффақиятларини намойиш этишда давом этиши, айни пайтда ИҲМДК платформасидан фойдаланиб, фуқаролик жамияти институтларига нисбатан очиқликни ошириши лозим. Бу ижтимоий ҳуқуқларнинг сиёсий ҳуқуқлар билан ажралмас алоқасини таъминлаш учун зарурдир.

Умумлаштирувчи хулоса ва тавсиялар. Олимларнинг Ўзбекистон ва ИҲТ ўртасидаги инсон ҳуқуқлари соҳасидаги ҳамкорликни такомиллаштиришга қаратилган полемикасини таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, бу ҳамкорликнинг потенциали мавжуд сиёсий ва институционал чекловлар туфайли тўлиқ рўёбга чиқмаяпти. Муваффақиятга эришиш учун икки томонлама стратегия талаб қилинади: ИҲТнинг институционал ишончлилигини ошириш ва Ўзбекистоннинг ички ҳуқуқий либераллашувини чуқурлаштириш.

Ўзбекистоннинг ИҲТ билан инсон ҳуқуқлари соҳасидаги ҳамкорлигини такомиллаштириш учун қуйидаги тавсияларни амалга ошириш мақсадга мувофиқдир:

Институционал яхлитликка эришиш. Ўзбекистон Республикаси ИҲТнинг энг фаол аъзоларидан бири сифатида профессор Ал-Рашуднинг ИҲМДК-

[1] Obidov A. Gender equality in Uzbekistan: an overview and prospects for the future. May 2023 // The American Journal of Political Science Law and Criminology. – 2023. – Vol. 5. Issue 5. – P. 17–21 // https://theamericanjournals.com/index.php/tajpslc/article/view/4096

нинг мустақиллигини ошириш бўйича чақириғини қўллаб-қувватлаши ва бу механизмнинг молиявий ва кадрлар таъминотини кучайтириш бўйича ташаббусларни илгари суриши лозим. Бу, профессор Асваднинг танқидига жавобан, ИҲМДКнинг ўз аъзоларига нисбатан объектив мониторинг юритиш имкониятини оширади. Акс ҳолда, ҳамкорлик сиёсий легитимация воситаси бўлиб қолаверади.

Диний сиёсатда ҳуқуқий либераллашув. Д-р Шмицнинг диннинг "секуляризацияси" ҳақидаги фикрларини ҳисобга олган ҳолда, "Янги Ўзбекистон" ҳукумати ИҲТ билан ҳамкорликни нафақат маърифий (Алдобеай тезиси), балки фуқаролик эркинликларини ҳуқуқий либераллаштириш воситаси сифатида ишлатиши керак. Бу, айниқса, диний эркинлик билан боғлиқ чекловчи қонунчиликни (2021 йилги қонун ва Жиноят кодексидаги тегишли моддалар) халқаро стандартларга мувофиқлаштириш орқали, тинч диний ифодани "экстремизм" деб ҳисоблаш амалиётини бартараф этишга қаратилиши лозим.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, "Ўзбекистон Республикасининг ИҲТ билан инсон ҳуқуқлари соҳасидаги ҳамкорлиги" мавзуси бугунги кунда фақат дипломатик алоқалар соҳасидан чиқиб, жиддий ҳуқуқий ислоҳотлар ва глобал норма ижодкорлиги жараёнига айланмоқда. Ўзбекистоннинг 2025–2028 йилларда ИҲМДКдаги иштироки бу жараённи янги босқичга олиб чиқиши, хусусан, ИҲТ ҳужжатларини Ўзбекистоннинг конституциявий ислоҳотлари тажрибаси асосида модернизация қилиш имконини беради.

Ўзбекистоннинг ИҲТ билан инсон ҳуқуқлари соҳасидаги ҳамкорлигини такомиллаштириш иккита асосий устувор йўналишни бирлаштиришни тақозо этади: Ички сиёсатда инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро мажбуриятларга сўзсиз амал қилиш ва Ташқи сиёсатда ИҲМДК механизмини универсал ҳуқуқлар тамойиллари асосида ислоҳ қилишга пешқадамлик қилиш. Бундай ёндашув Ўзбекистонни Ислом оламида нафақат маънавий, балки ҳуқуқий ислоҳотлар бўйича ҳам етакчига айлантириши мумкин.

YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZLARINING HUQUQIY MAQOMI: TAHLILIY YONDASHUV

Xushnazarov Asliddin,
Adliya vazirligi, Yuridik xizmatlar faoliyatini
muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh maslahatchisi

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini huquqiy jihatdan ta'minlash, shuningdek, ularga malakali va professional yuridik xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yishga qaratilgan izchil islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar adliya bo'limlari tarkibida tashkil etilgan yuridik xizmat ko'rsatish markazlari (keyingi o'rinlarda – Markazlar)

muhim oʻrin egallab, tuman (shahar) darajasidagi davlat idoralari faoliyatida qonun ustuvorligini ta’minlash Markazlar faoliyatining asosiy yoʻnalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Huquqshunos olim X.S. Fayziyev quyidagilarni davlat boshqaruvi organlarining funksional vazifalarini yuridik jihatdan ta’minlash jarayonida yuzaga keladigan tizimli muammolarga olib keluvchi asosiy kamchiliklar sifatida:

– yuridik xizmat xodimlarining davlat organlari va tashkilotlari rahbarlariga xizmat boʻyicha boʻysunishi sababli yuriskonsultlar faoliyati davomida qandaydir muammo kelib chiqishidan xavotirlanib, normativ-huquqiy hujjatlarning qonunchilik talablariga mos kelishini har doim ham talab qilmasligi;

– davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlari faoliyatida qonuniylikni ta’minlashga qaratilgan ishlarni amalga oshirish boʻyicha aniq shakllangan mexanizm mavjud emasligi hamda Adliya vazirligi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan davlat boshqaruv organlari yuridik xizmatlari faoliyatini tizimlashtirishga asoslangan standartlar ishlab chiqilmaganligi;

– ommaviy ravishda subyektiv maqsadga muvofiqlik prinsipi qonuniylik prinsipidan ustunlik qilishi, xususan, davlat boshqaruvi organlari ustidan rahbarlik, birinchi navbatda, qoʻyilgan vazifani hal qilishga intilib, uni hal qilish uchun har doim ham qonunga mos keladigan yoʻl tanlanmasligi va koʻpgina holatlarda rahbarlar yuridik xizmat xodimlari fikrini tinglamasliklari;

– davlat organlari va tashkilotlarining hududiy boʻlinmalari yuristlari va yuqori turuvchi organlarining yuridik xizmatlari oʻrtasida majburiyatlarning aniq taqsimoti mavjud emasligi;

– respublika darajasidagi davlat organlarining yuridik xizmatlari ular tomonidan tayyorlangan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari sifatiga yetarli darajada e’tibor qaratmasliklari kabi holatlarni keltirgan[1].

Shuningdek, davlat organlari va tashkilotlar rahbarlari hamda xodimlarining koʻplab holatlarda qonunchilik talablariga rioya qilmasliklari jamoatchilik orasida keng tarqalgan noroziliklarga sabab boʻlmoqda. Vaholanki, davlat organlari va tashkilotlaridagi yuridik xizmat xodimlari bunday qonunbuzilishi holatlarini aniqlab, ularni bartaraf etish borasida rahbar shaxslarni birinchilardan boʻlib xabardor qiluvchi mas’uliyatli shaxslar sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, soʻnggi yillarda davlat tashkilotlariga yuridik xizmat sohasida bir qancha ishlar amalga oshirilishiga qaramasdan, davlat organlarida yuridik xizmat faoliyatini tashkil qilishning salbiy jihatlari bartaraf qilinmasdan qoldi. Ayniqsa, Markazlar tashkil qilingunga qadar tuman (shahar) darajasidagi aksariyat tashkilotlar, xususan, maktablar, maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda poliklinikalar yuridik xizmat bilan ta’minlanmagan edi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar, davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati faoliyatini modernizatsiyalash zaruriyati yuzaga keltirdi. Shu munosabat bilan, yuridik xizmat faoliyatini “markazlashtirish modeli” joriy etildi.

[1] Файзиев Х. Юридик хизмат кўрсатишнинг такомиллашуви: хорижий тажриба ва миллий амалиётнинг шаклланиши // “Юридик хизмат кўрсатиш истиқболлари: муаммо ва ечимлар” илмий-амалий конференция материаллари. – Т.: Юристлар малакасини ошириш маркази, 2023. – Б. 13–29.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-son “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan davlat tashkilotlariga sifatli yuridik xizmat ko‘rsatilishini ta’minlash maqsadida eksperiment tariqasida tuman (shahar) adliya bo‘limlari huzurida yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari tashkil etish belgilandi[1].

Vazirlar Mahkamasining 2020-yilning 17-sentabrdagi 561-son “Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari faoliyatini eksperiment tariqasida tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi va ushbu Qarorga muvofiq, Markazlar dastlab Namangan shahri, Qarshi hamda Marhamat tumanlaridagi davlat tashkilotlariga eksperiment tariqasida “E-huquqshunos” elektron tizimi orqali yuridik xizmat ko‘rsatishni boshladi[2].

Eksperimentning ijobiy natijalaridan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni[3] bilan davlat organlari va tashkilotlariga markazlashgan yuridik xizmat ko‘rsatish tizimini joriy qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi PQ-5168-son Qarori bilan respublikaning barcha tuman (shahar)larida Markazlar tashkil etildi[4].

Xususan, yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari – qonunchilik hujjatlari bilan yuridik xizmat ko‘rsatilishi belgilangan davlat organlari va tashkilotlar faoliyatini huquqiy jihatdan ta’minlash hamda ularga sifatli va malakali yuridik yordam ko‘rsatish maqsadida adliya bo‘limlari tuzilmasi va bo‘ysunuvida tashkil etiladigan yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan tarkibiy bo‘linma hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan Qaror bilan Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanib, Markazlarning huquqiy maqomi, asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari aniq belgilab berildi.

Markazlarning quyidagi asosiy vazifalari etib, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini huquqiy jihatdan ta’minlash, davlat tashkilotlariga sifatli va malakali yuridik yordam ko‘rsatish, davlat tashkilotlari xodimlarining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish, davlat tashkilotlarining mulkiy hamda boshqa huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘z vaqtida, har tomonlama va samarali himoya

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5997-son farmoni // https://lex.uz/docs/-4820060

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-sentabrdagi “Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari faoliyatini eksperiment tariqasida tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 561-son qarori // URL: https://lex.uz/ru/docs/-5000814

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-6155-son farmoni // URL: https://lex.uz/uz/docs/-5260791

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko‘rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5168-son qarori // URL: https://lex.uz/ru/docs/-5482934

qilinishini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning loyihalaridagi korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishga koʻmaklashish kabilar belgilandi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun Markaz xodimlariga 40 dan funksiyalar yuklatildi.

Shuningdek, mazkur Nizom doirasida Markaz xodimlarining huquq va majburiyatlari hamda ularning javobgarligi aniq belgilab qoʻyilgan. Xususan, Markazlar xodimlariga sud protsessida yuridik xizmat koʻrsatiladigan tashkilotlarning vakili sifatida qatnashish huquqi berildi.

Shu bilan birga, Markazlar xodimlari tomonidan viza qoʻyilgan hujjat loyihalarining va loyihalarga berilgan yuridik xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan shaxsan javobgar hisoblanadi.

Hozirda Markazlar tomonidan respublika boʻyicha tuman (shahar) darajasidagi 19 turdagi 21 mingdan ortiq davlat idoralariga yuridik xizmat koʻrsatib kelinmoqda. Faoliyati yoʻlga qoʻyilganiga koʻp muddat oʻtgan boʻlmasa-da, Markazlar oʻzining samaradorligi, aniqligi hamda tezkorligini koʻrsatdi.

Markazlar tomonidan xizmat koʻrsatilayotgan davlat idoralarining barcha yuridik tusdagi hujjatlarini “E-huquqshunos” tizimi orqali elektron qabul qilinishi natijasida tashkilotlarning ish yurituvi toʻliq raqamlashtirildi.

Bundan tashqari, xizmat koʻrsatilayotgan tashkilotlarning faoliyatida bir xil huquqni qoʻllash amaliyoti shakllandi.

Shunga qaramasdan, Markazlar faoliyatida hal qilinishi lozim boʻlgan masalalar bor. Albatta, mazkur muammolarni bartaraf qilinishida Markazlarning huquqiy maqomini mustahkamlab borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, kelgusida Markazlar qamrovini yanada oshirish maqsadida tuman (shahar) darajasidagi barcha davlat tashkilotlariga malakali yuridik xizmat koʻrsatishni tashkil qilish hamda “E-huquqshunos” elektron tizimiga bosqichma-bosqich sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish lozim.

Biroq, sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish uchun yuridik xizmat xodimi tizim jarayonlarini doimiy kuzatib tahlil qilib borishi hamda hujjatlarni qabul qilish va tekshirishda sun’iy intellekt tavsiyalarini muvofiqlashtirishi zarur. Chunki sun’iy intellekt ishtirokida tayyorlangan hujjatlar boʻyicha xatolik yoki qonunbuzilishlar aniqlanganda javobgarlik masalasi qonunchilik hujjatlari bilan belgilab qoʻyilmagan.

Yuqoridagilar boʻyicha tahliliy yondashuvlardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Birinchidan, yuridik xizmatning yangicha modelini amaliyotga joriy etilishi huquqiy ishlar sifatining oshishiga, shuningdek, xolislik va mustaqillikning ta’minlanishiga ijobiy ta’sir koʻrsatdi.

Ikkinchidan, yuridik xizmat faoliyatining markazlashgan holda tashkil etilishi mazkur sohada mavjud boʻlgan an’anaviy yondashuvlarni takomillashtirish hamda xizmat koʻrsatishning zamonaviy mexanizmlarini shakllantirish uchun muhim zamin yaratdi.

Uchinchidan, markazlashgan holda yuridik xizmat koʻrsatish davlat organlari tomonidan qonunchilik hujjatlariga zid boʻlgan qarorlar qabul qilinishining oldini

olishga xizmat qiladi. Bu esa, oʻz navbatida, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlari buzilishining kamayishiga, sudgacha boʻlgan va sud tartibidagi nizolar sonining qisqarishiga hamda fuqarolarning davlat va boshqaruv organlariga boʻlgan ishonchining ortishiga sabab boʻladi.

KONSTITUTSIYADA INSON HUQUQLARINING TALQINI VA HIMOYASI

Akmalov Hamid,
Oʻzbekiston Respublikasi
Odil sudlov akademiyasi xodimi

Yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi bilan inson huquqlarini himoya qilishning kafolatlari va mexanizmlari eng yuqori darajada – Asosiy qonun darajasida kuchaytirildi. Zero, Yangi Oʻzbekistonda inson huquq va erkinliklarini faqat tan olishni emas, balki ularga rioya qilish va ularni himoya qilish asoslarini ham kuchaytirish maqsad qilib qoʻyilgan. Konstitutsiyaga kiritilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalarning 40 foizidan ortigʻi, yangi kiritilgan 27 ta normaning 11 tasi bevosita inson huquq va erkinliklarini taʼminlashga taalluqli ekanligi, normalarning inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarga toʻla muvofiqlashtirilganligi yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini toʻlaqonli taʼminlashdan iborat mohiyatini belgilaydi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning Muqaddimasi “Biz, Oʻzbekistonning yagona xalqi – inson huquq va erkinliklariga sodiqligimizni tantanali ravishda eʼlon qilib”, deb boshlanishi ham Oʻzbekistonda bundan buyon jamiyat va davlatning asosiy maqsadi inson huquq va erkinliklari ustuvorligini taʼminlashdan iborat boʻlishini ramziy jihatdan ifodalaydi[1].

Yangilangan Konstitutsiyamizga kiritilgan inson huquq va erkinliklari sohasidagi oʻzgarishlar haqida toʻxtalib oʻtadigan boʻlsak, inson huquq va erkinliklari sohasida koʻplab normalar kiritildi. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 25-moddasiga koʻra Oʻzbekistonda oʻlim jazosi taʼqiqlanadi. Yashash huquqi har bir insonning ajralmas va tabiiy huquqi hisoblanadi. Mamlakatimizda 2008-yildan barcha jinoyatlar uchun oʻlim jazosi bekor qilingan, lekin Konstitutsiyada emas, balki jinoyat qonunchiligida oʻz aksini topgan edi.

Oʻlim jazosi taʼqiqlanishining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi insonni hayotdan, hatto davlat ham mahrum etishga haqli emasligini kafolatlaydi. Ushbu norma bilan davlatimiz bu jiddiy masalada hech qachon ortga qaytmasligini, insonparvarlik gʻoyalariga sodiq ekanligini butun dunyoga namoyon qiladi. Misol sifatida bugungi kunda 106 ta davlatda oʻlim jazosi barcha jinoyatlar uchun bekor qilingan. Ayrim davlatlar oʻz tajribalarida oʻlim jazosini qonunlari bilan bekor

[1] Qutlimuratov F.Q., Akmalov H.A. Konstitutsiyadagi yangi normalar va ularning tahlili: metodik qoʻllanma. – Nukus, 2023. – B. 25.

qilsa-da, konstitutsiyada boʻlmaganligi uchun uni jazo sifatida qayta tiklash holatlari ham kuzatilgan. Shuningdek, sudlar ham xatolarga yoʻl qoʻyish xavfini inkor etib boʻlmaydi. Shunday ekan, oʻlim jazosi tayinlangan shaxsga sud kelgusida oqlov hukmi chiqaradigan boʻlsa, nohaq ayblangan inson hayotini ortga qaytarishning hech qanday iloji yoʻq. Shu nuqtai nazardan Qomusimizga kiritilayotgan Oʻzbekistonning qat'iy pozitsiyasi mamlakatimizda inson hayoti, uning qadri yuqori darajada himoya qilinishini yana bir bor tasdiqlaydi hamda ijtimoiy-siyosiy hayotimizda mazkur jazo turini qaytarish va qoʻllash boʻyicha har qanday tashabbuslarni qat'iy ravishda cheklaydi. Pirovardida har bir inson, hatto u jinoyat sodir etgan boʻlsa ham uning yashash huquqi kafolatlanishiga xizmat qiladi[1].

Insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsiz ekanligi, qiynoqqa solish, zoʻravonlik, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etish, shaxsning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar oʻtkazilishiga yoʻl qoʻyilmasligining Konstitutsiyada belgilanishi jazoni oʻtash joylarida saqlanayotgan shaxslarning huquq va erkinliklarini mustahkamlashga, xalqaro maydonda Oʻzbekiston obroʻyini yanada oshirishga, shuningdek insonparvarlik, adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini amalga oshirishga xizmat qiladi[2].

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 27-moddasiga asosan, "Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas. Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga koʻra yoʻl qoʻyiladi".

Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi bu – har bir inson tugʻilishi bilan qoʻlga kiritadigan, har kim erkin, oʻz ixtiyori boʻyicha harakat qilishi, oʻzganing shaxsiy erkinligi va daxlsizligiga ziyon yetmaydigan tarzda yurish-turishni tanlash imkonini beruvchi huquqdir. Shaxsning erkinligi jamiyatdagi axloq me'yorlari doirasidan chiqmasligi va qonun asosida boʻlishi kerak, ya'ni shaxs har qanday harakatni qonun va qonun hujjatlarida man etilmagan va huquqiy koʻrsatmalarga zid kelmagan taqdirda amalga oshirishi mumkin[3].

Inson huquqlarini sud orqali himoya qilish boʻyicha muhim institutlardan biri – "Xabeas korpus" shaxs erkinligini cheklash bilan bogʻliq har qanday harakat faqat sudning qarori asosida amalga oshirilishi shartligi talabidir. Bu qoida shaxsiy erkinlik daxlsizligini kafolatlab, tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqqa olish va saqlashga yoʻl qo'ymaslikka qaratilgan. Bu yangi normaning ahamiyati shundaki, sud-tergov jarayonlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlarni noqonuniy harakatlardan tiyib turishga, shaxsni asossiz hibsga olish holatlarini bartaraf etishga, natijada tergov davomida insonning ozodligini cheklash bilan bogʻliq boʻlgan xatolarga yoʻl qoʻymaslikka xizmat qiladi.

[1] Akmalov H. Yangilanayotgan Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklari, sud-huquq sohasidagi islohotlar // Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – 22-son // https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/585

[2] Moʻminov A.R., Tillaboyev M.A. Inson huquqlari: darslik. 2-nashr // Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2013. – 504-b.

[3] Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. Qayta ishlangan va toʻldirilgan ikkinchi nashri. – T.: Oʻzbekiston, 2013. – 246-b.

Shuningdek, ushbu moddadagi yana bir muhim jihatni ta’kidlab o‘tadigan bo‘lsak, aybsizlik prezumpsiyasidan kelib chiqadigan muhim kafolat, shaxs sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas. Shaxs ushlab turilgan vaqtdan e’tiboran 48 soat o‘tgunga qadar sudga ushlab turishning qonuniyligi va asosliligi to‘g‘risida masalani hal qilish uchun olib borilishi kerak. Agar ushlab turishning qonuniyligi va asosliligi sudga isbotlanmasa, shaxs darhol ozod qilinishi kerak degan norma belgilandi. Ushbu modda shaxs erkinligi va daxlsizlik huquqining konstitutsiyaviy kafolati sifatida xizmat qiladi. Mazkur norma mamlakatimiz Konstitutsiyasida ham “Xabeas korpus” tizimi joriy etilganligini anglatadi.

Konstitutsiyaning 28-moddasida “Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o‘zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta’minlanadi. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o‘ziga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi hamda inson shaxsiga xos bo‘lgan sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi huquqiga ega”, deb belgilab qo‘yildi. Ushbu normani kiritishda birinchi o‘rinda xalqimizdan kelib tushgan takliflar va shu bilan birga xalqaro normalar ham hisobga olingan. Ya’ni, ushbu modda “Miranda qoidasi”ni o‘zida aks ettirgan. Miranda qoidasining mazmuni shundan iboratki, jinoyatda gumon qilinib ushlangan shaxsga nisbatan tegishli idora xodimlari tomonidan bosim o‘tkazilishini istisno qiladi. Bu esa inson, uning hayoti, huquq va erkinliklari – oliy qadriyat degan ezgu tamoyilni amaliyotda keng tatbiq etishga imkoniyat beradi. Shuningdek, mazkur qoida fuqarolarimizning huquq va erkinliklari kafolatlarini yanada kuchaytirishga, ularga nisbatan turli noqonuniy harakatlar sodir etilishini va asossiz ayb qo‘yilishini oldini olishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan asosiy qonun bo‘lib, inson qadri hamda huquq va erkinliklarini ta’minlashning eng muhim, ustuvor kafolatlarini belgiladi. Shuningdek, Konstitutsiya jahonning ko‘plab tillariga tarjima qilinadigan hujjat sifatida Yangi O‘zbekistonni jahon xalqlariga inson qadri va manfaatlarini himoya qiladigan, adolatli, ilg‘or davlat sifatida tanitadi.

Albatta, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning normalari mamlakatimizda islohotlarni yanada jadal sur’atlar bilan davom ettirishni, bu yo‘lda jamiyatning barcha ilg‘or kuchlarini safarbar etishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ИНСОННИНГ АХБОРОТ ОЛИШ ҲУҚУҚИНИНГ ҲУҚУҚИЙ ТАБИАТИ: НАЗАРИЯ ВА АМАЛИЁТ

Аслонов Наврўзбек,
Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси
Миллий маркази етакчи мутахассиси, ю.ф.ф.д. (PhD)

Ахборот олиш ҳуқуқи амалдаги қонун ҳужжатлари талабларига асосланган бўлиб, ахборот тизимларида рақамли ахборотни қидириш, олиш, узатиш, ишлаб чиқариш ва тарқатиш имконини берувчи ҳуқуқлар мажмуини ўз ичига олади ҳамда уни амалга оширишни таъминлайди. Рақамли шаклдаги ахборотни ишлаб чиқариш, ундан фойдаланиш, уни қайта ишлаш, сақлаш, излаш ва узатиш имкониятларининг кенгайиши ахборот олиш ҳуқуқининг ривожланишига сезиларли таъсир кўрсатди.

Бугунги кунда ахборот олиш ҳуқуқи шахсий ва ижтимоий-оммавий характерга эга бўлиб, бу ҳуқуқ шахсий эҳтиёжларни қондириш билан бир қаторда миллий манфаатларни ҳам рўёбга чиқаради. Жамоат манфаатлари ахборотнинг мазмунига қараб уни чеклаш ёки тақиқлаш механизмлари билан ҳимоя қилинади.

Шу билан бирга, рақамли шаклдаги ахборот, ахборот ҳуқуқи ва бошқа ҳуқуқ соҳаларидаги индивидуал ҳуқуқий муносабатлар ва институтларнинг моҳиятини тубдан ўзгартиришга олиб келади. Рақамлаштириш тизими изчил ва тизимли тусга эга бўлмаса-да, у муҳим соҳаларни кенг миқёсда қамраб олмоқда.

Ахборотни эркин излаш, олиш, узатиш, ишлаб чиқариш ва тарқатиш имкониятлари масофавий алоқанинг ривожланишига, виртуал муҳитда инсон ва фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларининг ахборот компонентини ишлаб чиқиш ва ижтимоий жараёнларни виртуализация қилишга имкон яратди. Рақамлаштириш шароитида ахборотга бўлган ҳуқуқ бўйича келгусидаги тадқиқотлар асосан Интернетнинг ахборотдан фойдаланишга бўлган таъсирини чуқур таҳлил қилиш билан боғлиқ бўлади.

Ахборот билан боғлиқ ҳуқуқлар мажмуини, хусусан, ахборот олиш ҳуқуқини шакллантириш зарурати унинг оммавий характери ва ижтимоий қиймати билан боғлиқ. Ахборотга бўлган ҳуқуқ жамиятда маълумотга чекланмаган миқдорда шахсларнинг эркин кириш имконияти орқали ифодаланади, бу эса ушбу тоифанинг мазмунан кенгайишига олиб келди.

Ахборотни ҳуқуқий тартибга солишнинг халқаро ва маҳаллий амалиёти шуни кўрсатадики:

- дастлабки норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар давлатдаги умумий ҳолат динамикасини акс эттирувчи ва миллий ҳуқуқ тизимининг хусусиятларини мужассамлаштирган маълумотлардан фойдаланиш имкониятини беришга қаратилган;
- бундай ҳужжатлар ахборотдан фойдаланиш ҳуқуқини белгилайди ва уни амалга ошириш учун норматив асос яратади;

• давлат ва хусусий манфаатларни мувозанатлаштиришга хизмат қилади.

Қонунчиликни ишлаб чиқиш амалиёти кўрсатадики, миллий тартибга солишда аввалига ахборотдан фойдаланиш ҳуқуқи алоҳида норматив модел сифатида белгиланади, кейинчалик эса бу ҳуқуқ оммавий ахборот воситаларида сўз эркинлиги ривожланиши таъсирида янги мазмун ва кенг ифода шаклларига эга бўлади.

Жамиятда оммавий ахборот воситаларининг ролини кучайиши натижасида ахборотга бўлган эҳтиёж ортди ҳамда бу ахборот олиш ҳуқуқини замонавий мазмунда англаш учун ҳуқуқий ва маданий асос яратди.

Шу нуқтаи назардан, ахборот олиш ҳуқуқи – бу шахснинг маълумот билан танишиш ва уни қабул қилиш қобилиятини ифодаловчи тушунча бўлса, ахборотдан фойдаланиш ҳуқуқи эса нафақат олиш, балки ундан фойдаланиш, уни қайта ишлаш, узатиш ва ахборот-коммуникация технологиялари орқали тарқатиш имконини назарда тутувчи кўп компонентли тушунчадир.

Рақамлаштириш даврининг ўзига хослиги – ахборот олиш ҳуқуқига кенгроқ ёндашишга асос яратмоқда. Бу ёндашув ахборотнинг реал узатилиши билан боғлиқ бўлиб, виртуал муҳитда, яъни ахборот тизимларида амалга ошириладиган ҳаракатлар контекстида юзага келади.

Ахборот олиш ҳуқуқи комплекс ёндашувни шакллантиришда муҳим ўрин тутади. У шахснинг маълумотга бўлган эҳтиёжини аниқ ифодалайди ва шу орқали бошқа субъектив ҳуқуқларни амалга ошириш имконини беради. Ахборот олиш ҳуқуқининг шаклланиши ва ҳуқуқий мустаҳкамланишининг ўзига хос хусусиятларини таҳлил қилиш орқали, энг аввало, оммавий-ҳуқуқий характерга эга ахборотни тартибга солишга эҳтиёж мавжуд.

Бундай тартибга солишнинг оммавий табиати кўп жиҳатдан норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қабул қилишдаги ижтимоий аҳамиятли мақсадлар, шунингдек, ҳуқуқий тизимларнинг тарихий шаклланиши билан боғлиқ.

Ахборот олиш ҳуқуқи субъектлари ўзлари учун қимматли бўлган маълумотлардан турли мақсадларда фойдалана бошладилар. Масалан, ушбу ахборотдан тижорат, молиявий, меҳнатга оид ёки бошқа турдаги ишбилармонлик муносабатларида фойдаланилмоқда.

Ахборотга бўлган ҳуқуқнинг норматив жиҳатдан мустаҳкамланишига доир мавжуд ҳолатларни таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, бу тартибга солиш тизимли эмас, у кўпинча тасодифий ва вазиятга қараб шаклланган.

Халқаро оммавий ҳуқуқнинг ривожланиши ахборот олиш ҳуқуқининг миллий қонунчиликка татбиқ қилинишига ва ҳуқуқ соҳаларида тартибга солинишига кучли таъсир кўрсатди.

Бу эса, ахборот олиш ҳуқуқининг халқаро тартибда тан олиниши жараёнини бошлаб берди. Ахборот олиш ҳуқуқининг халқаро-ҳуқуқий тартибга солиниши XX асрнинг иккинчи ярмида юзага келган ижтимоий-сиёсий вазият билан чамбарчас боғлиқ.

Бу даврда давлатлар ўртасидаги халқаро ҳамкорлик шакллари сезиларли даражада ўзгарди:

- Бирлашган Миллатлар Ташкилоти (БМТ) тузилди;
- БМТ Низомида Ташкилотнинг мақсад ва вазифалари белгилаб қўйилди ва уларнинг амалга оширилиши учун кўплаб халқаро ташкилотлар фаолият бошлади. Халқаро ҳамкорликнинг кучайиши қонунийлик ва тартибни таъминлаш, барқарор тараққиётга эришиш, инсон ҳуқуқларини, шу жумладан мулкий ва номулкий шахсий ҳуқуқларни амалга ошириш учун қулай шарт-шароитлар яратишга хизмат қилмоқда.

Шундай қилиб, ахборот олиш ҳуқуқи бугунги кунда миллий қонунчилик асосида тартибга солинадиган, халқаро тамойилларга таянувчи ва давлат ва жамият, шахс манфаатларини уйғунлаштирувчи асосий ҳуқуқлардан бири сифатида қаралмоқда.

Ахборот алмашинуви доирасида номоддий хусусиятга эга бўлган маълумотларни тарқатиш учун аниқ ва фактик чегаралар мавжуд эмас. Шу сабабли, бу ҳолатни ҳуқуқий презумпция (яъни, мавжуд деб қабул қилинадиган, лекин расмий тасдиқни талаб қилмайдиган ҳолат) сифатида баҳолаш мумкин.

Ҳаётнинг турли соҳаларини рақамлаштириш ахборотнинг хусусий ҳуқуқий муносабатлардаги ўрнини мустаҳкамлаб бораётгани кўриниб турибди. Рақамли ҳуқуқлар ҳуқуқий тизим учун мутлақо янги ҳодиса сифатида эмас, балки ахборот тизими иштирокчилари ўртасида субъектив ҳуқуқлар юзага келадиган объектлар сифатида қаралмоқда. Бундай ахборотлар кўпинча, айнан эгалик ҳуқуқини белгилаш учун зарур, реал ҳаётдаги нусхаси бўлмаган (симуляцияланган), лекин мавжудлик белгиларига эга.

Рақамлаштириш одатий юридик амалиёт тармоқлари ўртасидаги анъанавий фарқларни йўқотмоқда. Бугун ахборотни ҳуқуқий тартибга солиш масалалари фақат реал дунёда эмас, балки виртуал муҳитда мавжуд бўлган ҳодисаларни ҳам қамраб олмоқда, улар кўпинча рақамли шаклда ифодаланади ва махсус ҳуқуқий ёндашувни талаб қилади.

Ахборот технологияларининг жадал ривожланиши, шунингдек, ахборот алмашинуви ва айланишининг тамомила янги имкониятлари туфайли катта ҳажмдаги маълумотлар ҳуқуқий тартибга солиш механизмлари шаклланмасдан олдин ҳам шартнома муносабатларининг мустақил объекти сифатида қаралмоқда.

Шунингдек, рақамли ахборотлар билан ишлашда қуйидаги муаммолар юзага чиқмоқда:

- ахборот хавфсизлигини таъминлаш;
- киберхавфсизликка риоя қилиш;
- юридик жавобгарликнинг юзага келиши.

Шу нуқтаи назардан, рақамлаштириш шароитида ижтимоий муносабатлар динамикасига мос равишда ахборот олиш ҳуқуқининг мазмунини амалий жиҳатдан татбиқ этиш ва очиб бериш алоҳида эътиборни талаб қилмоқда.

Рақамлаштириш шароитида рақамли шаклдаги ахборотнинг аҳамияти ортиб бормоқда. Рақамли ахборот ҳажми кескин ўсмоқда ва у бошқарув қарорларини қабул қилиш, тижорат фаолияти, бошқа турдаги операцияларни

амалга ошириш учун қимматли манбага айланмоқда. Ахборот олиш ҳуқуқи ҳуқуқий ҳодисалар ва ҳуқуқий муносабатларнинг бутун тизимига асос бўлиб хизмат қилади, давлат, жамият ва шахс манфаатларини таъминлаш ҳамда ҳимоя қилишда хусусий-оммавий мазмунга эга.

Рақамлаштириш шароитида ахборот макони билан боғлиқ жамоатчилик билан алоқаларни тартибга солиш давлат ва хусусий тамойиллар ўртасидаги мувозанатни таъминлашни талаб қилади. Ахборотнинг ўзи эса кўплаб янги ижтимоий-ҳуқуқий ҳодисалар шаклланишининг асоси бўлиб хизмат қилмоқда ҳамда унда жамият, давлат ва шахс манфаатлари мужассам.

Ахборот олиш ҳуқуқининг амалга оширилиши эса мавжуд тартибга солиш нормалари томонидан назарда тутилган мақсадлар, шарт-шароитлар ва механизмларга боғлиқ.

BOLA HUQUQLARINI TA'MINLASHDA KONSTITUTSIYA VA XALQARO STANDARTLARNING O'ZARO UYG'UNLIGI

Sultonov Nodirbek,
Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi
Milliy markaz mustaqil izlanuvchisi

Inson huquqlari, xususan, bola huquqlari himoyasi huquqiy, demokratik davlatchilikning eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi mamlakatning xalqaro huquqiy majburiyatlariga sodiqligini yana bir bor tasdiqladi.

1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi barcha insonlar uchun universal hujjat hisoblanib, inson huquqlari bo'yicha qolgan xalqaro hujjatlar uchun poydevor vazifasini bajarmoqda. Deklaratsiyaning 25-moddasida "onalik va bolalik alohida g'amxo'rlik va yordam huquqiga ega" ekanligi qat'iy belgilangan[1]. Agar ushbu global normani O'zbekiston Konstitutsiyasining XIV bobi bilan qiyoslasak, milliy qonunchilik xalqaro talabni yanada aniqlashtirganiga guvoh bo'lamiz. Konstitutsiyaning 78-moddasida[2] onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi, degan norma mavjud bo'lib, ushbu norma inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartning milliy qonunchilikka implementatsiyasi bo'lib qolmasdan, milliy mentalitet va qadriyatlar bilan boyitilgan, to'g'ridan-to'g'ri amal qilinuvchi qoidaga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Deklaratsiyadagi umumiy "g'amxo'rlik" tushunchasi Konstitutsiyaning 77-moddasida ota-onalar zimmasiga aniq majburiyat (farzandlarni voyaga yetguniga qadar boqish va tarbiyalash) sifatida yuklatilgan bo'lsa, 78-modda orqali davlat bu jarayonning kafolatchisi sifatida maydonga chiqadi. Bu o'rinda Deklaratsiya normalari

[1] Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – T.: Adolat, 2023. – B. 24.

[2] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

milliy mentalitet, ya’ni sharqona oilaparvarlik qadriyatlari bilan boyitilgan holda transformatsiya qilinganligini koʻrishimiz mumkin.

BMTning Bola huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiyasi olimlar, huquqshunoslar tomonidan “Bolalar Konstitutsiyasi” deb nomlanadi. Uning oʻzagi hisoblangan 3-moddada davlat organlari har qanday qaror qabul qilishda “bolaning eng ustun manfaatlari”ni birinchi oʻringa qoʻyishi shartligi aytiladi.

Ushbu xalqaro imperativ norma bilan Oʻzbekiston Konstitutsiyasining 78-moddasini solishtirsak, deyarli soʻzma-soʻz uygʻunlikni koʻramiz: “Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan toʻlaqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir”. E’tiborlisi shundaki, xalqaro Konvensiya buni majburiyat sifatida yuklasa, Oʻzbekiston Konstitutsiyasi buni davlat siyosatining “ustuvor yoʻnalishi” darajasiga koʻtardi. Bunga biz oila qonunchiligi, sud jarayonlari, ajrim holatlari yoki vasiylikni belgilashda guvohi boʻlishimiz mumkin. Ya’ni sudyalar, birinchi navbatda, bolaning manfaatidan kelib chiqib qaror chiqarishi qat’iy belgilangan.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro paktning 13-moddasi[1] va Bola huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiyaning 28-moddasi davlatlarga boshlangʻich ta’limni majburiy va bepul qilish majburiyatini yuklaydi. Oʻzbekiston Konstitutsiyasining 50-moddasini tahlil qilsak, u xalqaro minimal standartdan ham yuqoriroq marrani egallaganini koʻramiz. Konstitutsiya nafaqat “boshlangʻich”, balki “umumiy oʻrta ta’lim”ning bepulligini kafolatlaydi.

Shuningdek, Konstitutsiyaga umumxalq referendumi natijasida kiritilgan yangilik – inklyuziv ta’lim tushunchasi Nogironlar huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiyaning 24-moddasi bilan toʻliq uygʻunlashadi. Ilgari bu norma qonunosti hujjatlarda aks etgan boʻlsa, endilikda Konstitutsiya darajasida mustahkamlanib, nogironligi boʻlgan bolalarning oddiy maktablarda teng huquqli ta’lim olishini xalqaro standartlar asosida ta’minlaydi.

Bolalar mehnati va ekspluatatsiya Xalqaro mehnat tashkilotining 138-sonli[2] va 182-sonli konvensiyalari[3] hamda Bola huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiyaning 32-moddasi bolalarni iqtisodiy ekspluatatsiyadan va xavfli mehnatdan himoya qilishni talab etadi. Ushbu xalqaro taqiq Oʻzbekiston Konstitutsiyasining 44-moddasida oʻz aksini topgan. Qiyoslaydigan boʻlsak, xalqaro hujjatlar “himoya qilish” choralarini koʻrishni soʻrasa, Konstitutsiya qat’iyroq ohangda sud qarorisiz majburiy mehnatni va bolaning sogʻligʻiga ziyon yetkazuvchi har qanday ishni toʻgʻridan-toʻgʻri taqiqlaydi. Mazkur norma oldinlari mamlakatimiz eng koʻp tanqid qilingan majburiy mehnatga, paxta yigʻim-terimi yoki boshqa ogʻir sohalarda bolalar mehnatiga butunlay barham berishning xalqaro talablariga mos konstitutsiyaviy kafolatidir.

[1] Iqtisodiy, itimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt // Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalari to‘plami. – T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2023. – B. 36–37.

[2] Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy shartnomalari to‘plami. – T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2024. – B. 46–53.

[3] Ўша жойда. – B. 62–66.

Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning 20-moddasi oilaviy muhitdan mahrum bo‘lgan bolalar davlat tomonidan alohida himoya qilinishi kerakligini belgilaydi. O‘zbekiston Konstitutsiyasidagi “O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” tamoyili aynan shu xalqaro normani amalga oshirish mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Konstitutsiyaning 77-moddasidagi “Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta’lim olishini, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta’minlaydi”, degan qoida Konvensiya talablarining to‘laqonli implementatsiyasidir. Bizning fikrimizcha, bu norma davlatning paternalistik (otalarcha g‘amxo‘rlik) funksiyasini kuchaytirib, yetim bolalarni “davlat farzandlari” maqomida xalqaro andozalarga mos himoya qilishga xizmat qiladi.

Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 14-moddasi[1] va BMTning “Pekin qoidalari[2]” voyaga yetmaganlar uchun odil sudlovning alohida tartibini talab qiladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada aks etgan “Miranda qoidalari” (shaxsni ushlash chog‘ida uni huquqlari to‘g‘risida tushunarli tilda xabardor qilish) va advokatlik institutining kuchaytirilishi ushbu xalqaro talablar bilan bevosita bog‘liq. Xalqaro huquq bolaning o‘ziga qarshi ko‘rsatma bermaslik huquqini (Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 14-moddasi, 3-band) kafolatlaydi, O‘zbekiston Konstitutsiyasi esa buni 28-modda orqali mustahkamlab, bolaning tergov va sud jarayonidagi himoyasini xalqaro standartlarga tenglashtirdi.

Yuqorida bola huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarning Konstitutsiyamiz va milliy qonunchiligimizga nechog‘lik implementatsiya qilinganligini ayrim misollar orqali ko‘rib chiqdik. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston qonunchiligi bola huquqlarini ta’minlashda deklarativ bosqichdan o‘tib, aniq majburiyatlar va kafolatlar belgilangan, xalqaro huquq bilan hamnafas ishlaydigan tizimga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchiligini xalqaro standartlar bilan yanada uyg‘unlashtirish hamda amaliyotdagi samaradorlikni oshirish maqsadida quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

1. O‘zbekiston BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasining murojaat qilish jarayonlariga taalluqli 3-Fakultativ protokolini ratifikatsiya qilishi lozim.

Hozirda O‘zbekiston Konvensiyaning dastlabki ikkita Protokoliga (Bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasi va Bolalarning qurolli mojarolarda ishtirokiga taalluqli) qo‘shilgan. Biroq, uchinchi Protokolning qabul qilinishi bolalarga yoki ularning vakillariga milliy darajada himoya choralari tugagan taqdirda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri BMTning Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasiga shikoyat qilish imkonini beradi. Bu qadam O‘zbekistonning xalqaro majburiyatlarga to‘liq sodiqligini namoyish etadi, shuningdek yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyaning 55-moddasida belgilangan xalqaro organlarga murojaat qilish huquqining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

---

[1] Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt // Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalari to‘plami. – T: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2023. – B. 17–18.

[2] Минимальные стандартные правила Организации Объединенных Наций, касающиеся отправления правосудия в отношении несовершеннолетних (Пекинские правила) // https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/beijing_rules.shtml

2. Jinoyat protsessual kodeksi va sud tizimini isloh qilish orqali voyaga yetmaganlar uchun nafaqat alohida sudyalar, balki to‘laqonli alohida sudlar va protsessual tizimni yaratish.

BMTning “Pekin qoidalari” bolani jazolashdan ko‘ra, uni qayta tarbiyalash va jamiyatga reintegratsiya qilish ustuvor bo‘lishi kerakligini talab qiladi. Hozirgi umumiy sudlar tizimida bolalar ko‘pincha kattalar bilan bir xil muhitda sudlanadi, bu esa ularning ruhiyatiga salbiy ta’sir qiladi. Bu o‘zgarish orqali Bolalarga xos sud muhiti yaratiladi, jinoyat sodir etgan bolalar orasida retsidiv (takroriy jinoyat) holatlari kamayadi.

3. “Raqamli muhitda bola huquqlari” bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish maqsadida “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunni BMT Qo‘mitasining 25-sonli Umumiy sharhi (Raqamli muhitda bola huquqlari) asosida yangilash.

Ushbu masala bugungi kunda juda dolzarb hisoblanib, bola huquqlari buzilishining katta qismi (kiberbulling, gruming, shaxsiy ma’lumotlarning o‘g‘irlanishi, onlayn qimor o‘yinlari) virtual olamda sodir bo‘lmoqda. Amaldagi qonunchilik ko‘proq “taqiqlash”ga qaratilgan. Xalqaro standartlar esa bolani raqamli olamdan xavfsiz foydalanishga o‘rgatish va internet-provayderlar mas’uliyatini oshirishni talab qiladi.

4. Bola huquqlariga qonun hujjatlarini (Oila kodeksi va Fuqarolik kodeksi normalari, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun, “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi qonun va b.) yagona “Bolalar kodeksi”ga birlashtirish.

Ayni paytda bola huquqlari bo‘yicha normalar turli qonunlarda tarqoq holda bo‘lib, bu ularni qo‘llashda ziddiyatlar yoki tushunmovchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, “bola” tushunchasi, vasiylik va homiylik masalalari, ijtimoiy himoya turlari tizimlashtirilmagan. Xalqaro amaliyotda kodifikatsiya huquqni qo‘llash samaradorligini oshirishi ko‘p bora isbotlangan.

5. Bolalar ombudsmani vakolatlarini kengaytirish va mustaqil monitoring mexanizmlarini kuchaytirish.

Inson huquqlarini to‘la-to‘kis ta’minlash samarali monitoring va hisobdorlik mexanizmlarini talab etadi. Mustaqil Inson huquqlari institutlari esa bu yo‘nalishda eng muhim vosita hisoblanadi. Shuning uchun xorijiy tajribani o‘rganib chiqib, “Bola” tushunchasiga konkret ta’rifni va tibbiyotning oxirgi xulosalarini inobatga olgan holda, yashab ketish bosqichiga yetgan ona vujududagi homilaning sog‘lom tug‘ilish huquqini milliy qonunchilikda mustahkamlash hamda Bolalar ombudsmani vakolat doirasiga kiritish masalalarini o‘rganish maqsadga muvofiq. Eng yorqin misol sifatida Polsha davlatini ko‘rsatishimiz mumkin. Ushbu davlat o‘zining “Bola huquqlari bo‘yicha vakil to‘g‘risida”gi qonuni 2-moddasida (Ustawa o Rzeczniku Praw Dziecka) Bola – homila (urug‘langan) paytidan boshlab to voyaga yetguniga qadar bo‘lgan har bir inson zotidir deb belgilangan[1]. Shu orqali, Polsha Bolalar ombudsmani (Rzecznik Praw Dziecka) nafaqat tug‘ilgan bolalar, balki ona

[1] USTAWA z dnia 6 stycznia 2000 r. o Rzeczniku Praw Dziecka // https://isap.sejm.gov.pl/isap.nsf/download.xsp/WDU20000060069/U/D20000069Lj.pdf

qornidagi homilaning yashash va sog‘liqni saqlash huquqlarini himoya qiluvchi vakolatli organ sifatida belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risidagi qonunning 22-moddasiga[1] o‘zgartirish kiritish orqali Bolalar ombudsmanining mintaqaviy vakilini jamoatchilik asosida ishlashdan doimiy asosda ishlashga o‘zgartirish. Bu o‘zgarish institut samaradorligini oshiribgina qolmasdan, maqomi jihatdan teng bo‘lgan boshqa bir institut, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili to‘g‘risidagi qonunda[2] mavjud 2 xil yondashuv (qonunning 43-moddasiga ko‘ra, Ombudsmanning mintaqaviy vakili doimiy asosda faoliyat yuritadi) bartaraf etilgan bo‘lar edi.

АЁЛЛАР ҲУҚУҚЛАРИ – ИЖТИМОИЙ БАРҚАРОРЛИК ОМИЛЛАРИ

Осмонова Нафисахон,
Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси
Миллий маркази таянч докторанти

Аёллар ҳуқуқларини таъминлаш масаласи ҳар қандай демократик жамиятнинг асосий мезони ҳисобланади. Ўзбекистонда бу йўналишда амалга оширилаётган ислоҳотлар нафақат миллий қонунчиликда, балки халқаро майдонда ҳам ўз ифодасини топмоқда. Президент Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 80-сессиясидаги нутқида гендер сиёсати алоҳида устувор йўналиш сифатида қайд этилди. Давлат раҳбари мамлакатнинг ижтимоий-сиёсий ҳаёти ва тадбиркорлик соҳасида хотин-қизларнинг ролини мустаҳкамлаш, минтақавий миқёсда эса Осиё хотин-қизлар форумини доимий платформага айлантириш ташаббуси билан чиқди[3]. Бу ташаббуслар Ўзбекистоннинг гендер тенглиги соҳасидаги сиёсатини нафақат миллий, балки халқаро даражада ҳам мустаҳкамлашга қаратилганини кўрсатади.

Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Конституцияси аёллар ҳуқуқларини таъминлашнинг мустаҳкам ҳуқуқий асосини яратди. Конституциянинг 19-моддаси ҳар бир фуқаронинг ҳуқуқ ва эркинликларининг тенглигини белгилаб, жинсга асосланган ҳар қандай камситишни қатъий ман этади. 42-модда меҳнат муносабатларида аёлларнинг тенг иштирокини кафолатлаб, иш жойида камситишдан ҳимоя қилади. 58-модда эса, хотин-қизлар ва эрка-

[1] O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 29-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risida”gi O‘RQ-917-son qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 02.03.2024-y., 03/24/917/0170-son

[2] O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 15-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili to‘g‘risida”gi O‘RQ-1002-son qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.11.2024-y., 03/24/1002/0936-son

[3] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 80-сессиясидаги нутқи (2025 йил 23 сентябрь) // https://president.uz/uz/lists/view/8525

клар учун барча соҳаларда тенг ҳуқуқ ва имкониятларни таъминлашни давлатнинг бевосита бурчи сифатида белгилайди[1]. Бу меъёрлар аёллар ҳуқуқларининг конституциявий кафолати сифатида миллий сиёсатнинг устувор йўналишини акс эттиради.

2019 йилда қабул қилинган "Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида"ги[2] ҳамда "Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида"ги[3] қонунлар гендер тенглигини амалий жиҳатдан таъминлашнинг энг муҳим ҳуқуқий асосларидан бўлди. Ушбу Қонунлар орқали жамиятда аёлларга нисбатан зўравонликка муросасиз муносабат шакллантириш, гендер стереотипларни бартараф этиш ва хотин-қизларнинг турли соҳаларда тенг иштирокини таъминлашга қаратилган тизимли чора-тадбирлар амалиётга жорий этилмоқда.

Ўзбекистоннинг гендер сиёсатини шакллантиришда халқаро мажбуриятлар, хусусан, Хотин-қизларни камситишнинг барча шаклларига барҳам бериш тўғрисидаги конвенция (CEDAW) талаблари муҳим ўрин тутади. Мамлакат 1995 йилда Конвенцияни ратификация қилган бўлиб, унда белгиланган стандартлар миллий қонунчилик ва давлат дастурларини модернизация қилишда асосий мезон бўлиб хизмат қилмоқда[4]. CEDAW қўмитаси ўзининг якуний тавсияларида Ўзбекистоннинг маиший зўравонликка қарши жиноий жавобгарлик белгилагани, хотин-қизларнинг сиёсий иштирокини кенгайтириш бўйича қабул қилинган чора-тадбирларни қўллаб-қувватлаган ҳолда, иқтисодий имкониятларни янада кенгайтириш ва гендер стереотипларини бартараф этиш йўналишларида ислоҳотларни давом эттириш зарурлигини қайд этган[5]. Бугунги кунда ушбу тавсиялар миллий ислоҳотлар тизимига босқичма-босқич интеграция қилинмоқда.

Гендер сиёсатининг халқаро мезонлари БМТнинг Барқарор ривожланиш мақсадлари, жумладан БРМ 5да ҳам ўз аксини топган. Ўзбекистоннинг 2030 йилгача мўлжалланган гендер стратегиясида белгиланган 25 мақсад айнан аёллар ҳуқуқларини таъминлаш, уларнинг иқтисодий ва сиёсий имкониятларини кенгайтириш, зўравонликнинг олдини олиш ҳамда гендер тенглиги маданиятини шакллантиришга қаратилган бўлиб, БРМ 5 талаблари билан тўлиқ уйғунликда ишлаб чиқилган[6].

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Адолат, 2023. – 68 б.

[2] Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 сентябрдаги "Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида"ги ЎРҚ-562-сон қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон; 16.12.2022 й., 03/22/809/1091-сон; 12.04.2023 й., 03/23/829/0208-сон; 09.04.2025 й., 03/25/1053/0317-сон

[3] Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 сентябрдаги "Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида"ги ЎРҚ–561-сон қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 10.12.2021 й., 03/21/736/1144-сон; 12.04.2023 й., 03/23/829/0208-сон; 19.10.2024 й., 03/24/977/0831-сон; 30.12.2025 й., 03/25/1109/1241-сон

[4] Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination Against Women (CEDAW) // https://www.un.org/womenwatch/daw/cedaw/cedaw.htm

[5] Concluding observations on the fifth periodic report of Uzbekistan // https://www.refworld.org/policy/polrec/cedaw/2015/108026; https://www.policinglaw.info/assets/downloads/Human_Rights_Committee_Concluding_Observations_on_Uzbekistan_(2020)%C2%A0.pdf

[6] Ўзбекистон Республикаси Гендер стратегияси – 2030. – Т.: Адлия вазирлиги, 2021. – 112 б.

Гендер сиёсати соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотлар аниқ натижалар билан намоён бўлмоқда. Иқтисодий соҳада хотин-қизларнинг фаоллиги сезиларли даражада ошди: ишбилармон аёллар сони икки баробарга кўпайди, 205 мингдан зиёд аёллар ўз бизнесини йўлга қўйди, юз минглаб хотин-қизлар касб-ҳунарга ўқитилди ва ярим миллиондан ортиқ аёл иш билан таъминланди. Шу билан бирга, олий таълим муассасаларида таҳсил олаётган талабаларнинг камида ярмини қизлар ташкил этмоқда[1]. Буларнинг барчаси мамлакатда аёлларнинг иқтисодий мустақиллиги ва иқтисодий фаоллиги ўсиб бораётганидан далолат беради.

Сиёсий соҳада ҳам ижобий динамика кузатилмоқда. Қонунчилик палатаси ва Сенатда аёллар улуши йил сайин ошиб бормоқда: сўнгги ўттиз йил давомида бу кўрсаткич 11,3 фоиздан 27,2 фоизгача ошди. 2024 йилги сайловларда Қонунчилик палатасида аёллар улуши 38 фоизга етди, депутатларнинг 32 фоизи ва сенаторларнинг 25 фоизи аёллардан иборат[2]. Бу кўрсаткичлар сиёсий қарорлар қабул қилиш жараёнида хотин-қизларнинг ўрни тобора мустаҳкамланаётганидан далолат беради.

Гендер сиёсатининг ижтимоий йўналишларида эса зўравонликка қарши ҳуқуқий механизмлар мустаҳкамланди. Ҳимоя ордерлари амалиёти йўлга қўйилиши, маиший зўравонликнинг ҳуқуқий таърифлар билан аниқланиши, жабрланувчилар учун комплекс ҳимоя чораларининг жорий этилиши оилаларда хавфсизлик ва барқарорликни таъминлашга хизмат қилмоқда. Жаҳон банкининг “Women, Business and the Law” индексда Ўзбекистоннинг гендер тенглиги бўйича дунёда энг тез ривожланаётган беш давлат қаторига киритилгани[3] ислоҳотлар самарадорлигининг халқаро эътирофи ҳисобланади.

Ўзбекистоннинг гендер сиёсатини минтақавий даражада мустаҳкамлашда Осиё хотин-қизлар форуми муҳим аҳамият касб этмоқда. Илк бор 2018 йилда ва сўнгги марта 2024 йил 13–14 май кунлари Самарқандда ўтказилган мазкур Форум минтақада гендер сиёсатини мувофиқлаштириш, тажриба алмашиш ва БРМнинг 5 мақсадига эришишда муҳим платформа сифатида хизмат қилмоқда. Президент Шавкат Мирзиёевнинг ташаббуси билан Форумни доимий асосда ўтказиш, унинг котибиятини Тошкентда жойлаштириш, шунингдек, минтақавий гендер индекси ва унинг йиллик баҳолаш тизимини жорий этиш таклифлари Осиё минтақасида гендер тенглиги бўйича ҳамкорликни янада кучайтиришга хизмат қилади.

Хулоса ўрнида таъкидлаш жоизки, аёллар ҳуқуқларини таъминлаш ва гендер сиёсатини кучайтириш фақат ҳуқуқий ёки ижтимоий йўналиш эмас, балки миллий барқарорлик ва тараққиётнинг стратегик асоси ҳисобланади. Конституциявий кафолатларнинг амалиётда тўлиқ ишлаши, халқаро тавсияларнинг миллий сиёсатга интеграция қилиниши ва ижро тизимида самарали татбиқ этилиши гендер тенглигига эришишда ҳал қилувчи омиллардан биридир.

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги. Хотин-қизларнинг бандлигига оид расмий маълумотлар. – Т., 2024.

[2] Марказий сайлов комиссияси. 2024 йилги парламент сайловлари бўйича маълумотнома. – Т., 2024.

[3] World Bank. Women, Business and the Law, 2024 // https://wbl.worldbank.org

FUQAROLIGI BOʻLMAGAN SHAXSLAR HUQUQLARINING XALQARO VA KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI

Abdurashidova Zarina,
Inson huquqlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi
Milliy markazi tayanch doktoranti

Fuqarolik bilan bogʻliq munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yigʻindisi demokratik qadriyatlar va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga sodiqligini namoyon etib, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi gʻoyalari asnosida har bir insonning fuqarolikka boʻlgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi[1].

Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 15-moddasiga muvofiq "har bir inson fuqarolik huquqiga ega ekanligi, hech kim oʻzboshimchalik bilan fuqaroligidan yoki fuqaroligini oʻzgartirish huquqidan mahrum etilishi mumkin emas"ligi belgilangan boʻlib, keyinchalik ushbu prinsip Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish toʻgʻrisidagi konvensiya, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt, Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish toʻgʻrisidagi konvensiya, Bola huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiya, Barcha mehnat-migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisidagi konvensiya, Nogironlar huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiya normalarida oʻz aksini topdi.

Bundan tashqari, BMTning 1954-yilgi Apatrid maqomi toʻgʻrisidagi va 1961-yilgi Fuqarosizlikni qisqartirish toʻgʻrisidagi konvensiyalari ham qabul qilingan. Apatrid maqomi toʻgʻrisidagi konvensiya "fuqaroligi boʻlmagan shaxs" ta'rifini hamda ushbu shaxslar bilan muomala qilishning minimal standartlarini belgilab bergan boʻlsa, Fuqarosizlikni qisqartirish toʻgʻrisidagi konvensiya esa fuqarosizlikning tugʻilish va keyinchalik sodir boʻlishining oldini olishni nazarda tutadi. Ma'lumki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochoqlar ishlari boʻyicha Oliy komissari boshqarmasi davlatlarning Universal davriy hisoboti jarayonida oʻz mutaxassislari bilan ishtirok etadi hamda tegishli tavsiyalar taqdim etadi. Olib borilgan tahlillar natijasida birinchi sikl (2008–2011-yillar) davomida asosan tugʻilganlikni roʻyxatga olish va fuqarosizlik boʻyicha ikkita konvensiyaga a'zo boʻlish masalalari yuzasidan tavsiyalar berilganligini, bugungi kun bilan solishtirganda mazkur soha hali shakllanish bosqichida ekanligini koʻrishimiz mumkin. Ikkinchi siklda tavsiyalar soni uch barobar oshgan boʻlsa, uchinchi siklga kelib esa davlatlarning taxminan 80%dan ortigʻi fuqaro va fuqaroligi boʻlmagan shaxslarning huquqlari boʻyicha kamida bitta tavsiyani qabul qilgan. Mazkur siklda milliy hisobotlarda fuqarosizlik masalasi alohida sarlavha ostida kiritila boshlanib, davlatlarning deyarli yarmi tomonidan yoritilganligi bu sohadagi muhim yutuqlardan ekanligini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Oʻzbekiston ham 2018-yilda BMTning Inson huquqlari boʻyicha kengashi

[1] Xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. – T.: Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023. – B. 100.

universal davriy hisoboti Ishchi guruhining 3-sikl, 30-sessiyasida Apatrid maqomi to‘g‘risidagi konvensiya va Fuqarosizlikni qisqartirish to‘g‘risidagi konvensiyalarni ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi tavsiyalarini olgan. Biroq, bugungi kunda hozirchalik O‘zbekiston mazkur ikkita Konvensiya ishtirokchisi emas.

Shaxs huquqiy holatining belgilanishida Konstitutsiya asos hisoblanadi. Chunki, Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni, oliy yuridik kuchga ega siyosiy-huquqiy hujjati bo‘lib, shaxsning fundamental huquq va erkinliklarini, majburiyatlarini belgilab beradi. Davlatlar konstitutsiyasining o‘ziga xos jihatlarga egaligini hisobga olsak, ularning ayrimlarida fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari nazarda tutilmaganligi holatlarini kuzatish mumkin.

Professor M.B.Usmanovning qayd etishicha, ma’lum bir shaxsga shu davlat fuqarosi yoki shu yerda turgan chet ellik yoxud fuqaroligi bo‘lmagan shaxs (apatrid) ekanligi bilan bog‘liq ravishda milliy konstitutsiyaviy huquq normalari tomonidan beriladigan huquqlar hajmi ham turlicha bo‘ladi. Har bir davlatning konstitutsiyaviy huquqida fuqarolikni olish va yo‘qotish, fuqarolarning maqomi, chet elliklar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy rejimini tartibga soladigan huquqiy normalar mavjud bo‘ladi[1].

Biroq, professor Jo Shaw esa fuqarolikni batafsil konstitutsiyaviy tartibga solish konstitutsiyaviy asosning muhim elementi bo‘lishiga qaramay, kamdan-kam uchrashini[2] ta’kidlagan. Mazkur fikrga qo‘shilgan holda N. Baird konstitutsiyaviy tartibga solishning yetishmasligi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga ham xos bo‘lib, hatto bu holat ularga nisbatan yanada yaqqolroq namoyon bo‘lishini, taxminan 30 ga yaqin konstitutsiya fuqarosizlik yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni u yoki bu tarzda qayd etishini[3] ilgari surgan.

Olim N. Baird Konstitutsiyadagi fuqarosizlikni tartibga solish bo‘yicha normalarni 4 kategoriyaga bo‘lgan[4].

1. Fuqarosizlikning oldini olishga qaratilgan normalar. Bunda agar shaxsning fuqaroliksiz qolish xavfi mavjud bo‘lsa, unga fuqarolik berilishi, yoki agar shaxsni fuqarolikdan mahrum etish uning fuqaroliksiz qolishiga olib kelsa, uning qo‘llanilmasligi nazarda tutiladi. Xususan, Germaniya Federativ Respublikasining 1949-yil 23-maydagi (2025-yil 22-martda o‘zgartirish kiritilgan tahrir) Asosiy Qonunining 16-moddasi 1-qismi ushbu kategoriyadagi normaga misol bo‘la oladi: “Hech kim Germaniya fuqaroligidan mahrum etilishi mumkin emas. Fuqarolikdan mahrum etishga faqat qonun asosida, muayyan shaxsning xohish-irodasiga qarshi esa faqat agar u buning natijasida fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga aylanib qolmasagina yo‘l qo‘yilishi mumkin”[5].

---

[1] Xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023. – B. 20.

[2] Shaw J. The People in Question: Citizens and Constitutions in Uncertain Times. – Bristol University Press, 2020. – P. 35.

[3] Baird N. Stateless Person // Encyclopedia of Comparative Constitutional Law. – Oxford University Press, 2019 // https://ir.canterbury.ac.nz/server/api/core/bitstreams/19b291bb-408e-45c3-8282-eb012bbf43b7/content

[4] Ўша жойда.

[5] Basic Law for the Federal Republic of Germany, adopted on 8 May 1949 // https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_gg/englisch_gg.html

2. Konstitutsiyada fuqarolar uchun koʻzda tutilgan huquq va erkinliklarning fuqaroligi boʻlmagan shaxslarga ham tatbiq etilishi. Xususan, Turkmanistonning 2008-yil 26-sentabrdagi Konstitutsiyasining 11-moddasi 1-qismi ushbu kategoriyadagi normaga misol boʻla oladi: "Chet el fuqarolari va fuqaroligi boʻlmagan shaxslar Turkmaniston qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga muvofiq Turkmaniston fuqarolari sifatida huquq va erkinliklardan foydalanadilar hamda majburiyatlarni oʻz zimmalariga oladilar"[1].

3. Konstitutsiyada fuqaroligi boʻlmagan shaxslarga nisbatan huquqlarni himoya qilishdan istisnolar mavjudligi. Xususan, Gruziyaning 1995-yil 24-avgustdagi (2020-yil 29-iyunda oʻzgartirish kiritilgan tahrir) Konstitutsiyasining 33-moddasi 2-qismi ushbu kategoriyadagi normaga misol boʻla oladi: "Davlat boshqa davlatlar fuqarolari va fuqaroligi boʻlmagan shaxslarning siyosiy faoliyatini cheklashga haqlidir"[2].

4. Ayrim konstitutsiyalarda qochoqlar va boshpana izlovchilar (boshpana, diplomatik) bilan bir qatorda fuqaroligi boʻlmagan shaxslarning boshpana soʻrash yoki chiqarib yuborish yoki deportatsiya qilishdan himoyalanish imkoniyatiga egaligini belgilovchi norma.

Фармацевтический рынок является важным элементом системы государственного регулирования, обеспечивающим реализацию конституционных обязательств государства в сфере охраны здоровья и социальной защиты населения. От того, насколько доступны, качественны и безопасны лекарственные средства, зависит возможность населения получать медицинскую помощь, предотвращать и лечить заболевания, поддерживать здоровье. В этом смысле фармацевтическая сфера становится не просто экономической отраслью, но важнейшим элементом социального обеспечения.

В **Конституции Республики Узбекистан** закреплено, что «каждый имеет право на охрану здоровья и квалифицированное медицинское обслуживание»[1]. Государство, в свою очередь, обязано предпринимать меры для развития системы здравоохранения, обеспечивать санитарно-эпидемиологическое благополучие, гарантировать предоставление медицинской помощи.

Данный конституционный принцип формирует юридическую основу для законодательного и институционального регулирования всех аспектов фар-

[1] Конституция Республики Узбекистан // Национальная база данных законодательства, 01.05.2023 г., № 03/23/837/0241

мацевтической деятельности – от регистрации препаратов до их производства, распределения, хранения и реализации.

Кроме того, Конституция предусматривает специальные гарантии социальной защиты для лиц, находящихся в уязвимом положении: нетрудоспособных, лиц с инвалидностью, одиноких пожилых, других социально уязвимых категорий населения. Государственные обязательства в отношении этих групп предполагают, что в системе лекарственного обеспечения должна быть предусмотрена доступность льготных или субсидированных медикаментов, адекватная государственная поддержка и меры, направленные на социальную справедливость.

Учитывая изложенное, фармацевтический рынок следует рассматривать как часть конституционной системы защиты прав граждан. Государственное регулирование фармацевтической сферы становится юридическим инструментом реализации этих прав через формирование нормативно-правовой базы, лицензирование, стандартизацию, контроль качества, ценообразование, организацию льготного обеспечения и осуществление социальной политики. Таким образом, законодательно обеспечивается не только экономическая деятельность, но и гарантии закона о социальной защите и здоровье населения.

Государственное регулирование фармацевтического рынка в Узбекистане реализуется посредством целого комплекса правовых мер, направленных на обеспечение доступности, безопасности и эффективности лекарственных средств. К ключевым механизмам относятся: государственная регистрация лекарственных средств, лицензирование фармацевтической деятельности, стандартизация и фармакопейное регулирование, регулирование цен и государственные закупки, обеспечение льготных категорий населения, а также контроль за обращением лекарств на рынке.

Для легального оборота на территории республики все лекарственные средства подлежат обязательной государственной регистрации[1]. Новый Указ Президента Республики Узбекистан № УП-137 «О дополнительных мерах по регулированию обращения лекарственных средств и медицинских изделий» дополнительно реформирует процедуру регистрации – вводится механизм признания регистраций лекарств, одобренных надежными зарубежными регуляторами, что призвано ускорить доступ на рынок перспективных медикаментов[2].

Оборот лекарств – не только производство, но и оптовая/розничная продажа – регулируется лицензированием. Для аптек, дистрибьюторов, производителей и складов предусмотрены обязательные лицензии, что обеспечивает контроль над субъектами, допущенными к работе на фармрынке.

---

[1] О внесении изменений и дополнений в Закон Республики Узбекистан «О лекарственных средствах и фармацевтической деятельности» от 04.01.2016 г. № ЗРУ-399 // https://lex.uz/docs/2856466

[2] Указ Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по регулированию обращения лекарственных средств и медицинских изделий» от 19.08.2025 г. № УП-137 // https://lex.uz/uz/docs/7697214

Система стандартизации включает разработку и применение национальной фармакопеи, требований к качеству, методам контроля и тестирования, что обеспечивает единые стандарты безопасности и эффективности медикаментов. Национальные стандарты гармонизуются с международными, что повышает доверие к лекарствам и защищает потребителей. Кроме того, для производителей и импортеров введен обязательный стандарт Good Manufacturing Practice (GMP), который будет применяться с 2026 года для новых регистраций. Это обязательное требование направлено на обеспечение надлежащего качества производства.

Также регламентируется система фармаконадзора и послепродажного мониторинга – для отслеживания безопасности, выявления побочных эффектов и фальсифицированных лекарств.

Для обеспечения доступности лекарств с 2020 года действует система регулирования цен[1], который осуществляется через систему референтного ценообразования для рецептурных препаратов, при которой максимальная цена устанавливается на основе сравнения со стоимостью аналогичных лекарств в ряде референтных стран. В 2025 году правительство провело пересмотр цен, что позволило снизить стоимость ряда жизненно необходимых медикаментов[2]. Для безрецептурных препаратов государственное регулирование наценок было отменено, что подчеркивает приоритет контроля цен именно на рецептурные и социально значимые лекарства.

Государственные закупки лекарственных средств для государственных медицинских учреждений, льготных категорий населения, обеспечение резервов – тоже часть системы: централизованные закупки, регламентированные государством, обеспечивают снабжение бюджетных и социально значимых программ. Правотворчество предусматривает, что уязвимые группы получают льготное или субсидированное лекарственное обеспечение. Система льгот и специальные закупки позволяют реализовать социальную защиту, как часть социальной функции государства. Государственные закупки и льготное распределение медикаментов часто идут через программы гособеспечения, предусмотренные регуляторными актами.

Контроль охватывает весь жизненный цикл лекарств: от производства и импорта до розничной продажи и хранения. Ключевые меры: обязательное лицензирование субъектов, сертификация складов и аптек, требования к хранению и перевозке, обязательная маркировка, а также запрет на продажу незарегистрированных или фальсифицированных медикаментов.

Недавние законодательные поправки усиливают надзор: введен режим усиленной сертификации, контроль за складским хранением, ответственности за нарушение условий оборота, что должно повысить безопасность и прозрачность фармацевтического рынка.

---

[1] В Узбекистане пересмотрят референтные цены на 2600 лекарств // https://www.uzdaily.uz/ru/v-uzbekistane-peresmotriat-referentnye-tseny-na-2600-lekarstv/?utm

[2] С 1 апреля отменяется ценовое регулирование для безрецептурных лекарств // https://kun.uz/ru/news/2025/01/29/s-1-aprelya-otmenyayetsya-tsenovoye-regulirovaniye-dlya-bezretsepturnyx-lekarstv?utm

Право на охрану здоровья, включая доступ к лекарственным средствам и качественной медицинской помощи, признано международным правом. В Международном пакте об экономических, социальных и культурных правах закреплено право каждого человека на достижимый уровень физического и психического здоровья[1]. Государства–участники Пакта обязуются предпринимать необходимые действия, включая законодательные, для обеспечения этого права, которое включает доступ к медицинской помощи, профилактике и лечению заболеваний, а также к обеспечению лекарственными средствами.

Кроме того, международно-правовые стандарты в сфере здравоохранения дополняются нормами, выработанными Всемирной организацией здравоохранеия. ВОЗ подчеркивает необходимость обеспечения государствами универсального, недискриминационного и доступного медицинского обслуживания, включая доступ к лекарствам.

Таким образом, для стран создание национальных систем обеспечения лекарствами, включая регистрацию, стандартизацию, страхование, реимбурсацию и прочие механизмы, является частью выполнения международных обязательств. Следовательно, государственное регулирование фармацевтического рынка – не просто внутреннее административное решение, а элемент реализации международно-правовых обязательств, призванных защищать право на здоровье.

Несмотря на наличие законодательных и институциональных механизмов, на практике существует ряд проблем, препятствующих полноценной реализации права на лекарственное обеспечение:

- высокая зависимость от импорта лекарственных средств, что делает систему уязвимой перед внешними колебаниями. Это снижает устойчивость национального фармацевтического обеспечения;
- высокая стоимость некоторых медикаментов и, соответственно, ограниченная их доступность для слоев населения с невысоким доходом;
- региональные различия в обеспечении – в удаленных или сельских районах лекарства могут быть менее доступны, что подрывает принцип всеобщности здравоохранения;
- ограниченный перечень льготных лекарств, что не покрывает все потребности, особенно для хронических заболеваний и дорогостоящих препаратов.

Для Узбекистана положительным примером является законодательная инициатива по повышению доступности лекарств: введена система реимбурсации затрат на лекарства на первичном уровне медико-санитарной помощи, что снижает финансовую нагрузку на пациентов и облегчает доступ к медикаментам[2].

---

[1] Международный пакт об экономических, социальных и культурных правах // https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/pactecon.shtml

[2] Узбекистан принимает меры для повышения ценовой доступности лекарств на уровне первичной медико-санитарной помощи // https://www.who.int/europe/ru/news-room/feature-stories/item/uzbekistan-moves-to-improve-medicine-affordability-at-primary-health-care-level?utm

Тем не менее, рост фармацевтического рынка, зафиксированный за 2023–2024 годы[1], не всегда отражает реальное улучшение доступности базовых лекарств: продажи растут, но это часто связано с импортом, а не устойчивым внутренним обеспечением.

Эффективное государственное регулирование фармацевтического рынка выступает ключевым инструментом реализации конституционных прав граждан на охрану здоровья и обеспечение достойного уровня жизни. Комплексная система регистрации, лицензирования, стандартизации, ценообразования, государственных закупок и контроля за обращением лекарственных средств обеспечивает доступность, безопасность и равенство в использовании жизненно необходимых медикаментов. Гармонизация национального законодательства с международными стандартами и преодоление существующих проблем усиливают социальную функцию фармацевтического рынка, делая его важнейшим механизмом защиты конституционных социальных прав граждан.

ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИ ВА АДВОКАТУРА ИНСТИТУТЛАРИНИНГ ҚАРАМА-ҚАРШИЛИГИ: МИЛЛИЙ ҚОНУНЧИЛИГИМИЗДАГИ НОРМАЛАР КОЛЛИЗИЯСИНИНГ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ

Калимбетов Несип,
Адлия вазирлиги ҳузуридаги Юридик кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти мустақил изланувчиси

Ҳуқуқий давлатчилик асослари мустаҳкамланаётган ҳозирги шароитда, Ўзбекистон Республикаси қонунчилигидаги ҳар қандай номувофиқлик ёки зиддият (коллизия) ҳуқуқни қўллаш амалиётида жиддий муаммоларни келтириб чиқаради. Давлат хизматининг профессионаллашуви ва адвокатура институтининг ривожланиши давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан ҳисобланади. Бу икки муҳим соҳани тартибга солувчи асосий қонунлардаги айрим нормаларнинг ўзаро номувофиқлиги ҳуқуқий муҳитнинг шаффофлигига салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

Шуни ҳам алоҳида таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикасида амалга оширилаётган ҳуқуқий ислоҳотлар давлат бошқарувининг самарадорлигини ошириш ва коррупцияга қарши курашишга қаратилган. “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги қонуннинг қабул қилиниши давлат хизматчилари фаолиятини тартибга солишда янги, қатъий этик ва ҳуқуқий стандартларни ўрнатди. Жумладан, Қонуннинг 13-моддаси (Давлат фуқаролик хизматчисининг

[1] Развитие фармотрасли Узбекистана: перспективы и вызовы // https://uza.uz/ru/posts/razvitie-farmotrasli-uzbekistana-perspektivy-i-vyzovy_683333?utm

фаолиятига доир чекловлар) хизматчиларнинг хизматдан ташқари ҳақ тўланадиган бошқа ишлар билан шуғулланишини чеклаб, фақат илмий, педагогик ва ижодий фаолиятга истисно беради.

Шу билан бирга, "Адвокатура тўғрисида"ги қонуннинг 3-моддаси адвокатликни профессионал юридик ёрдам кўрсатиш фаолияти сифатида белгилайди. Бу фаолият, ҳақ эвазига бажарилиши ва мустақил касб эканлиги сабабли, "Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида"ги қонуннинг 13-моддасидаги умумий чеклов билан потенциал ҳуқуқий коллизияни келтириб чиқаради. Ушбу мақоланинг мақсади – мазкур коллизияни чуқур ҳуқуқий таҳлил қилиш ҳамда унинг назарий ва амалий оқибатларини ўрганиш ҳамда халқаро юридик амалиёт асосида "Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида"ги қонун тамойилларига мувофиқ ҳал этишдир.

Қонуннинг 13-моддаси давлат фуқаролик хизматчилари учун қўшимча фаолият билан шуғулланишга доир чекловларни белгилайди. Хусусан, 13-моддани биринчи қисмига кўра, давлат фуқаролик хизматчиси: "педагогик, илмий ва ижодий фаолиятдан ташқари ҳақ тўланадиган бошқа фаолият билан шуғулланишга, Ўзбекистон Республикаси қонунларида ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти қарорларида назарда тутилган ҳолатлар бундан мустасно".

Бу норманинг асосий мақсади – давлат хизматчисининг ўз мансаб вазифаларини сидқидилдан бажаришини таъминлаш, давлат хизматчисининг манфаатлар тўқнашуви (Conflict of Interest) юзага келишининг олдини олиш ҳамда унинг хизмат вазифаларини бажаришда холислик ва беғаразликни таъминлашдир. Манфаатлар тўқнашуви – бу хизматчининг шахсий (ёки учинчи шахснинг) манфаати унинг расмий қарорларига нохолис таъсир қилиши мумкин бўлган ҳолатдир.

Қонунчилигимизда яна бир қонун борки, унда белгиланган талабга кўра чекловлар жорий қилинган, яъни ушбу қонун "Адвокатура тўғрисида"ги қонуннинг 3-моддаси адвокатлик фаолияти тушунчасини белгилаб беради. Ушбу моддага кўра, адвокатлик фаолияти – жисмоний ва юридик шахсларга малакали юридик ёрдам кўрсатиш бўйича касбий фаолиятдир. Модданинг учинчи қисмида адвокатлик фаолияти ҳисобланмайдиган фаолият турлари санаб ўтилган, жумладан: "давлат органларининг, хўжалик бошқаруви органларининг, давлат муассасалари ва ташкилотларининг юридик хизмати ходими сифатидаги фаолият (шартномавий-ҳуқуқий асосда амалга ошириладиган фаолият бундан мустасно)".

Ушбу истисно нормаси адвокат мақомига эга бўлган шахсга давлат органида (шу жумладан, хўжалик бошқаруви органлари ва давлат муассасаларида) шартномавий-ҳуқуқий асосда юридик хизмат ходими сифатида ишлаш ҳуқуқини беради ва бу фаолият унинг адвокатлик фаолияти ҳисобланишини англатади. Бу, ўз навбатида, давлат органларида юридик хизматнинг профессионал даражасини оширишга ва тегишли хизматларни шаффофлик асосида жалб қилишга имконият яратади.

Бир сўз билан айтганда, адвокатлик фаолиятининг ҳуқуқий табиати тижорий, профессионал хизмат бўлиб, унинг таркибий қисмлари, яъни ҳақ тўланиши бу "Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида"ги қонуннинг 13-моддасидаги тақиқ объектидир.

Мижозга садоқат (Fiduciary Duty): адвокатнинг касбий этикаси давлат манфаатидан устун қўйилган мижознинг манфаатини қатъий ҳимоя қилишни талаб қилади.

Унинг мустақиллиги: адвокат фаолиятида давлат органларига қарам бўлмаслиги шарт.

Адвокатлик фаолиятини "Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида"ги қонуннинг 13-моддасидаги "илмий, педагогик ва ижодий фаолият» истисносига киритиш ҳуқуқий жиҳатдан нотўғридир. Илмий-педагогик фаолият умумий билимни оширишга қаратилган бўлса, адвокатлик фаолияти аниқ, хусусий ҳуқуқий натижага эришишга қаратилган.

Юқоридаги қонун талабларидан келиб чиққан ҳолда ҳуқуқий нормалар коллизиясининг моҳияти ва оқибатларига тўхталадиган бўлсак, ҳар икки қонун нормасининг бир-бирига нисбатан зид келадиган нуқтаси қуйидагича:

1. Давлат хизмати қонуни: Давлат фуқаролик хизматчиси ҳақ тўланадиган бошқа фаолият билан шуғулланиши мумкин эмас (илмий, педагогик, ижодий фаолиятдан ташқари).
2. Адвокатура қонуни: Адвокат мақомига эга шахс давлат органида шартнома асосида юридик хизмат кўрсатиши мумкин.

Ушбу икки норма асосида коллизия нуқтасига тўхтаслак бунда, "Адвокатура тўғрисида"ги қонуннинг 3-моддаси асосида шартнома тузган адвокат, аслида, ўз асосий ишидан ташқари ҳақ тўланадиган бошқа фаолият билан шуғулланаётган ҳисобланади. Агар бу адвокат айни пайтда давлат органида давлат фуқаролик хизматчиси сифатида (меҳнат шартномаси асосида) ишлаётган бўлса, у автоматик равишда "Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида"ги қонуннинг 13-моддасида белгиланган тақиқни бузган бўлиб чиқади.

Амалиётда бундай шартномавий юристларнинг мақоми аниқ эмас ва бу, ўз навбатида, қонунчилик нормаларини қўллашда қатор қарама-қаршиликларни келтириб чиқаради.

Биринчидан, агар улар давлат фуқаролик хизматчиси сифатида эътироф этилса, у ҳолда 13-моддадаги тақиқни қўллаш зарур. Бу "Адвокатура тўғрисида"ги қонуннинг 3-моддасидаги истиснонинг аҳамиятини йўққа чиқаради.

Иккинчидан, агар улар контракт асосида хизмат кўрсатувчи мутахассис сифатида давлат хизматчиси мақомисиз иш олиб борса, унда уларга 13-модда чекловлари татбиқ этилмайди. Аммо бу ҳолатда улар давлат хизматчилари учун белгиланган интизомий ва бошқа талаблардан озод бўлиб қолади.

Бундай коллизия ҳуқуқни қўллаш амалиётида ноаниқликларни, юридик хизматлар жалб қилинишида турлича ёндашувларни келтириб чиқаради, энг муҳими – манфаатлар тўқнашуви (conflict of interest) хавфини кучайтиради. Албатта, бундай вазиятда, кўпинча манфаатлар тўқнашувини олдини олиш

ва давлат хизматидаги холисликни таъминлаш принципи асосий ўрин тутиши зарур. Шартнома асосида ишловчи адвокатнинг бир вақтнинг ўзида ҳам давлат органи манфаатларини, ҳам бошқа мижозлар манфаатларини ҳимоя қилиши потенциал зиддиятли вазиятларни юзага келтиради.

Шу ўринда, халқаро ҳуқуқ тизимларида коллизияни ҳал этиш амалиётига ҳам назар солсак. Ривожланган давлатларнинг ҳуқуқий тизимларида давлат хизматининг юксак этик стандартларини сақлаш мақсадида адвокатлик фаолиятига нисбатан аниқ чекловлар ўрнатилган. Жумладан, Германия давлатида давлат хизматчиларининг асосий хизматдан ташқари ҳар қандай (шу жумладан, адвокатлик) ҳақ тўланадиган фаолият билан шуғулланиши Nebentätigkeit (қўшимча фаолият) деб аталади ва махсус рухсатномани талаб қилади. Давлат хизматчисига (Беамтер) адвокатлик фаолияти билан шуғулланиш учун махсус рухсат керак. Агар рухсатнома ташқи фаолият хизмат вазифаларини бажаришга халақит берса (вақт ёки ресурс жиҳатидан) ёки давлат органининг обрўсига зарар етказса, рухсатнома берилмаслиги қатъий белгилаб қўйилган.

Бир сўз билан айтганда, "Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида"ги қонуннинг 13-моддасига ўхшаш рухсат бериш механизми (Nebentätigkeit) қўлланилади. Бироқ, юридик амалиёт (адвокатлик) деярли ҳар доим асосий хизмат вазифаларини бажаришга халақит бериши ёки давлат обрўсига зарар етказиши мумкинлиги сабабли рад этилади.

Ушбу амалиётга Францияда профессионал номувофиқлик сифатида қаралади, яъни адвокатлик касбининг юқори даражадаги мустақиллиги ва бетарафлигини таъминлаш асосий талаб ҳисобланади. Адвокатлик фаолияти (Profession d'Avocat) кўпчилик давлат хизмати лавозимлари билан номувофиқ (incompatible) деб ҳисобланади. Шунингдек, адвокатлар этика қонунчилигига кўра, адвокатлик фаолияти ва давлат хизмати (айниқса, суд, прокуратура ва юридик соҳадаги давлат органлари) номувофиқ деб топилган. Бундаги асосий мақсад адвокатлик сирининг сақланишини, мижозга нисбатан садоқатни ва давлат босимисиз мустақил қарор қабул қилиш имкониятини таъминлашга қаратилган.

Бу халқаро тажриба адвокатлик фаолиятининг табиати, унинг давлат хизматининг асосий тамойилларига фундаментал даражада зид эканлигини тасдиқлайди.

Ўзбекистон Республикасининг ҳуқуқий тизимида юзага келган бу коллизияни ҳал қилишда давлат фуқаролик хизматининг устуворлиги принципига таяниш лозим. Мазкур ҳуқуқий коллизияни бартараф этиш ва амалдаги қонунчилик нормаларида аниқликни таъминлашда "Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида"ги қонуннинг 13-моддаси мантиқидан келиб чиқиб, адвокатлик фаолияти "ҳақ тўланадиган бошқа иш" сифатида талқин қилиниши ва давлат фуқаролик хизматчилари учун тақиқланиши зарур.

Халқаро амалиётда адвокатлик фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари (мижоз манфаатини давлат манфаатидан устун қўйиш) давлат хизматининг асосий тамойиллари (холислик, беғаразлик, давлат манфаатига хизмат қилиш) билан мос келмайди деб ҳисобланади. Шу сабабли, тўлиқ иш куни давлат хиз-

матчиларининг хусусий адвокатлик амалиёти билан шуғулланишига деярли ҳар жойда чеклов қўйилган.

“Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги қонуннинг 13-моддасига аниқлик киритишда, яъни мазкур модданинг биринчи қисмидаги ҳақ тўланадиган бошқа фаолиятга оид чекловга «Адвокатура тўғрисида»ги Қонуннинг 3-моддасида назарда тутилган, **шартномавий-ҳуқуқий асосда давлат органида амалга ошириладиган юридик хизмат фаолияти** алоҳида истисно сифатида қаралиши қонунчилик ҳуқуқни қўллашнинг хато амалиёти сифатида қаралиши лозим.

Шунингдек, агар адвокат давлат органи билан шартнома асосида ишлаётган бўлса, унинг адвокатлик фаолиятида давлат органи манфаатларига зид келиши мумкин бўлган ишларни олиб боришини тақиқловчи аниқ меъёрлар адвокатлик фаолиятини тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатларига ҳам киритилиши талаб этилади.

Ўзбекистон Республикасининг “Адвокатура тўғрисида”ги қонуни ва “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги қонунидаги нормалар ўртасидаги мавжуд коллизия нафақат ҳуқуқни қўллаш амалиётида ноаниқликларни келтириб чиқаради, балки давлат хизматида коррупция ва манфаатлар тўқнашуви хавфини оширади.

Таклиф этилган қонунчиликка аниқлик киритувчи ўзгартиришлар, хусусан, “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги қонуннинг 13-моддасига “Адвокатура тўғрисида”ги қонуннинг 3-моддасидаги истиснони киритиш орқали мавжуд зиддиятни самарали бартараф этиш мумкин. Бу чоралар ҳуқуқий аниқликни таъминлашга, давлат органларига юқори малакали юристларни жалб қилишга ва шу билан бирга, давлат фуқаролик хизматчиларининг мақомига доир талабларни сақлаб қолишга хизмат қилади.

КОНСТИТУЦИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ЗАЩИТА ПРАВ ЧЕЛОВЕКА

Турсунов Тулкин,
руководитель отдела Центра
«Стратегия развития», магистрант

В Новом Узбекистане проводится масштабная работа по всецелому воплощению в жизнь благородной идеи «Во имя чести и достоинства человека», последовательной имплементации в национальное законодательство и поэтапному внедрению в правоприменительную деятельность государственных органов международных стандартов в области прав и свобод человека. Усиление гарантий защиты прав и свобод человека, обеспечение верховенства закона, а также их повсеместной реализации в обществе и жизни каждого граждани-

на, занимают центральное место во внутренней и внешней политике Нового Узбекистана.

В апреле 2023 года на всенародном референдуме принята новая редакция Конституции Узбекистана, краеугольным камнем которой стало обеспечение прав и интересов человека, защита человеческого достоинства. В новой Конституции определены приоритеты Узбекистана как суверенного, правового, светского, демократического и социального государства[1].

Число конституционных норм, касающихся прав человека, возросло более чем в 3 раза и составляет более 50 статей. В Конституции подтверждена приверженность принципам прав человека, свободы слова и совести, равенства всех граждан независимо от их национальности, языка и религии. В новой Конституции Узбекистана закреплены такие всемирно признанные институты юриспруденции – Правила Миранды, Хабеас корпус, Pro bone, т.е. бесплатная юридическая помощь.

В современном мире ведущее место в системе юридических механизмов защиты прав и свобод человека принадлежит национальным институтам по правам человека. В Венской Декларации и Программе действий, принятых 30 лет назад на Всемирной конференции, подчеркнуто, что каждое государство имеет право избирать такие структуры, которые в наибольшей мере соответствуют его конкретным потребностям на международном уровне.

В настоящее время национальные институты по правам человека стали обязательными элементами систем защиты прав человека большинства стран мира. В более 100 конституциях государств мира предусмотрены нормы, посвященные статусу омбудсманов или национальных комиссий по правам человека.

Закрепление в статье 56 Конституции Узбекистана в новой редакции норм, посвященных национальным институтам по правам человека, демонстрирует приверженность государства к обеспечению и защите прав и свобод человека, развития культуры прав человека в обществе и полностью соответствует передовому международному и зарубежному опыту.

За годы независимости в Узбекистане создана система государственных органов, занимающихся защитой прав человека. В эту систему входят:

- Уполномоченный Олий Мажлиса Республики Узбекистан по правам человека (Омбудсман);
- Уполномоченный Олий Мажлиса Республики Узбекистан по правам ребенка (Детский омбудсман);
- Уполномоченный по защите прав предпринимателей при Президенте Республики Узбекистан;
- Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека.

В стране приняты комплексные меры по обеспечению выполнения международных обязательств в области прав человека, сформирован действен-

[1] Конституция Республики Узбекистан. – Т.: Адолат, 2023. – С. 227–228.

ный механизм имплементации норм международного права в национальное законодательство и правоприменительную практику, созданы законодательные, образовательные и институциональные основы соблюдения и защиты прав и свобод граждан.

В соответствии с рекомендациями Межпарламентского союза расширены полномочия парламента Узбекистана. Введена практика утверждения палатами парламента «дорожных карт» по выполнению рекомендаций международных органов по правам человека. В новой редакции Конституции гарантируется право на обращение в национальные и международные институты по правам человека. Реализации международных стандартов в области прав человека, в особенности защиты прав женщин, детей, молодежи и лиц с ограниченными возможностями, а также принципам социальной справедливости придан конституционный статус.

Кроме того, осуществлена масштабная работа по дальнейшему совершенствованию системы надежной защиты прав, свобод и интересов женщин и детей, формированию правовой базы национального превентивного механизма предупреждения пыток, искоренению принудительного и детского труда.

Национальные институты по правам человека наделены также правом обращения в Конституционный суд, а парламентский Омбудсман вправе вносить в Законодательную палату Олий Мажлиса законодательные предложения. Законодательство предусматривает, что парламентский Омбудсман, Детский омбудсман и Бизнес омбудсман имеют право обращаться в суды с заявлениями и исками в интересах заявителей без уплаты государственной пошлины.

Согласно рекомендациям международных органов приняты законодательные акты по усилению полномочий национальных институтов по правам человека. Создан национальный превентивный механизм по предупреждению пыток по модели «Омбудсман плюс». Полномочиями проведения мониторинга пенитенциарных учреждений наделены также Детский омбудсман, Национальный центр по правам человека и Бизнес-омбудсман.

Узбекистан активно участвует в реализации Всемирной программы образования в области прав человека. В последние годы принят ряд важнейших документов в данной сфере, в частности, Национальная стратегия Республики Узбекистан по правам человека[1], Национальная программа образования в области прав человека[2], Программа мероприятий, посвященных 75-летию принятия Всеобщей декларации прав человека[3].

В стране в систему профессионального и высшего образования внедряются учебные и специальные курсы «Права человека», «Права женщин», «Пра-

[1] Указ Президента Республики Узбекистан от 22 июня 2020 г. № УП-6012 «Об утверждении Национальной стратегии Республики Узбекистан по правам человека» //Национальная база данных законодательства, 23.06.2020 г., № 06/20/6012/0953; 30.04.2021 г., № 06/21/6218/0398, 24.07.2021 г., № 06/21/6269/0704, 30.12.2021 г., № 06/21/45/1228, 21.04.2022 г., № 06/22/113/0330

[2] Постановление Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2023 г. № ПП-46 «Об утверждении Национальной программы образования в области прав человека в Республике Узбекистан» //Национальная база данных законодательства, 08.02.2023 г., № 07/23/46/0078

[3] Указ Президента Республики Узбекистан от 12.05.2023 г. № УП-70 «О широком праздновании 75-летия принятия Всеобщей декларации прав человека» // Национальная база данных законодательства, 13.05.2023 г., № 06/23/70/0275

ва ребенка». Открываются учебные курсы по правам лиц с инвалидностью, женщин, детей и мигрантов. На постоянной основе издается серия пособий и брошюр по правам человека, а также запущена Электронная платформа по образованию в области прав человека.

За короткий период удалось достичь значительного прогресса во взаимодействии со структурами ООН по правам человека. Наглядным тому примером является активная деятельность Узбекистана в качестве члена Совета по правам человека, тесное сотрудничество с Верховным комиссаром по правам человека и специальными докладчиками по вопросам прав человека. По инициативе Узбекистана приняты три резолюции Совета ООН по правам человека о правах молодежи и детей, совместно с международными партнерами проведены ряд международных форумов, в частности Азиатский форум по правам человека, Глобальный форум по правам молодежи.

За последние годы в стране приняты комплексные меры по обеспечению выполнения международных обязательств в области прав человека, сформирован действенный механизм имплементации норм международного права в национальное законодательство и правоприменительную практику, созданы законодательные, образовательные и институциональные основы соблюдения и защиты прав и свобод граждан, сформирована система мониторинга соблюдения конституционных прав и свобод человека, реализованы последовательные шаги по развитию сотрудничества с международными и региональными механизмами защиты прав человека, а также международными неправительственными правозащитными организациями.

INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA IJRO HOKIMIYATI ORGANLARINING HISOBDORLIGI:MILLIY QONUNCHILIK VA XALQARO KAFOLATLAR TAHLILI

Raxmanov Jo‘rabek,
Urganch davlat universiteti “Huquq”
kafedrasi o‘qituvchisi, Toshkent davlat
yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

Bugungi kunda dunyo miqyosida globallashuv jarayonida inson huquqlarini himoya qilish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Aytish lozimki, bu borada O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprelda umumxalq xohish-irodasi asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitusiyasining 20-moddasiga ko‘ra, insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi.

Mamlakatimizda bugungi kunda davlat boshqaruvi tizimda inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilishning konstitutsiyaviy asoslari inson huquqlariga oliy qadriyat sifatida yondashuvga asoslangandir.

Bu borada hurmatli davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev haqli ravishda ta’kidlab o‘tganlaridek, “Barchamizga ma’lumki, jahondagi erkin rivojlanayotgan, suveren, huquqiy demokratik davlatlar tomonidan e’tirof etilgan prinsiplar va xalqaro huquq normalariga amal qilish, shuningdek, xalqimizning milliy manfaatlari, mentaliteti va an’analarini hisobga olgan holda, O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini himoya etish bo‘yicha tizimli va izchil ishlar amalga oshirilmoqda”[1].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan mazkur islohotlarda fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok qilayotganligi davlat boshqaruvi organlarining, birinchi navbatda ijro hokimiyati organlari faoliyatining demokratik asoslarini mustahkamlashga katta hissa qo‘shmoqda.

Aytish lozimki, keyingi yillarda mamlakatimizda davlat boshqaruvini demokratlashtirish sohasidagi muhim islohotlardan biri sifatida ijro hokimiyati faoliyatida hisobdorlik bilan bog‘liq huquqiy mexanizmlar takomillashtirib kelinmoqda.

Xususan, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yilning 14-iyuldagi “Davlat boshqaruvi tizimida samaradorlik, proaktivlik va natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan ijro etuvchi organlarning tashkiliy tuzilmalarini va ish uslublarini takomillashtirish, ularning faoliyatini raqamlashtirish, mansabdor shaxslarning mas’uliyati va hisobdorligini oshirish choralarini ko‘rib vazifasi belgilandi[2].

Davlat boshqaruvi tizimida ijro hokimiyati organlarining hisobdorligi inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilishning muhim kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Bu borada ayrim xorij olimlarining fikricha, davlat boshqaruvi va hisobdorlik tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib hisoblanadi[3].

Xususan, bu borada Garvard universitetining professori R. Beynning fikricha, ijro hokimiyati faoliyatida hisobdorlik quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

– hisobdorlik ijro hokimiyati faoliyatida ijtimoiy adolatning asosi bo‘lib yuzaga chiqadi;

– hisobdorlik ijro hokimiyati faoliyatida samaradorlikka yo‘naltirilgan bo‘ladi;

– hisobdorlik boshqaruvni moliyaviy jihatdan amalga oshirishga asos bo‘lib xizmat qiladi[4].

Tadqiqotchilarning fikricha, ijro hokimiyati faoliyatida hisobdorlik mexanizmlarini keng qo‘llash zarurligi bir qancha omillar bilan izohlanadi.

Xususan, bu borada rossiyalik olim G.S.Galiullinaning fikricha, hozirgi axborot jamiyati sharoitida davlat boshqaruvida fuqarolarga axborotlarning taqdim qilini-

---

[1] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2017. – Б. 43.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yilning 14-iyuldagi “Davlat boshqaruvi tizimida samaradorlik, proaktivlik va natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-111-sonli farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.07.2025-y., 06/25/111/0621-son

[3] Концепт подотчетности в английских и русских политических дискурсах: препринт WP14/2014/06 / М. В. Ильин и др.; под общ. ред. И. В. Убоженко. – М.: Высшая школа экономики, 2014. – С. 6.

[4] Behn R.D. Rethinking Democratic Accountability. – Washington, DC: Brookings Institution Press. 2001. – 317 p.

shi davlat hokimiyatining asosiy majburiyati hisoblanadi va quyidagilardan iborat boʻladi:

– reaktiv majburiyatlar, ya'ni tegishli soʻralayotgan axborotlarni taqdim qilish;

– proreaktiv majburiyatlar, ya'ni jamoatchilikning umumiy manfaatlariga daxldor boʻlgan axborotlarni toʻplash va ularni taqdim qilish;

– qoʻllab-quvvatlovchi majburiyatlar, ya'ni davlatning axborot sohasidagi faoliyatining kengaytirishga qaratilgan majburiyatlar.

Olimning fikricha, ushbu majburiyatlarning amalda bajarilishi ijro hokimiyati faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni kafolatlagan holda, korrupsiya, hokimiyatni suiiste'mol qilish, uyushgan jinoyatchilik kabi salbiy hodisalarning oldini olishga xizmat qiladi[1].

Davlat boshqaruvi sohasidagi taniqli olimlardan biri boʻlgan Yu.A.Nisnevichning ushbu fikriga hurmat bilan yondashgan holda, aytish lozimki, ijro hokimiyati faoliyatida hisobdorlikni faqatgina axborot taqdim qilish sifatida tahlil qilish mazkur huquqiy jarayonning mohiyati va vazifalarini toʻliq ochib berishga imkon bermaydi.

Bundan tashqari, bugungi kunda inson huquqlarini himoya qilishga doir halqaro kafolatlarda ijro hokimiyati faoliyatida hisobdorlikka davlat boshqaruvida mansabdor shaxslarning oʻz faoliyatini amalga oshirishining legitimliligi sifatida yondashish tendensiyasi kengayib bormoqda.

Xususan, bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2003-yil 10–12-sentyabr kunlari Ulan Batorda oʻtkazilgan Demokratiya boʻyicha Beshinchi xalqaro konferensiyada demokratik boshqaruvni amalga oshirishda ijro hokimiyati organlari mansabdor shaxslarining faoliyati qonuniy va xalq manfaatlariga javob berishi, vakillik va ishtirok etishga asoslanishi, shaffof va hisobdor hamda inson huquqlari va qonun ustuvorligini hurmat qilishi lozimligi koʻrsatib oʻtildi[2].

Shu boisdan ayrim tadqiqotchilarning fikricha, hisobdorlik ijro hokimiyati organlari faoliyatida eng avvalo samarali boshqaruv bilan bogʻliq boʻlib hisoblanadi[3].

Albatta, XX asrning oxirgi choragi davomida davlat boshqaruvida samaradorlik masalasi dolzarb ahamiyatga ega boʻlganligini bir qator omillar bilan izohlash mumkin.

Birinchidan, mazkur davrga kelib, mehnat bozorida yuqori raqobat va natijaga asoslangan boshqaruv usullari keng tarqaldi.

Ikkinchidan, globallashuv jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning keng rivojlanishi boshqaruvni amalga oshirishda ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlikni keng qoʻllashni taqozo qildi.

Bundan tashqari, ijro hokimiyati tizimida fuqarolarning keng ishtiroki hamkorlik darajasini va faoliyat samaradorligini oshirishga imkon bergan holda,

---

[1] Қаранг: Нисневич Ю.А. Информация и власть. – М.: Мысль, 2000. – С. 30–31.

[2] Letter dated 18 September 2003 from the Permanent Representative of Mongolia to the United Nations addressed to the Secretary-General, A/58/387, 23 September 2003 // https://www.refworld.org/reference/themreport/unga/2003/en/65764

[3] Sinclair A. The Chameleon of Accountability: Forms and Discourses // Accounting Organizations and Society. 1995. – Vol. 20. – Issues 2–3. – P. 219–237 // https://doi.org/10.1016/0361-3682(93)E0003-Y

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosini to‘laqonli ta’minlaydi.

Biroq, bu o‘rinda shuni aytish lozimki, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi keng ishtiroki samarador bo‘lishi hamda boshqaruvda demokratik qarorlar qabul qilinishi uchun ijro hokimiyati, eng avvalo, hukumat faoliyatiga doir ma’lumotlar ochiq va maqbul bo‘lishi lozim bo‘ladi.

Bu borada xorijiy tajribani tahlil qiladigan bo‘lsak, ijro hokimiyati faoliyatida hisobdorlikni ta’minlashga qaratilgan davlat organlarining ochiqlik siyosati bo‘yicha ilk normativ-huquqiy hujjat 1776-yilda Shvesiyada qabul qilingan “Nashrlar erkinligi to‘g‘risida”gi qonundan iborat bo‘ldi.

Mazkur Qonunning takomillashgan shakli sifatida 1949-yilda qabul qilingan “Matbuot erkinligi to‘g‘risida”gi qonun bugungi kunda Qirollik Konstitusiyasining tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanadi hamda mamlakat fuqarolariga beg‘araz asosda davlat hokimiyati idoralarining faoliyati haqida axborot olishni kafolatlaydi.

AQShda 1966-yilda qabul qilingan “Axborot erkinligi to‘g‘risida”gi qonun fuqarolarning davlat organlari faoliyatiga doir axborot olish huquqini belgilagan holda, fuqarolarning so‘rovlari bo‘yicha javoblar tayyorlash uchun aniq muddatlarni o‘rnatdi.

Shuningdek, mazkur Qonun bilan axborotning alohida turlari bo‘yicha cheklov asoslari ko‘rsatilib, fuqarolarga taqdim qilingan axborotlar bo‘yicha mustaqil jamoatchilik nazoratini amalga oshirish jarayoni hamda fuqarolarning so‘rovlari bilan ishlashda davlat organlarining hisobdorlik shakllariga doir masalalar belgilab qo‘yildi[1].

Albatta, bu davrda ushbu Qonun hujjatlarining qabul qilinishiga xalqaro-huquqiy standartlar turtki berganligini ham qayd qilish joiz bo‘ladi. Ayniqsa, bu borada 1966-yil 16-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda davlat organlari faoliyatida ochiqlik va hisobdorlik bo‘yicha bir qator muhim qoidalar belgilandi.

Xususan, Paktning 19-moddasida har bir inson hech bir to‘siqsiz o‘z fikriga sobit bo‘lish huquqiga egaligi, har bir inson o‘z fikrini erkin bayon etish huquqiga egaligi, bu huquq davlat chegaralaridan qat’i nazar yozma ravishda yoki matbuot orqali yoki ifodalashning badiiy shakllari yoxud o‘z ixtiyoriga ko‘ra boshqacha usullarda turli axborot va g‘oyalarni qidirish, olish va tarqatish erkinligini qamrab olishi belgilab qo‘yildi.

Shuningdek, mazkur moddada boshqa shaxslarning huquqlari va obro‘-e’tiborini hurmat qilish, davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, aholi salomatligi yoki ma’naviyatini muhofaza etish uchun ochiqlik siyosatining cheklanishi mumkinligi belgilab qo‘yildi.

Huquqshunos olim N.A.Nugmanovning fikricha, mazkur cheklovlar axborot sohasida insonning asosiy huquq va majburiyatlariga aloqador bo‘lib, axborot erkin-

[1] Кайл Я.Я., Епиина В.С. Зарубежный опыт партисипативной ориентации публичного управления // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. – 2013. – № 2. – С. 42–48.

ligini cheklash qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirilishi lozim bo‘ladi[1].

O‘zbekiston Respublikasida ijro hokimiyati organlari faoliyatida hisobdorlikni ta’minlash bilan bog‘liq yuqorida tahlil qilingan xalqaro kafolatlarda belgilangan qoidalarni milliy qonunchilikka tatbiq qilish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, mamlakatimizda 2018-yil 12-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonunida ijro hokimiyati organlari hisobdorligi bilan bog‘liq muhim qoidalar belgilandi.

Xususan, Qonunga muvofiq, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish jamoatchilik nazoratining muhim shakllaridan biri sifatida belgilandi.

Bu borada Qonunning 14-moddasiga ko‘ra, fuqarolar yig‘ini Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining fuqarolar yig‘inlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini, ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining, joylardagi ta’lim muassasalari rahbarlarining hisobotlarini, tegishli oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlari rahbarlarining axborotini, tegishli hududda joylashgan tashkilotlar rahbarlarining atrof-muhitni muhofaza qilish, hududning sanitariya holati, uni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish masalalariga doir hisobotlarini eshitadi.

Ijro hokimiyati organlarining hisobdorligi bilan bog‘liq keyingi jarayon Qonunning 17-moddasida belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, hisobotlarni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra bayonnoma, xulosa, ma’lumotnoma shaklida yoxud qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa shaklda yakuniy hujjat tayyorlanishi mumkin.

Yakuniy hujjat axborot va tavsiya xususiyatiga ega bo‘ladi.

Mamlakatimizda Davlatimiz Rahbari Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan qabul qilingan mazkur Qonun davlat boshqaruvining demokratik asoslarini mustahkamlashda, inson huquqlarini himoya qilishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tahlil qilingan islohotlar natijasida bugungi kunda mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan islohotlar yangi bosqichga ko‘tarilmoqda.

Bu borada taniqli huquqshunos olim, akademik A.X. Saidovning O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlarini himoya qilish sohasida amalga oshirilgan islohotlar va erishilgan amaliy natijalar, shuningdek, BMT bilan konstruktiv hamkorlik xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy baholanayotganligi xususidagi fikrlarini asosli deb hisoblaymiz[2].

Yuqorida qayd qilingan ijobiy tendensiyalarni mustahkamlash, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish borasida belgilangan xalqaro standartlar normalar-

[1] Нугманов Н.А. Международно-правовое регулирование информационных прав человека и границы их возможного правового ограничения // European science. – 2016. – № 11. – С. 48–53.

[2] Саидов А.Х. О сегменте высокого уровня 55-сессии Совета ООН по правам человека // Демократизация и права человека. – 2024. – №2. – С. 136

ini milliy qonunchilikka keng tatbiq qilish yuzasidan quyidagi xulosa va takliflarni ilgari surishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Birinchidan, ijro hokimiyati organlarining hisobdorligi, eng avvalo, davlat organlarining inson huquqlarini himoya qilish borasidagi mas'ulligi boʻyicha xalqaro standartlar, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida belgilangan huquqiy maqomi boʻlib hisoblanadi.

Ikkinchidan, ijro hokimiyati organlarining hisobdorligini amalga oshirishda xalqaro kafolatlar va milliy qonunchilikda belgilangan davlatning ommaviy faoliyati haqida axborot olish muhim oʻrin tutadi.

Uchinchidan, Oʻzbekiston Respublikasida ijro hokimiyati organlarining hisobdorligini amalga oshirishda xalqaro standartlarda belgilangan ilgʻor normalar asosida hamda bir qator rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, Oʻzbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati toʻgʻrisida"gi qonuni 14-moddasiga fuqarolar yigʻinidan tashqari boshqa jamoatchilik nazorati subyektlarining hisobdorlikni amalga oshirishdagi vakolatlarini belgilash boʻyicha qoʻshimchalar kiritish zarur boʻladi.

IJOD ERKINLIGI VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQLARINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Toxirova Sabina,
Inson huquqlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Milliy markazi tayanch doktoranti

Ijod erkinligi va intellektual mulk huquqlari zamonaviy demokratik jamiyatning asosiy poydevorlaridan biri hisoblanadi. Shaxsning ilmiy, adabiy, badiiy yoki texnik yoʻnalishdagi ijodiy faoliyatini erkin amalga oshirishi uning shaxsiy rivoji bilan birgalikda davlatning madaniy, iqtisodiy va innovatsion taraqqiyotiga ham zamin yaratadi. Oʻzbekiston Respublikasining 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 53-moddasida ijod erkinligi hamda intellektual mulkning davlat muhofazasida ekani aniq belgilab qoʻyilgan[1]. Bu esa mazkur sohaning huquqiy asoslarini qayta koʻrib chiqish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish va amaliy samaradorligini oshirishni taqozo etadi.

Soʻnggi yillarda mamlakatda intellektual mulk infratuzilmasini rivojlantirish, mualliflik huquqi tizimini liberallashtirish, piratlikka qarshi kurashish, ijodiy industriyalarni qoʻllab-quvvatlash yoʻnalishida keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mualliflik huquqi toʻgʻrisidagi qonunchilik takomillashtirildi, roʻyxatdan oʻtkazish jarayonlari raqamlashtirildi, xalqaro shartnomalar ratifikatsiya qilindi. Bularning barchasi ijodkorlar faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratish va intellektual mulkning iqtisodiy qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

[1] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Adolat, 2023. – Б. 145–146.

Mazkur ilmiy maqola Oʻzbekiston Respublikasida ijod erkinligi va intellektual mulkning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini tahlil qilish, sohadagi mavjud muammolarni aniqlash, xalqaro tajriba asosida takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqot davomida ilmiy-analitik tamoyillar asosida bir qancha metodlar orqali tadqiqotning asosiy maqsadiga erishildi. Jumladan, normativ-huquqiy tahlil usulidan foydalangan holda Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar toʻgʻrisida"gi Qonun, intellektual mulk obyektlari boʻyicha qator hukumat qarorlari moddalari oʻrganildi. Shuningdek, Bern konvensiyasi, TRIPS bitimi, WIPO standartlari bilan qiyosiy oʻrganildi. Doktrinal tahlil orqali esa Landes & Posner, Ginsburg, Sherman & Bently, Cornish kabi olimlarning nazariyalari asos qilib olindi. Oʻzbekiston Intellektual mulk agentligi statistik ma'lumotlari, sud amaliyoti va WIPO hisobotlari tahlil qilindi.

Ijod erkinligi jamiyatning ma'naviy yuksalishi, ilmiy taraqqiyot va iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. Insonning erkin fikr yuritish, ilmiy izlanishlar olib borish, badiiy asarlar yaratish imkoniyatining mavjudligi jamiyatning intellektual salohiyatini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, Oʻzbekistonning Konstitutsiyada ijod erkinligini mustahkamlashi demokratik islohotlarning muhim bosqichi boʻldi. Eski tahrirdagi Konstitutsiyamizda ilmiy-texnik ijod erkinligi belgilangan boʻlishiga qaramay, muallif va ijodkorlarning huquqlarini himoya qilish masalasiga toʻxtab oʻtilmagan. Ya'ni intellektual mulk alohida e'tirof etilmagan edi. Shunisi quvonarliki, yangi tahrirdagi Bosh qomusimizda intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi[1], insonning ijodiy va innovatsion faoliyatini himoya qilish yetarli darajada kafolatlanadi.

Biroq, ijod erkinligi faqatgina erkinlikning deklarativ e'tirofi bilan chegaralanmaydi; u amaliyotda toʻliq ishlashi uchun iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy mexanizmlar bilan ta'minlanishi lozim. Mazkur mexanizmlarning eng muhimlaridan biri – intellektual mulkning samarali himoyasidir. Hozirgi kunda intellektual mulkni bevosita tartibga solishga qaratilgan 8 ta qonun hamda oʻndan ortiq qonunosti hujjatlar qabul qilingan boʻlib, Fuqarolik kodeksining IV boʻlimi aynan intellektual mulk masalalariga bagʻishlangan. Mazkur soha yangi kashfiyotlar, ijodiy asarlar, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, nou-xaular, dasturiy mahsulotlar va boshqa turli ishlanmalarni oʻz ichiga oladi. Ularning huquqiy tartibga solinishi nafaqat fuqarolik qonunchiligi, balki turli qonunosti hujjatlar orqali ham amalga oshiriladi. Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik kodeksi va Jinoyat kodeksida intellektual mulk huquqlarini buzgan shaxslar uchun javobgarlikni belgilovchi bir qator moddalar mavjud.

Tadqiqotchilar fikricha, xususan Sh. Xoʻjayev nazarida, intellektual mulk sohasida mustahkam qonunchilik asoslari shakllangan hisoblanadi[2]. Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikni yanada samarali rivojlantirish va mavjud muammolarni hal etish maqsadida, u bir qator yoʻnalishlarda qonunchilikni takomillashtirish mumkinligini ta'kidlaydi.

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Adolat, 2023. – Б. 145–146.

[2] Amaldagi Konstitutsiya intellektual mulkni alohida e'tirof etmaydi: [Sh. Xoʻjayev bilan suhbat] // https://kommers.uz/amaldagi-konstitucziya-intellektual-mulkni-alohida-etirof-etmajdi-ekspert

Avvalo, intellektual mulk sohasidagi huquqiy me'yorlarning tarqoq va tizimsizligining mavjudligi muhim muammo sifatida e'tirof etiladi. Bu esa turli nomuvofiqliklar, tushunmovchiliklar va amaliyotda noaniqliklarning yuzaga kelishiga sabab boʻladi. Shu bois, qonunchilik normalarini bir-biri bilan uygʻunlashtirish va yagona, mukammal tizim shaklida jamlash zarurati mavjud. Tadqiqotchilar, shu nuqtai nazardan, Intellektual mulk kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish gʻoyasini qoʻllab-quvvatlaydilar. Mazkur Kodeks nafaqat mavjud qonunchilikni tizimlashtirish, balki intellektual mulk sohasida yangi kashfiyotlar, ijodiy ishlanmalar va ixtirolarning himoyasini yanada kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Zamonaviy dunyoda intellektual mulk himoyasini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Chunki, nomoddiy aktivlar ulushi 1975-yilda 17 foizni tashkil etgan boʻlsa, 2020-yilda 90 foizga koʻtarilib, ularning taxminiy qiymati 21 trillion AQSh dollariga yetgan. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti tahlillariga koʻra, 2019-yilda 17 ta davlat mashhur qahramonlar va oʻquv-ilmiy adabiyotlardan foydalanish uchun litsenziya olish natijasida 64,1 mlrd dollar foyda koʻrgan[1].

Intellektual mulk bugungi kunda nafaqat ijodiy faoliyatning, balki iqtisodiy rivojlanishning ham eng serdaromad yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Dunyo amaliyotida "Coca-Cola", "KFC", "Dodo Pitssa", "Nestle" va "Apple" kabi global kompaniyalar oʻz daromadlarining katta qismini aynan intellektual mulk obyektlari, brendlar va texnologik yechimlar orqali oladi, bu esa trillion dollardan ortiq moliyaviy natijalarni ta'minlamoqda. Shu bilan birga, Oʻzbekistonda intellektual mulkni tijoratlashtirish darajasi hanuz past boʻlib, buning oqibatida olimlar, ixtirochilar, tadbirkorlar, yozuvchilar, san'atkorlar va boshqa ijodkorlar oʻz mehnatining haqqini yetarli darajada ololmayapti va moliyaviy hamda ma'naviy jihatdan jiddiy cheklovlarga duch kelmoqda.

Mazkur holat, shuningdek, intellektual mulkka nisbatan mamlakatda yetarli ijtimoiy va iqtisodiy qadriyatlarning shakllanmaganligini koʻrsatadi. Hozirgi kunda intellektual mulkning Oʻzbekiston iqtisodiyotidagi ulushi, mualliflar va ijodkorlarning oladigan daromadi haqida tizimli statistik ma'lumotlar mavjud emas. Bu esa sohani rivojlantirish va samarali boshqarishni murakkablashtiradi.

Shunga qaramasdan, soʻnggi yillarda Oʻzbekiston Respublikasi hukumatining intellektual mulk sohasida qonunchilik va amaliyotni takomillashtirish yoʻlida sezilarli qadamlar tashlandi. 2025-yil 8-avgustda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti intellektual mulkni himoya qilishni kuchaytirishga yoʻnaltirilgan yangi qonunni qabul qildi. Mazkur Qonun doirasida patent va boshqa sanoat mulki obyektlarini roʻyxatga olish jarayonlari soddalashtirildi: endilikda patent sertifikatlari elektron tizim orqali avtomatik tarzda beriladi, davlat roʻyxatidan oʻtkazish uchun toʻlov muddatlari kengaytirildi, talab qilinadigan hujjatlar va protseduralar qisqartirildi[2].

---

[1] Yangilanayotgan konstitutsiyada intellektual mulk. Mualliflik huquqiga munosabat qay darajada oʻzgaradi? // https://kun.uz/90887004#!

[2] Oʻzbekiston Respublikasining 2025-yilning 8-avgustdagi "Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisi"dagi OʻRQ-1080-sonli qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.08.2025-y., 03/25/1080/0710-son

Bundan tashqari, huquqbuzarliklar uchun javobgarlik sezilarli darajada kuchaytirildi. Masalan, mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish, noqonuniy koʻpaytirish, tarqatish, ushbu mulk obyektlarini muallif roziligisiz foydalanish holatlari uchun jarimalar, jamoat ishlari, hatto ozodlikni cheklash kabi sanksiyalar joriy qilinmoqda. Shuningdek, xalqaro hamkorlik yoʻnalishida muhim qadam tashlandi: 2024-yilda Oʻzbekiston Hague Agreement (1999 Act)ga qoʻshilib, uning doirasida sanoat namunalari va dizaynlar uchun xalqaro muhofaza tizimiga kirish imkoniyati ochildi. Bu esa mahalliy ijodkor va ixtirochilarga oʻz mahsulotlarini global maydonda himoya qilish va tijoratlashtirish imkonini beradi[1].

Bularning barchasi, xususan, intellektual mulk huquqlarining qonunchilik rejimida mustahkamlanishi hamda xalqaro himoyaga integratsiyalashuvi intellektual mulkni oddiy mulk darajasida tan olish va uni daromad keltiruvchi manba sifatida qabul qilishga qaratilgan muhim asos boʻlib xizmat qilishi mumkin. Bu esa, nafaqat ijodkor va ixtirochilar manfaatlarini himoya qiladi, balki mamlakatda innovatsiyalar rivoji, tadbirkorlikning ustuvor yoʻnalishlarga aylanishi va xalqaro bozorlarga chiqishda raqobatbardoshlikni oshirish uchun poydevor yaratadi.

Oʻzbekiston soʻnggi yillarda mazkur yoʻnalishda sezilarli islohotlarni amalga oshirgan boʻlsa-da, global standartlar nuqtai nazaridan hali bajarilishi lozim boʻlgan vazifalar anchagina. Masalan, huquqiy savodxonlik pastligi sababli koʻplab ijodkorlar oʻz huquqlaridan xabardor emas va ularni himoya qilish mexanizmlaridan foydalana olmaydi. Piratlikning keng tarqalganligi esa iqtisodiyot uchun ham, ijodkorlar uchun ham iqtisodiy zarar keltirmoqda. Internetda huquqbuzarlikning yangi shakllari – striming piratligi, shaxsga tegishli boʻlmagan kontentni TikTok, Telegram, YouTube kabi platformalarda qayta yuklash kabi tendensiyalar kuchaymoqda. Bunday tahdidlarni oldini olish uchun sun'iy intellekt asosidagi monitoring tizimlarini joriy etish, litsenziyalash jarayonini soddalashtirish, huquqbuzarlar uchun javobgarlikni kuchaytirish zarur. Sud amaliyotida ham bir qator muammolar mavjud. Sudyalar va ekspertlar intellektual mulk boʻyicha yetarli malakaga ega emasligi ba'zan ishlarning notoʻgʻri koʻrilishiga sabab boʻlmoqda. Xalqaro tajriba shuni koʻrsatadiki, ixtisoslashgan IP sudlari mavjud boʻlgan davlatlarda mualliflik huquqi boʻyicha nizolar tez, aniq va odilona hal etiladi. Oʻzbekistonda ham bunday institutlarni yaratish zarur.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar ijod erkinligi va intellektual mulk munosabatlarining Oʻzbekiston sharoitidagi shakllanishi, amaliyoti va istiqbollari boʻyicha chuqur ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi. Birinchidan, 2023-yil Konstitutsiyaning yangi tahriri ijod erkinligini shaxsning ajralmas konstitutsiyaviy huquqi sifatida mustahkamlab, davlatning ilm-fan, adabiyot, san'at va innovatsion faoliyatni qoʻllab-quvvatlash majburiyatini aniq belgilab berdi. Ikkinchidan, intellektual mulkning konstitutsiyaviy maqomga koʻtarilishi Oʻzbekistonda innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi uchun zarur boʻlgan huquqiy infratuzilmani yaratdi.

[1] Hague Agreement Concerning the International Registration of Industrial Designs // https://www.wipo.int/en/web/treaties/registration/hague/index

Patentlar, tovar belgilari, sanoat namunalari, dasturiy ta’minot, seleksiya yutuqlari kabi obyektlarni muhofaza qilish tartibi soddalashtirildi, elektron roʻyxatga olish tizimlari keng joriy etildi.

Uchinchi natija sifatida piratlikka qarshi kurash mexanizmlarining takomillashgani qayd etildi. Xususan, mualliflik huquqining buzilish holatlarini aniqlash boʻyicha raqamli monitoring tizimlari joriy qilindi, noqonuniy kontent tarqatishga qarshi tezkor choralar belgilandi, ma’muriy va jinoiy javobgarlik kuchaytirildi. Toʻrtinchidan, sud amaliyotida intellektual mulk boʻyicha nizolar sonining ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bu bir tomondan soha rivojlanayotganini, ikkinchi tomondan esa huquqiy madaniyat va huquqiy ongning oʻsib borayotganini anglatadi. Beshinchidan, ijodiy industriyalar – media, kino, animatsiya, dizayn, IT, reklama va musiqa sohalari iqtisodiyotning yangi segmenti sifatida shakllanmoqda.

Ijod erkinligi jamiyatda ochiqlik, kreativlik va ijtimoiy dinamikaning rivojlanishini ta’minlovchi asosiy tamoyildir. Insonning oʻz fikrini erkin ifoda etishi, ilmiy va badiiy izlanishlar natijalarini yaratishi, ularni tarqatishi jamiyatning intellektual salohiyatini oshiradi. Shu sababli rivojlangan davlatlarda ijod erkinligi doimo konstitutsiyaviy himoyaga ega boʻlib kelgan. Intellektual mulk esa yaratilgan asarlarning iqtisodiy manfaatini ta’minlaydigan asosiy vosita hisoblanadi. Agar mualliflik huquqi himoya qilinmasa, ijodiy faoliyatning iqtisodiy ragʻbati susayadi, bu esa jamiyatning innovatsion rivojiga salbiy ta’sir koʻrsatadi. Shu nuqtai nazardan, ijod erkinligi bilan intellektual mulk huquqlari oʻzaro chambarchas bogʻliq va bir-birini toʻldiradi.

Oʻzbekistonda bu borada sezilarli oʻzgarishlarga erishilgan boʻlsada, bir qator tizimli muammolar mavjud: – aholi va ijodkorlarning huquqiy savodxonligi pastligi; – raqamli platformalarda piratlik koʻlamining kengligi; – sudlar va ekspertiza markazlarida yetarli malakali kadrlarning yoʻqligi; – intellektual aktivlarni iqtisodiy baholash metodologiyasining ishlab chiqilmaganligi. Xalqaro tajribani tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, intellektual mulkning samarali ishlashi uchun quyidagilar zarur: ixtisoslashgan sudlar, tezkor roʻyxatga olish tizimi, shaffof litsenziyalash tartibi, intellektual aktivlar bozorining institutsional rivoji va raqamli kuzatuv vositalarining keng qoʻllanilishi. Oʻzbekistonni global intellektual mulk bozorining faol ishtirokchisiga aylantirish uchun mazkur yoʻnalishlardagi islohotlarni jadallashtirish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, ijod erkinligi va intellektual mulkning huquqiy muhofazasi nafaqat ijodkorlar manfaatlarini himoya qiladi, balki Oʻzbekistonning innovatsion iqtisodiyotga integratsiyasini ta’minlaydi. Bu esa davlatning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshiruvchi strategik omil boʻlib xizmat qiladi.

IJTIMOIY HUQUQLARNING XALQARO HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING MILLIY QONUNCHILIKKA IMPLEMENTATSIYA QILINISHI

Jumaboyev Doniyor,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston
Milliy universiteti Huquqiy fanlar
kafedrasi o‘qituvchisi

Hozirgi kunda global miqyosda fuqarolarning ijtimoiy huquqlarining ta’minlanishi, himoya qilinishi va ijtimoiy huquqlarga oid xalqaro umume’tirof etilgan normalarning qo‘llanilishi sohasida muammolarga duch kelishimiz mumkin.

Ushbu muammolarga albatta insonlarning xalqaro miqyosda tan olingan ijtimoiy huquqlari, ya’ni sog‘liqni saqlash, ta’lim olish, mehnat qilish, ijtimoiy ta’minot olish kabi bir necha ijtimoiy huquqlari bilan bog‘liq yuzaga kelayotgan muammolarda namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki xalqaro inson huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq ko‘plab normalarda insonlarning ijtimoiy huquqlariga alohida e’tibor beriladi. Bu o‘rinda 1948-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini olishimiz mumkin. Ushbu hujjatda har bir inson mehnat qilish, ishni erkin tanlash, adolatli va qulay ish sharoitiga ega bo‘lish va ishsizlikdan himoya qilinish huquqiga egaligi, har bir inson hech bir kamsitishsiz teng mehnat uchun teng haq olish huquqiga ega bo‘lishi, har bir ishlovchi kishi o‘zi va oilasi uchun insonga munosib yashashni ta’minlaydigan adolatli va qoniqarli daromad olishga, zarur bo‘lganda ijtimoiy ta’minotning boshqa vositalari bilan to‘ldiriluvchi daromad olish huquqiga egaligi, kasaba uyushmalari tuzish va o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun kasaba uyushmalariga kirish huquqiga egaligi, dam olish va bo‘sh vaqtga ega bo‘lish, shu jumladan ish kunini oqilona cheklash huquqi va haq to‘lanadigan mehnat ta’tili olish huquqiga ega ekanligi kabi huquqlar belgilangan.

Shuningdek, har bir inson o‘zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan turmush darajasiga ega bo‘lish, jumladan kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega bo‘lishga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog‘liq bo‘lmagan sharoitlarga ko‘ra tirikchilik uchun mablag‘ bo‘lmay qolgan boshqa hollarda ta’minlanish huquqiga egaligi, onalik va bolalik alohida g‘amxo‘rlik va yordam huquqini berishi, barcha bolalar, nikohda yoki nikohsiz tug‘ilishidan qat’i nazar, bir xil ijtimoiy himoyadan foydalanishi kerakligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Bundan tashqari, har bir inson ta’lim olish huquqiga egaligi, ta’lim olishda hech bo‘lmaganda boshlang‘ich va umumiy ta’lim tekin bo‘lishi, boshlang‘ich ta’lim majburiy bo‘lishi kerakligi, texnik va kasb-hunar ta’limi hammaning qurbi etadigan darajada bo‘lishi, oliy ta’lim esa har kimning qobiliyatiga asosan hamma uchun yetarli imkoniyat doirasida bo‘lishi kerakligi, ta’lim inson shaxsini to‘la barkamol qilishga va inson huquqlari hamda asosiy erkinliklariga nisbatan hurmatni kuchay-

tirishga qaratilishi lozimligi, ta’lim barcha xalqlar, irqiy va diniy guruhlar oʻrtasida bir-birini tushunish, xayrixohlik va doʻstlikka xizmat qilishi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni saqlash borasidagi faoliyatiga yordam berishi kerakligi, kichik yoshdagi bolalari uchun ota-onalar ta’lim turini tanlashda imtiyozli huquqqa ega boʻlishi lozimligi, har bir inson jamiyatning madaniy hayotida erkin ishtirok etishga, san’atdan bahramand boʻlishga, ilmiy taraqqiyotda ishtirok etish va uning samaralaridan foydalanish huquqiga ega boʻlishi kabi ijtimoiy huquqlarning kafolatlari belgilangan[1].

Ushbu xalqaro normaning milliy qonunchiligimizda aks ettirilishi bu, eng avvalo, Oʻzbekiston Respublikasining oliy darajadagi normativ-huquqiy hujjati – Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ijtimoiy huquqlarga oid bir qator normalarda koʻrishimiz mumkin. Bu oʻrinda har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq toʻlashning belgilangan eng kam miqdoridan kam boʻlmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega boʻlishi, mehnatga haq toʻlashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta’minlash zaruratini hisobga olgan holda belgilanishi, homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan boʻshatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishi kabi normalar belgilangan.

Shuningdek, davlat fuqarolarning bandligini ta’minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambagʻallikni qisqartirish choralarini koʻrishi, davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etishi hamda ragʻbatlantirishi, sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanishi, bolalar mehnatining bolaning sogʻligʻiga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta’lim olishiga toʻsqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanishi, har kim dam olish huquqiga egaligi, yollanib ishlovchilarga dam olish huquqi ish vaqtining davomiyligini, dam olish va ishlanmaydigan bayram kunlarini, haq toʻlanadigan har yilgi mehnat ta’tilini belgilash orqali ta’minlanishi kabi qoidalar ham mustahkamlangan.

Bundan tashqari, har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yoʻqotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yoʻqotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot huquqiga ega boʻlishi, qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste’mol xarajatlaridan oz boʻlishi mumkin emasligi, har kim sogʻligʻini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega boʻlishi, Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli ekanligi, davlat sogʻliqni saqlash tizimini rivojlantirish, tibbiy sugʻurtaning turli shakllarini joriy etish, aholining

[1] Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi // Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalari to‘plami. – T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2023. –B. 8.

sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta’minlash, shuningdek jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi kabi ijtimoiy huquqlar kafolatlangan.

Shu bilan bir qatorda, ta’lim sohasidagi huquqlar – har kim ta’lim olish huquqiga ega bo‘lishi, davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlashi, davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlashi, umumiy o‘rta ta’lim majburiy bo‘lishi, maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratida bo‘lishi, ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanishi kabi asosiy ijtimoiy huquqlar xalqaro inson huquqlari borasida qabul qilingan normalarni inobatga olgan holda, imkon qadar fuqarolarga ijtimoiy huquqlarini amalga oshirishga va ushbu huquqlardan erkin foydalanishga doir normalar belgilab berilgan[1].

Fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan yana bir xalqaro asosiy normalardan biri bu 1966-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (ICESCR) hisoblanadi va O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ushbu xalqaro hujjat 1995-yil ratifikatsiya qilingan. Ushbu xalqaro hujjatda fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlariga oid asosiy bir qancha normalar o‘z aksini topgan. Bu o‘rinda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalardagi huquqlar, jumladan, mehnat qilish huquqi, dam olish huquqi, yetarli turmush darajasiga erishish va yashash sharoitini uzluksiz yaxshilab borish huquqi, ijtimoiy va boshlang‘ich bepul ta’lim olish huquqi, madaniy hayotda qatnashish va ilmiy taraqqiyot samaralaridan bahramand bo‘lish huquqi kabi bir qator huquqlarni keltirishimiz mumkin. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda ishtirok etuvchi davlatlar mazkur Paktda ko‘rib chiqilgan hamma iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlardan foydalanishda erkaklar va ayollarga teng huquq berish majburiyatini o‘z zimmasiga olishlari belgilangan. Shu qatorda, har bir insonning ishlab mablag‘ topish imkoniyatini qamrab oladigan mehnat qilish huquqini tan olish, mehnat turini har bir inson erkin holda tanlaydi yoki erkin holda rozi bo‘lishi, shu Pakt ishtirokchisi bo‘lgan davlatlar esa fuqarolarni mazkur huquq bilan ta’minlash uchun zarur choralar ko‘rishi keltirilgan.

Mehnat qilish huquqining tan olinishi borasida barcha mehnatkashlarga teng qiymatga ega mehnat uchun hech bir tafovutsiz adolatli ish haqi va teng daromad, ayni paytda, jumladan, ayollarga erkaklarnikidan kam bo‘lmagan mehnat sharoitiga kafolat berilishi hamda teng mehnat uchun teng haq to‘lanishi kerakligi, mazkur Paktning qarorlariga muvofiq ular va ularning oilalari uchun qoniqarli bo‘lgan turmush sharoitini, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beruvchi ish sharoiti, mehnat staji va malaka asosidagina ishda tegishli yanada yuqoriroq mansablarga ko‘tarilish uchun bir xil imkoniyat, dam olish, bo‘sh vaqt imkoniyatining bo‘lishi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son

va oqilona cheklangan ish vaqti hamda haq to‘lanadigan ta’til, shuningdek bayram kunlari uchun haq kabi asosiy ijtimoiy normalar keltirilgan[1].

Ushbu normalarga davlatlar tomonidan amal qilishini nazorat qilish maqsadida Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha qo‘mita tashkil etilgan bo‘lib, ushbu Qo‘mita ishtirokchi-davlatlar tomonidan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt bajarilishini nazorat qiluvchi mustaqil ekspertlar organi hisoblanadi. Qo‘mita Paktning IV qismida belgilangan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashiga (EKOSOS) yuklangan monitoring vazifalarini amalga oshirish uchun EKOSOSning 1985-yil 28-maydagi 1985/17-sonli rezolyutsiyasiga muvofiq tashkil etilgan. Barcha ishtirokchi-davlatlar Qo‘mitaga tegishli huquqlarning amalga oshirilishi to‘g‘risida muntazam ravishda hisobot berib turishlari shart. Davlatlar Paktga qo‘shilganidan keyin ikki yil ichida dastlabki hisobotni va undan keyin har besh yilda bir marta davriy hisobotni taqdim etishlari kerak. Qo‘mita har bir hisobotni o‘rganib chiqadi hamda o‘z fikr va tavsiyalarini ishtirokchi-davlatga “yakuniy tavsiyalar” shaklida taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi “1966-yil 16-dekabrdagi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktga qo‘shilish haqida”gi 126-I-sonli qaroriga asosan qo‘shilgan. 1995-yil 28-dekabrdan kuchga kirgan.

2019-yilda O‘zbekiston Respublikasi BMTning Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha qo‘mitasiga Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt qoidalariga rioya etilishi haqidagi Uchinchi davriy ma’ruzasini taqdim etdi va ushbu ma’ruza 2021-yilda ko‘rib chiqildi[2].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini himoya qilish borasida bir qancha chora-tadbirlar ishlab chiqilib, ijtimoiy huquqlarning kafolatlangan normalarini ijrosini ta’minlash uchun tegishli normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ijtimoiy huquqlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, bularga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-82-son farmonida kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy himoya tizimini joriy qilish, ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi va manzilliligini oshirish orqali aholining ko‘makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta’minlash, ijtimoiy himoyani mahalla darajasigacha tashkil etish, og‘ir hayotiy ahvolga tushib qolgan aholiga individual yondashuvga muvofiq ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish, aholining ijtimoiy sug‘urta mexanizmlari bilan qamrab olinishini kengaytirish, xavf guruhlariga tushib qolgan

[1] Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt // Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalari to‘plami. – T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2023. – B. 33–40.

[2] Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha qo‘mita 1985 // http://insonhuquqlari.uz/oz/menu/itisodij-izhtimoij-va-madanij-uular-bjicha-mita

oilalarni aniqlash va kompleks ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish orqali ularning ogʻir ijtimoiy ahvolga tushib qolishining oldini olish, nogironligi boʻlgan shaxslarning hayot kechirishi uchun qulay muhit yaratish kabi asosiy vazifalar belgilanib tegishli tartibda amalga oshirish belgilandi[1].

Ushbu farmon asosida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-dekabrdagi 687-sonli "Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Ijtimoiy himoya davlat jamgʻarmasi faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida"gi qarori qabul qilinib Jamgʻarma mablagʻlarini shakllantirish, boshqarish va ulardan foydalanishning tartib-taomillari belgilab berildi[2].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi "Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-185-sonli farmonida yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan, shuningdek, zoʻravonlikdan jabr koʻrganligi sababli oilasidan olingan bolalar (keyingi oʻrinlarda – ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar)ni muqobil joylashtirish shakllarini takomillashtirish hamda yetim va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan yoshlarning jamiyatga integratsiyasini ta'minlash maqsadida bolaning oila muhitida tarbiya topishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy himoya tizimini yoʻlga qoʻyish, oilani qoʻllab-quvvatlash va kambagʻallikdan chiqarishga koʻmaklashish orqali ijtimoiy yetimlikning oldini olish, yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni jamiyatga integratsiya qilishga qaratilgan xizmatlar koʻlamini kengaytirish, yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni ularning eng ustun manfaatlaridan kelib chiqib, muqobil shaklda joylashtirish, yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni muqobil joylashtirishning ixtisoslashtirilgan tarbiya muassasalariga joylashtirish shaklini bosqichma-bosqich noinstitutsionallashtirish, yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ularning vakilligini ta'minlashning samarali tizimini joriy etish kabi asosiy vazifalar keltirilib belgilangan tartibda amalga oshirilmoqda[3].

Shu bilan bir qatorda, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish toʻgʻrisida"gi PF-17-son farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon Oʻzbekistonda ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish, yordam mexanizmlarini adolat, shaffoflik va raqamlashtirish tamoyillari asosida qayta tashkil etish

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam koʻrsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yoʻlga qoʻyish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi PF-82-sonli farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.06.2023-y., 06/23/82/0327-son; 29.12.2023-y., 06/23/216/1008-son; 10.05.2024-y., 06/24/75/0335-son; 21.11.2024-y., 06/24/185/0944-son; 12.02.2025-y., 06/25/17/0127-son; 12.05.2025-y., 06/25/84/0432-son; 05.11.2025-y., 06/25/206/1017-son; 27.12.2025-y., 06/25/258/1223-son

[2] Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-dekabrdagi "Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Ijtimoiy himoya davlat jamgʻarmasi faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida"gi 687-sonli qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/687/0990-son; 01.03.2025-y., 09/25/125/0203-son; 19.06.2025-y., 09/25/378/0518-son; 25.12.2025-y., 09/25/817/1208-son; 07.02.2026-y., 07/26/48/0119-son; 12.02.2026-y., 09/26/48/0134-son

[3] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi "Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-185-sonli farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.11.2024-y., 06/24/185/0944-son; 24.12.2025-y., 06/25/256/1205-son; 27.12.2025-y., 06/25/258/1223-son

boʻyicha keng koʻlamli islohotlar amalga oshirish, “Kambagʻallikdan farovonlik sari” dasturi doirasidagi ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash instrumentlarini tubdan optimallashtirishni nazarda tutadi[1].

Umuman olganda xalqaro miqyosdagi fuqarolarning Ijtimoiy huquqlari borasida qabul qilingan asosiy xalqaro huquqiy normalar Oʻzbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilinib, milliy qonunchilikka impementatsiya qilinib ijtimoiy munosabatlarga tatbiq etilib borilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy tamoyillardan biri bu Oʻzbekiston Respublikasining Ijtimoiy davlat sifatida belgilab qoʻyilganligi Ijtimoiy huquqlarning yuqori oʻrinlarda e’tirof etilyotganligi va milliy qonunchilik doirasida ijtimoiy huquqlarning normativ huquqiy asoslari mustahkamlanib borilayotganligidan dalolat beradi.

Hozirgi davrda globollashuv sharoitida ijtimoiy huquqlarning muhofaza qilinishi va ushbu huquqlarga amal qilinishini davlat tomonidan nazorat qilib borilishi, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini saqlab qolishdagi asosiy huquq va majburiyatlar davlat tomonidan milliy qonunchilik doirasida kafolatlangan yoki mustahkamlangan boʻlishi zarur.

PROFESSIONAL ETHICAL PRINCIPLES OF JOURNALISTS IN COVERING GENDER-BASED VIOLENCE

Ishmuratova Sevara,
Independent Researcher of the
National Center for Human Rights
of the Republic of Uzbekistan

Coverage of gender-based violence is not a simple process for a journalist to convey information. The moment a journalist touches upon this topic, they become a witness, not a spectator. And the witness is always responsible. Every written sentence touches someone’s inner world, breaks someone’s silence, or conversely, forces them into even deeper silence.

The essence of responsibility in covering gender-based violence is that journalists feel the weight of their words. An erroneous edit about a political conflict may be rejected. And a careless sentence about violence is likely to remain a lifelong wound. Responsibility here is not the same as neutrality. On the contrary, neutrality often approaches indifference. When a journalist covering gender-based violence is limited to the “both sides” approach, they conceal the existing power imbalance. Where there is violence, there is no equality.

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PF-17-sonli farmoni // Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 12.02.2025-y., 06/25/17/0127-son; 12.05.2025-y., 06/25/84/0432-son; 05.11.2025-y., 06/25/206/1017-son; 21.11.2025-y., 06/25/222/1067-son; 27.12.2025-y., 06/25/258/1223-son

A journalist often works under the pressure of speed. However, rushing into the topic of gender-based violence does not provide an information advantage, but rather increases the likelihood of harm. Late-written but well-thought-out material on this topic can be socially more useful than early-written but superficial text[1]. Therefore, responsibility also includes the courage to give up speed. Responsibility is also manifested in the choice of language. In the same environment, the victim may feel heard or convicted again. The responsible journalist tries to anticipate this. Often, a journalist considers themselves speaking on behalf of the public. However, the public itself is not always fair on the issue of gender-based violence. Public opinion sometimes denies violence, and sometimes justifies it. At this point, journalistic responsibility manifests itself in the ability not to follow the masses, but to resist them. This is not an easy path. Not every detail is required to be disclosed to the public. Sometimes the most responsible decision is to stop at a certain place. Thus, journalistic responsibility in covering gender-based violence has clear boundaries.

When gender-based violence is being discussed, the victim's dignity is the fastest thing to be lost. In many materials, the victim seems to be at the center of the event, but in reality, he acts as a background. His body, age, clothes, marital status, and where he was at night are depicted, but his inner world is lost. In such cases, the journalist unknowingly turns the victim into an object. The principle of protecting honor and dignity begins with the cessation of objectification. The victim's honor is not limited to what happened to them. This situation could be the second blow after violence. Protection of dignity requires, first of all, careful handling of details. Not every precision is useful. Exposing every detail doesn't amplify the truth. When writing about gender-based violence, dignity can also be violated through language. Even seemingly neutral words are likely to diminish the victim. However, excessive dramatization confines the victim to tragedy. He ceases to be a human being and becomes a symbol of the event[2]. Making him speak is not always the right decision. Sometimes silence is also a form of self-defense. Journalistic significance manifests itself precisely in the perception of this subtle boundary. A journalist defending honor always thinks about how the victim might feel if they read their text.

Maintaining dignity in the context of gender-based violence protects not only the victim but the whole society. Because if society cannot respect a person who has been subjected to violence, it faces the risk of turning violence into the norm[3]. At this point, the journalist acts as a bridge between society and the victim. Therefore, protecting the honor and dignity of victims is not a secondary issue in journalism.

---

[1] Sutherland G., McCormack A., Easteal P., Holland K., Pirkis J. Media guidelines for the responsible reporting of violence against women: a review of evidence and issues // Australian Journalism Review. – 2016. – Vol. 38. – P. 5–17. https://www.researchgate.net/publication/307466813_Media_guidelines_for_the_responsible_reporting_of_violence_against_women_a_review_of_evidence_and_issues

[2] Cruz A., Klinger S. Gender-based violence in the world of work: overview and selected bibliography. – Geneva: ILO, 2011. – 80 p. // https://www.ilo.org/publications/gender-based-violence-world-work-overview-and-selected-annotated

[3] Palermo T., Bleck J., Peterman A. Tip of the Iceberg: Reporting and Gender-Based Violence in Developing Countries // American Journal of Epidemiology. – 2014. – Vol. 179, Issue 5. – P. 602–612 // https://academic.oup.com/aje/article-abstract/179/5/602/143069?redirectedFrom=PDF

The truth can be told, but without breaking a person. But in the case of gender-based violence, this very shell becomes the most dangerous place. Because here attention comes at the expense of human suffering. Sensationalism is not bad in itself. The problem is where and when it will be used. Moral norms are often recognized as an external limitation. They are like a wall that holds the journalist back. In reality, moral norms are an internal barrier. These two opposing situations create a constant conflict in the journalist's mind. Balance is often understood as "a little sensation, a little morality." But this mechanical approach doesn't work. Because morality is not measured by shares. Therefore, equilibrium is a continuous choice, not a mathematical equation.

A journalist often uses the phrase "the public should know" to justify themselves. But the need to know and the desire to see are not always the same thing. On the topic of gender-based violence, the public sometimes wants to watch, not know. The sensational approach serves this hidden desire. Moral norms, however, require resistance to this desire. This contradiction exhausts the journalist. Because the moral path is always more difficult. It gets less pressed, less applauded. A journalist may not immediately see the effect of their choice. Where sensationalism violates morality, the journalist also changes their role. He ceases to be a transmitter of information and becomes a person who stages the event. Ethical norms here do not stop the journalist, but return him to his original role.

The issue of balance is also resolved during the editing process. Often the sensation arises not by the journalist, but at the headline level. Therefore, the ethical approach is not limited to the individual journalist, but depends on the entire editorial culture. This topic can be raised loudly, but cautiously. You can ask sharp questions, but without breaking someone's spirit. Balance lives precisely on this thin line. It cannot be clearly defined, it can only be felt. Therefore, the balance between sensationalism and moral norms is not resolved by ready-made rules. This is an internal attraction that reappears in every material. If a journalist avoids this argument, they automatically lean towards sensationalism. If he remains in this dispute, asks questions, doubts, stops, this very situation indicates the existence of an ethical approach. There may not be a perfect balance in the coverage of gender-based violence. But the very pursuit of balance preserves the human dimension of journalism. The sensation will pass. And the moral trace remains.

THE FORMATION OF THE NATIONAL HUMAN RIGHTS CENTRE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN THE CONTEXT OF GLOBAL EXPERIENCE: A HISTORICAL PERSPECTIVE

Nurullayeva Madina,
Leading Specialist of the National Center for
Human Rights of the Republic of Uzbekistan

The institutionalization of human rights protection has become one of the most significant global political and legal processes of the late twentieth century. Following the end of the Cold War, the international community increasingly recognized that constitutional declarations and legislative guarantees alone were insufficient to ensure the effective realization of human rights. As a result, special institutional mechanisms were developed at the national level to promote, protect, and monitor human rights in practice.

Within this broader international context, the emergence of national human rights institutions represented a qualitative shift in approaches to state responsibility for human rights. These institutions were designed not merely as reactive bodies addressing individual violations, but as systemic mechanisms aimed at analyzing legislation, coordinating state policies, and facilitating compliance with international human rights standards. Their formation reflected the growing understanding that human rights protection required stable, professional, and institutionally autonomous structures integrated into the system of public administration.

For newly independent states, particularly those that emerged from the dissolution of the Soviet Union, the establishment of national human rights institutions became an essential element of state-building and democratic transformation. In these countries, the creation of such institutions was closely linked to the simultaneous processes of constitutional development, legal reform, and integration into the international legal order. Uzbekistan was no exception in this regard.

The establishment of the National Human Rights Centre of the Republic of Uzbekistan in 1996 should therefore be examined not only within the framework of domestic political reforms, but also as part of a global historical trend toward the institutionalization of human rights protection. From a historical perspective, the Centre's creation reflected both international normative influences and the specific conditions of the early post-independence period in Uzbekistan.

This article aims to analyze the formation of the National Human Rights Centre of Uzbekistan within the context of global experience, applying a historical-comparative approach. By examining international models of national human rights institutions and the legal and political circumstances of their emergence, the study seeks to demonstrate that the Uzbek experience was an integral part of a

wider international process that unfolded during the final decades of the twentieth century.

The origins of national human rights institutions can be traced to the post–Second World War international legal order, particularly following the adoption of the Universal Declaration of Human Rights in 1948. Although this document proclaimed fundamental rights and freedoms as universal values, the mechanisms for their implementation remained largely dependent on national legal systems. Over time, it became evident that international norms required corresponding institutional frameworks at the domestic level to ensure their effective application.

During the second half of the twentieth century, various states experimented with different institutional models designed to bridge the gap between international human rights standards and national legal practice. Early forms of such institutions included parliamentary ombudsmen, advisory commissions, and specialized human rights councils. These bodies emerged primarily in Western Europe and North America, where they functioned as intermediaries between citizens and state authorities, contributing to administrative accountability and legal oversight.

A decisive stage in the global development of national human rights institutions occurred in the late 1980s and early 1990s. This period was characterized by intensified international dialogue on democracy, rule of law, and human rights, particularly in the context of political transitions in Central and Eastern Europe, Latin America, and parts of Asia. The growing consensus was that national institutions should play an active role not only in responding to violations, but also in shaping public policy, conducting research, and promoting human rights education.

The adoption of the Vienna Declaration and Programme of Action in 1993 marked a turning point in the international recognition of national human rights institutions. The Declaration explicitly encouraged states to establish and strengthen national institutions in accordance with their constitutional systems and national circumstances. It emphasized that such institutions could contribute significantly to the promotion and protection of human rights by providing advisory support to governments, monitoring legislation, and disseminating information.

Closely linked to this development were the Principles Relating to the Status of National Institutions, commonly known as the Paris Principles. These principles articulated key criteria for the effective functioning of national human rights institutions, including a broad mandate, independence guaranteed by law, pluralism, adequate resources, and a clearly defined role within the state structure. Although not legally binding, the Paris Principles became an authoritative international benchmark for assessing national institutions.

From a historical standpoint, the global spread of national human rights institutions in the 1990s reflected a shift toward institutional governance of human rights. Rather than relying solely on courts or international monitoring bodies, states increasingly recognized the need for permanent national mechanisms capable of integrating human rights considerations into everyday governance. In this sense,

the establishment of national human rights institutions became a defining feature of post–Cold War constitutional and administrative reforms.

Against this global background, the creation of the National Human Rights Centre of Uzbekistan in 1996 appears as part of a broader international process. While shaped by national legal traditions and political priorities, the Centre's formation corresponded to widely accepted international models and principles that had emerged through decades of global experience in human rights institutionalization.

From a historical perspective, national human rights institutions (NHRIs) have developed in diverse institutional forms, reflecting differences in constitutional traditions, political systems, and administrative cultures. Despite this diversity, comparative analysis reveals several recurring models that emerged and evolved during the second half of the twentieth century.

One of the earliest institutional models was the parliamentary ombudsman, first established in Sweden in the early nineteenth century and later adopted by numerous European states after the Second World War. Historically, this model focused on protecting individuals from maladministration by public authorities. Over time, the ombudsman institution gradually expanded its mandate to include broader human rights issues, particularly in countries undergoing democratic transition.

Another influential model was the human rights commission, which emerged primarily in Commonwealth countries during the 1960s and 1970s. These commissions were typically endowed with advisory, monitoring, and educational functions rather than direct enforcement powers. From a historical standpoint, human rights commissions played an important role in translating international human rights obligations into national policy frameworks, especially in post-colonial states seeking to align domestic governance with global norms.

A third institutional type consisted of national human rights councils or centres, which combined research, coordination, and policy advisory functions. Unlike ombudsmen, these institutions were not primarily complaint-handling bodies; instead, they focused on legislative analysis, inter-agency coordination, reporting on human rights conditions, and engagement with international organizations. This model became particularly prominent during the 1990s, when states faced the challenge of institutionalizing human rights protection amid complex legal reforms.

The adoption of the Paris Principles provided a common normative framework that allowed these diverse institutional models to be assessed according to shared standards. Historically, the Principles did not impose a single institutional design but rather emphasized functional criteria, such as independence, pluralism, and a broad mandate. This flexibility enabled states to adapt international models to their specific historical and political contexts.

Comparative experience demonstrates that in many transitional states, including those in Central and Eastern Europe, the establishment of NHRIs was closely linked to broader state-building processes. These institutions often served

as intermediary structures between international human rights mechanisms and domestic legal systems. From a historical perspective, their creation reflected an attempt to institutionalize new normative values within emerging constitutional orders.

In this regard, the diversity of international models underscores that national human rights institutions are products of both global normative convergence and national historical particularities. This dual character is essential for understanding the Uzbek experience, which combined international standards with domestic priorities during the early ears of independence.

The establishment of the National Human Rights Centre of the Republic of Uzbekistan in 1996 marked a significant milestone in the country's post-independence institutional development. From a historical perspective, the creation of the Centre should be understood as part of the broader process of building a new constitutional and legal system following the dissolution of the Soviet Union.

During the early 1990s, Uzbekistan faced the dual challenge of consolidating state sovereignty and redefining the relationship between the individual and the state. The adoption of the Constitution in 1992 laid the foundational legal framework by affirming the primacy of human rights and freedoms. However, the practical implementation of these constitutional principles required specialized institutions capable of coordinating policy, analyzing legislation, and engaging with international human rights mechanisms.

The decision to establish the National Human Rights Centre was influenced by both domestic considerations and international developments. On the international level, the growing recognition of national human rights institutions following the Vienna Declaration and Programme of Action provided a conceptual and normative reference. Domestically, the need to systematize human rights activities, monitor compliance with international obligations, and promote legal awareness became increasingly evident.

By Presidential Decree of 31 October 1996, the National Human Rights Centre of Uzbekistan was formally established as a state institution. Its mandate was subsequently elaborated by a resolution of the Cabinet of Ministers, which defined its functions, organizational structure, and areas of responsibility. Historically, this institutional design reflected a model focused on analysis, coordination, and advisory functions rather than individual complaint resolution.

The Centre was entrusted with tasks such as reviewing national legislation for compliance with international human rights standards, preparing analytical reports, coordinating the activities of state bodies in the human rights field, and facilitating cooperation with international organizations. From a historical standpoint, these functions positioned the Centre as an intermediary between international human rights norms and the domestic legal system.

Importantly, the establishment of the National Human Rights Centre did not occur in isolation. It formed part of a broader institutional framework that included the Parliamentary Ombudsman and legislative monitoring bodies. This multiplicity

of institutions reflected an emerging understanding that human rights protection required a institutional approach rather than reliance on a single mechanism.

In historical terms, the creation of the National Human Rights Centre represented an early attempt to institutionalize human rights governance in Uzbekistan. While shaped by international models, the Centre's specific mandate and structure were adapted to the country's legal traditions and political realities. As such, it exemplifies how global human rights norms were localized during the formative stage of Uzbekistan's statehood.

From a comparative historical perspective, the National Human Rights Centre of the Republic of Uzbekistan occupies a distinct position within the spectrum of national human rights institutions. Unlike ombudsman offices, which primarily focus on addressing individual complaints, the Uzbek Centre was designed as an analytical and coordinating body. This institutional orientation corresponds to a model widely observed in several transitional and post-socialist states during the 1990s.

In comparative terms, similar institutions in Central and Eastern Europe and parts of Asia were established to assist governments in aligning domestic legislation with international human rights standards. These bodies often served as advisory mechanisms, providing expert assessments of draft laws, preparing national reports to international treaty bodies, and facilitating inter-agency coordination. Historically, such functions were considered essential in contexts where legal systems were undergoing rapid transformation.

The National Human Rights Centre of Uzbekistan reflects these global tendencies. Its mandate to analyze legislation, monitor compliance with international obligations, and promote human rights education parallels the functions of comparable institutions in other post-transition states. From a historical standpoint, this alignment suggests that the Uzbek model was neither isolated nor exceptional, but rather part of a broader pattern of institutional adaptation to international human rights norms.

At the same time, the Centre's role must be understood in relation to the overall architecture of human rights protection in Uzbekistan. The existence of multiple institutions-such as the Parliamentary Ombudsman and legislative monitoring bodies-indicates an institutional division of labor. Within this framework, the National Human Rights Centre functioned as a coordinating and analytical hub, rather than as a primary enforcement mechanism.

Comparative experience demonstrates that such institutional differentiation can enhance the overall effectiveness of human rights protection by preventing overlap and clarifying functional responsibilities. Historically, states that adopted multi-institutional models were better positioned to address the complex and multidimensional nature of human rights governance. In this regard, the Uzbek approach reflects a conscious effort to integrate international experience into domestic institutional design.

Thus, when viewed through a comparative lens, the National Human Rights Centre of Uzbekistan can be seen as an example of how global human rights standards were translated into a nationally adapted institutional framework during the early ears of independence.

Conclusion. The historical analysis presented in this article demonstrates that the formation of human rights protection institutions in Uzbekistan during the early ears of independence was not a spontaneous or isolated process. Rather, it represented a deliberate and structured response to both domestic state-building needs and international normative developments.

The establishment of the National Human Rights Centre of the Republic of Uzbekistan in 1996 marked a significant stage in the institutionalization of human rights governance. From a historical perspective, the Centre's creation reflected the convergence of constitutional reforms, international legal commitments, and the global spread of national human rights institutions following the adoption of the Vienna Declaration and the Paris Principles.

Comparative analysis reveals that the Uzbek experience corresponds to broader international trends observed in transitional states during the post-Cold War period. Like similar institutions elsewhere, the National Human Rights Centre was designed to perform analytical, advisory, and coordinating functions rather than to serve as a complaint-handling body. This institutional model was particularly suited to the challenges of legal transformation and normative alignment faced by newly independent states.

The study also shows that the Centre functioned as part of a wider institutional ecosystem that included parliamentary and executive mechanisms of human rights protection. Such a multi-institutional approach reflects a historical understanding that effective human rights governance requires complementary and mutually reinforcing mechanisms.

In conclusion, the National Human Rights Centre of Uzbekistan should be viewed as an integral component of the country's early efforts to embed human rights principles within its legal and administrative structures. Its establishment illustrates how international human rights concepts were adapted to national conditions, contributing to the broader process of democratic state-building in the post-independence period.

ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ НОРМАЛАРИНИНГ МИЛЛИЙ ҲУҚУҚ НОРМАЛАРИ БИЛАН ЎЗАРО НИСБАТИ

Атовуллоев Рустам,
Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси
Миллий маркази мустақил тадқиқотчиси

Бирлашган Миллатлар Ташкилоти ташкил топган пайтдан то ҳозирги кунгача БМТ инсон ҳуқуқлари тизимидаги турли муассасаларнинг фаолияти, инсон ҳуқуқлари муаммосини муҳокама қилиш ва инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро ҳужжатларнинг қабул қилиниши шуни кўрсатадики, давлатлар ва олимларнинг халқаро ва миллий ҳуқуқ ўртасидаги муносабатлар масаласидаги позициялари халқаро муносабатларнинг ривожланишига қараб ўзгариб туради.

Халқаро ва миллий ҳуқуқнинг ўзаро нисбати муаммоси ўзининг муҳимлиги билан доимо ҳуқуқшуносларнинг эътиборини ўзига жалб қилиб келган. Глобаллашув шароитида халқаро ҳуқуқ олдида бир қатор янги вазифалар пайдо бўлиб, уларни ҳал этиш давлатлар ва халқаро ташкилотлар ўртасидаги ўзаро муносабатларда янги усул ва ёндашувларни қўллашни тақозо этмоқда. Ҳозирги шароитда халқаро ҳуқуқ фақат давлатлараро муносабатларни тартибга солиш билан чекланиб қолмайди, балки миллий ҳуқуқни универсаллаштиришнинг муҳим воситасига айланади. Шунга мос равишда унинг роли ва миллий ҳуқуққа таъсири ортиб бормоқда ҳамда халқаро ва миллий ҳуқуқнинг яқинлашиш тенденциялари кузатилмоқда.

Буларнинг барчаси эса турли иқтисодий, ахборот, транспорт ва бошқа алоқаларнинг универсаллашувига олиб келмоқда. Бироқ, ушбу жараёнлар билан боғлиқ ҳолда миграция, экологик ҳалокатлар ва шу каби глобал муаммоларни ҳал қилиш зарурати юзага келмоқда. Айнан шунинг учун ҳам халқаро ва миллий ҳуқуқнинг ўзаро нисбати муаммоси халқаро ҳуқуқ назариясида марказий ўрин тутади деб айтиш мумкин.

Бугунги кунда кўпчилик олимлар халқаро ва миллий ҳуқуқнинг ўзаро муносабати масаласига оид учта асосий йўналишни ажратиб кўрсатишади. Биринчи йўналиш кейинчалик яхлит концепцияга айланган дуалистик ёндашув ғоясига тааллуқлидир. Ушбу концепциянинг асосида бир-бирини ўзаро тўлдирадиган халқаро ва миллий ҳуқуқий тизимларнинг ўзаро боғлиқлиги ғояси ётади. Дуалистик ёндашувнинг моҳияти шундаки, халқаро ва миллий ҳуқуқ бир-биридан фарқ қилади, улар ўзига хос хусусиятларга ва амал қилиш доирасига эга. 1899 йилда таниқли немис олими Х. Трипель "Халқаро ва ички давлат ҳуқуқи" номли монографиясини нашр этди, унда у дуализм назариясини баён қилди. Трипел шундай деб ёзган эди: "Халқаро ва ички давлат ҳуқуқи нафақат ҳуқуқнинг турли соҳалари, балки турли ҳуқуқий тизимлардир ҳам. Бу икки доира бир-бирига жуда яқин туради, аммо ҳеч қачон кесишмайди"[1].

[1] Мюллерсон Р.А. Соотношение международного и национального права. – М., 1982. – 136 с.

Иккинчи йўналиш монистик концепцияга тааллуқли бўлиб, унинг моҳияти иккала ҳуқуқий тизимни яхлит тизим сифатида тан олишдан иборат. Бунда халқаро ҳуқуқ миллий ҳуқуқ билан биргаликда ягона ҳуқуқ тизимни ташкил этади ва унинг ажралмас қисми ҳисобланади. Ушбу концепция асосчилари ўртасидаги асосий келишмовчилик масаласи қайси ҳуқуқий тизимнинг устунлиги масаласидир. А.Зорн ва А. Лассон каби немис олимлари миллий ҳуқуқ халқаро ҳуқуқдан устун туради, деган нуқтаи назарни илгари сурган бўлса, австриялик Г.Кельзен халқаро ҳуқуқнинг миллий ҳуқуқдан устуворлиги концепциясини асослаб берган. Шу тариқа, монистик концепциянинг ўзи икки қисмга бўлиниб кетган. Шундай бўлса-да, бугунги кунда кўплаб олимлар ёки давлатлар халқаро ҳуқуқнинг миллий ҳуқуққа нисбатан устуворлигини эътироф этишади.

Халқаро ҳуқуқнинг устунлиги, аксарият давлатларнинг конституцияларида, хусусан, Ўзбекистон Республикасининг Конституциясида ҳам мустаҳкамланган[1]. Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Конституциясининг 15-моддасида Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари халқаро ҳуқуқнинг умумэътироф этилган принцип ва нормалари билан бир қаторда Ўзбекистон Республикаси ҳуқуқий тизимининг таркибий қисми эканлиги, шунингдек, агар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномасида Ўзбекистон Республикасининг қонунида назарда тутилганидан бошқача қоидалар белгиланган бўлса, Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаси қоидалари қўлланилиши белгиланган[2]. Ушбу норма Ўзбекистонда халқаро ҳуқуқ нормаларининг миллий ҳуқуққа нисбатан устуворлигини англатади. Бироқ, мазкур устуворлик, фақат Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларига нисбатан тааллуқлидир. Яъни Ўзбекистон қўшилмаган, ратификация қилмаган халқаро шартномалар нормалари миллий қонунчиликка нисбатан устувор бўлмайди.

Бироқ, ушбу норма Ўзбекистон қонунчилигида нисбатан янги бўлганлиги учун конституциявий қоидаларни қўллаш амалиёти ҳали етарли даражада ривожланмаган. Бундан ташқари, юридик фанда халқаро шартномалар нормаларининг устуворлиги Ўзбекистон Конституциясига нисбатан ҳам тааллуқли эканлиги тўлиқ аниқланмаган. Агар бу саволга ижобий жавоб берилса, Конституциянинг олий юридик кучга эгалиги принципи шубҳа остига олинади. Конституциянинг 15-моддаси 1-қисми мазмунидан келиб чиқиб, Конституция мамлакатнинг бутун ҳудудида олий юридик кучга эга, тўғридан-тўғри амал қилади ва ягона ҳуқуқий маконнинг асосини ташкил этади. Ушбу конституциявий норманинг белгиланиши Ўзбекистон Конституциясининг халқаро ҳуқуқ нормаларидан устунлиги ҳақидаги хулосага келишимизга асос бўлади.

Ушбу хулосани Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари тўғрисида”ги қонуни[3] ҳам тасдиқлайди. Чунон-

---

[1] Саидов А.Х. Халқаро ҳуқуқ: Академик дарслик. – Т.: Юридик адабиётлар публиш, 2025. – Б. 205.

[2] Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Адолат, 2023.

[3] Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 6 февралдаги “Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари тўғрисида”ги ЎРҚ-518-сонли қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон; 29.11.2023 й., 03/23/880/0905-сон

чи, мазкур Қонуннинг 2-моддасида Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари халқаро ҳуқуқнинг умум эътироф этилган принциплари ва нормаларига, Ўзбекистон Республикаси Конституциясига, шунингдек ушбу Қонунга ҳамда халқаро шартномаларнинг ўз қоидаларига мувофиқ тузилади. Ушбу норма билвосита Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари Конституцияга мувофиқ бўлиши лозимлигини белгилайди.

Қолаверса, "Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий суди тўғрисидаги" Конституциявий қонуннинг 83-моддасида Конституциявий суд ратификация қилиш тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси қонунлари Ўзбекистон Республикасининг Президенти томонидан имзолангунига қадар – Ўзбекистон Республикаси халқаро шартномаларининг Ўзбекистон Республикаси Конституциясига мувофиқлигини аниқлаш тўғрисидаги ишларни кўриб чиқиши ва Ўзбекистон Республикаси халқаро шартномаларини Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига мувофиқ ёки мувофиқ эмас деб топиш ҳақида қарор қабул қилиши мумкинлиги белгиланган. Мазкур Конституциявий қонуннинг 73-моддасига кўра Конституциявий суднинг қарорига кўра Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига мувофиқ эмас деб топилган норматив-ҳуқуқий ҳужжат ёки унинг бир қисми ўзининг амал қилишини тугатади[1].

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг Муқаддимасида унинг халқаро ҳуқуқнинг умумэътироф этилган принцип ва нормаларига асосланган ҳолда қабул қилингани ва эълон қилингани белгиланган. Бундан ташқари, Ўзбекистон Халқаро шартномалар ҳуқуқи тўғрисидаги Вена конвенциясига қўшилган бўлиб, унинг 27-моддасида Иштирокчининг шартномани бажармаганлигини оқлаш учун ўзининг ички қонунчилик қоидаларига ҳавола қилиши мумкин эмаслиги[2] белгиланган. А.Саидов таъкидлаганидек, халқаро ҳуқуқ субъектлари принцип нуқтаи назаридан олганда, халқаро мажбуриятларга риоя қилмаганликларини оқлаш учун ўз қонунчилигига ҳавола қилишлари мумкин эмас. Давлатлар ўз зиммаларига олган мажбуриятларини сидқидилдан бажаришлари зарур[3].

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг "Одил судловни амалга оширишда Ўзбекистон Республикаси Конституцияси нормаларини тўғридан-тўғри қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида"ги қарори 2-бандида Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари халқаро ҳуқуқнинг умумэътироф этилган принцип ва нормалари (Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси, Фуқаровий ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги ҳамда Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактлар ва бошқалар) билан бир қаторда Ўзбекистон Республикаси ҳуқуқий тизимининг таркибий

---

[1] Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 27 апрелдаги "Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий суди тўғрисидаги" ЎРҚ-687-сонли Конституциявий қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 28.04.2021 й., 03/21/687/0380-сон; 13.01.2024 й., 03/24/895/0025-сон; 02.03.2024 й., 03/24/917/0170-сон

[2] Венская конвенция о праве международных договоров (1969 год 23 май) // https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/law_treaties.shtml

[3] Саидов А.Х. Халқаро ҳуқуқ: Академик дарслик. – Т.: Юридик адабиётлар публиш, 2025. – Б. 206.

қисми эканлиги белгиланган[1]. Эътиборлиси, Олий суд Пленуми қарорида халқаро ҳуқуқнинг умумэътироф этилган принцип ва нормалари сифатида Инсон ҳуқуқлари бўйича билл ва бошқалар эътироф этилмоқда. Ушбу нормадан халқаро ҳуқуқнинг умумэътироф этилган принцип ва нормалари сифатида фақат инсон ҳуқуқлари бўйича нормалар тушунилиши келиб чиқади ҳамда бу нисбатан нотўғри талқин бўлиб, алоҳида муҳокамаларни тақозо этади.

Юқорида таъкидланганларнинг барчаси Ўзбекистон ҳуқуқий тизимининг монистик концепцияга тааллуқлилигини тушунишга сабаб бўлади. Бироқ, Конституциянинг 15-моддасида белгиланган қоидаларга қарамасдан, бугунги кунда миллий қонунчиликда халқаро ҳуқуқ нормаларининг судлар ёки бошқа давлат органлари томонидан қўлланилишини тартибга солувчи, белгилаб берувчи нормалар йўқ. Бу борада суд амалиёти етарли эмас. Судлар томонидан бевосита халқаро ҳуқуқ нормаларига ҳавола қилишга фақат ушбу нормалар миллий қонунчиликка имплементация қилингандан кейин йўл қўйилади.

Ўзбекистон Конституциясида инсон ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро ҳуқуқ нормаларининг устуворлиги эълон қилинганига қарамай, халқаро шартномаларда белгиланган мажбуриятларнинг амалда самарали бажарилиши ва халқаро ҳуқуқ нормаларининг судлар томонидан қўлланилиши кўпрок уларнинг миллий ҳуқуқ тизимига имплементация қилиниш тартибига боғлик бўлиб қолмоқда. Шу муносабат билан, баъзи олимлар, жумладан, Ў.Очилов мамлакатнинг халқаро ҳуқуққа муносабатини “ярим монизм, ярим дуализм” концепциясига яқин деб баҳолайди[2].

Халқаро ҳуқуқ нормаларининг амалий аҳамияти миллий қонунчиликдаги бўшлиқларни тўлдиришда ҳам яққол кўзга ташланади. Уларнинг мазмун-моҳияти миллий ҳуқуқ орқали ифодаланиб, давлатнинг шартномавий мажбуриятлари ва қонун ижодкорлиги жараёнида ўз ижросини топади. Демак, ушбу икки тизим муносабатларининг бош омили – нормаларнинг бир-бирига шунчаки таъсири эмас, балки бир ҳуқуқ тизими нормаларининг иккинчи бир ҳуқуқ тизими воситасида самарали амалга оширилишидир. Бунда миллий ҳуқуқ халқаро нормаларни ҳаётга татбиқ этишнинг асосий кафолати ва механизми бўлиб хизмат қилади.

Хулоса қилиб айтганда, халқаро ҳуқуқ нормалари ва миллий ҳуқуқ нормаларининг ўзаро нисбати масаласи халқаро ҳуқуқ доктринасида ҳал этилиши мураккаб бўлган энг муҳим масалалардан бири эканлиги бежиз эмас. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 15-моддаси ва халқаро шартномалар устуворлиги принципининг тан олиниши мамлакатнинг демократик ҳуқуқий давлат сари интилишини тасдиқлайди.

Инсон ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро стандартларни изчил имплементация қилиш орқали миллий ҳуқуқий тизим янада такомиллашади. Бу жараён-

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2023 йил 23 июндаги “Одил судловни амалга оширишда Ўзбекистон Республикаси Конституцияси нормаларини тўғридан-тўғри қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида”ги 16-сон қарори // https://lex.uz/docs/6523654

[2] Очилов Ў.С. Конституция ва инсон ҳуқуқлари соҳасидаги ҳалқаро ҳуқуқ нормаларини қўллаш меҳанизмини такомиллаштириш масалалари // Demokratlashtirish va inson huquqlari. – 2025. – 4-сон. – Б. 10.

да халқаро ҳуқуқ миллий қонунчиликни универсаллаштириш ва инсон шаъни ҳамда қадр-қимматини олий қадрият даражасига кўтаришнинг асосий механизми бўлиб қолмоқда. Миллий ҳуқуқ ва халқаро ҳуқуқ унда тинчлик ва хавфсизликни сақлаш, инсон манфаатларининг устуворлиги, давлатларнинг тенг ҳуқуқли ҳамкорлиги каби муҳим масалаларда бир бутунликни касб этиши билан муҳим аҳамият касб этади.

ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ ЖУРНАЛИСТИКАСИ: ПУБЛИЦИСТИК МАҚОЛАЛАР ТАҲРИРИ ТАМОЙИЛЛАРИ

Рамазонов Азизбек,
Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази мустақил тадқиқотчиси

Мамлакатимизда инсонпарвар ва демократик ҳуқуқий давлат – Янги Ўзбекистонни барпо этишга қаратилган кенг қамровли ислоҳотлар бугунги кунда “Ўзбекистон – 2030” стратегияси асосида изчил давом эттирилмоқда. Ислоҳотлар марказида, энг аввало, инсон қадрини юксалтириш, аҳолининг турмуш фаровонлигини ошириш каби олий мақсадлар мужассам.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек: “Биз Ўзбекистонда олиб борилаётган давлат сиёсатининг марказида инсон ва унинг манфаатларини таъминлашни устувор вазифа этиб белгиладик. Бу сиёсат бир йил билан чекланиб қолмаслиги, доимо бардавом бўлиши барчамизга аён. Шу юртда яшаётган ҳар бир инсоннинг тинч ва бахтли ҳаёт кечириши, унинг соғлиғи жойида бўлиши, яхши таълим олиши, оиласини тебратиши учун қандай шароит керак бўлса, ҳаммасини яратиб беришга ҳаракат қиляпмиз ва бу йўлдан асло тўхтамаймиз”[1].

Бугунги демократик ислоҳотлар даврида оммавий ахборот воситаларининг ҳам жамиятимиз ҳаётида тутган ўрни янада муҳим аҳамият касб этмоқда. Амалга оширилаётган ислоҳотлар тажрибаси шуни очиқ-ойдин кўрсатмоқдаки, оммавий ахборот воситаларининг эркин ва мустақил фаолиятини таъминламай туриб, том маънодаги демократик ўзгаришларга эришиш мумкин эмас. Жамиятнинг нафақат сиёсий, балки ижтимоий ва иқтисодий ҳаётидаги ислоҳотларнинг муваффақиятида ҳам оммавий ахборот воситаларининг аҳамияти беқиёсдир.

Президентимиз Ш.М. Мирзиёев шундай таъкидлайдилар: “Эл-юртимизнинг эзгу орзу-истакларини рўёбга чиқариш, бу йўлда ғов бўлиб турган турли тўсиқларни, бюрократизм, лоқайдлик, таъмагирлик, коррупция каби салбий

[1] *Қаранг:* Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси // https://president.uz/uz/lists/view/5774

иллатларни дадиллик билан кўтариб чиқиб, уларга қарши муросасиз жамоатчилик фикрини шакллантиришни ўз касби, ўз ҳаётининг маъно-мазмуни деб биладиган журналистларни мен ҳақиқий журналист деб ҳисоблайман.

Албатта, барчамиз яхши тушунамиз, бунинг учун оммавий ахборот воситалари вакилларидан нафақат профессионал билим ва малака, ҳаётий тажриба, ўз сўзи учун масъулият ҳисси, айни вақтда юксак фуқаролик позицияси, маънавий жасорат ҳам талаб этилади"[1].

Мамлакатимиз сиёсатининг оммавий ахборот воситалари фаолиятини эркинлаштириш, жамият ҳаётидаги муаммоларни ҳал этишда уларнинг ўрни ва аҳамиятини ошириш тамойиллари Президентимиз Ш.М. Мирзиёевнинг 2022 йил 28 январда имзолаган "2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги[2] фармонида ҳам акс этган. Ушбу Фармон асосида қабул қилинган Тараққиёт стратегиясининг 12-мақсади таъсирчан жамоатчилик назоратини амалга оширишнинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштиришга қаратилган бўлиб, бунга эришиш учун "оммавий ахборот воситаларининг роли ва журналистларнинг касбий фаолияти ҳимоясини янада кучайтириш, одамларни қийнаётган муаммолар ҳамда ислоҳотларнинг ижроси аҳволини ўрганишда уларнинг меҳнатидан самарали фойдаланиш" вазифаси ҳам белгиланган.

Демак, мамлакатимизда кучли фуқаролик жамиятини шакллантириш ва таъсирчан жамоатчилик назоратини амалга ошириш юртимизда инсон ҳуқуқлари журналистикасини ривожлантириш билан узвий алоқадор.

Инсон ҳуқуқлари журналистикаси деганда инсон ҳуқуқлари билан боғлиқ муносабатлар ва ҳодисаларни ёритувчи, жамиятда инсон ҳуқуқлари таъминланишига эришиш, аҳолининг ҳуқуқий маданиятини ошириш каби мақсадларга хизмат қилувчи журналистика йўналиши тушунилади.

Инсон ҳуқуқлари журналистикаси журналистика ҳамда инсон ҳуқуқлари соҳаларининг ўзаро алоқадорлиги натижасида шаклланган бўлиб, ушбу соҳаларнинг вобасталиги қуйидагиларда намоён бўлади:

биринчидан, журналист шахс сифатида ўзи эга бўлган ҳуқуқларни билиши, шунингдек, журналистик фаолиятда жамият аъзоларининг ҳуқуқларини бузмаслиги зарур;

иккинчидан, журналистика соҳасида инсон ҳуқуқларига амал қилиш ҳар бир журналистик материалнинг юқори профессионал даражада тайёрланишини таъминлайди, шунингдек, журналистнинг ҳуқуқий ҳимоясини кафолатлашга хизмат қилади;

учинчидан, журналистика соҳаси инсон ҳуқуқларини тарғиб этиш ва шу орқали жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтиришга ҳисса қўшади;

---

[1] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 501.

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сонли фармони // https://lex.uz/docs/5841063

тўртинчидан, журналистика соҳаси инсон ҳуқуқлари соҳасида таълимни ривожлантиришга таъсир кўрсатади;

бешинчидан, журналистика жамиятдаги инсон ҳуқуқларига оид муаммоларни ҳамда ҳуқуқбузарлик ҳолатларини ёритиш орқали жамоатчилик назоратини амалга оширади ҳамда жамиятда инсон ҳуқуқлари таъминланиши ва ҳуқуқбузарлик ҳолатлари бартараф этилишига ҳисса қўшади.

Инсон ҳуқуқлари журналистикасининг профессионал фаолият сифатида шаклланиши ва ривожланиши 1948 йил 10 декабрда Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси қабул қилиниши билан бевосита боғлиқ. Декларациянинг универсал характерга эга экани ушбу ҳужжат дунёнинг деярли барча давлатларида қабул қилиниб, давлатларнинг миллий қонунчилигига татбиқ этилишига сабаб бўлган. Натижада оммавий ахборот воситаларида инсон ҳуқуқлари мавзусига доир материаллар кўпайиб, ушбу йўналишдаги материалларни илмий асосда ўрганиш зарурати вужудга келган.

Сўнгги йилларда мамлакатимизда инсон ҳуқуқларини ёритувчи журналистларни қўллаб-қувватлашга давлат сиёсати даражасида эътибор қаратилиб, инсон ҳуқуқлари бўйича профессионал журналистларни тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини такомиллаштириш, журналистик текширувларнинг ҳуқуқий ва ташкилий асосларини ривожлантириш, инсон ҳуқуқлари соҳасида ахборот тарқатиш бўйича оммавий ахборот воситалари фаолиятини янада кучайтириш, журналистлар ва блогерларнинг ахборот олиш ҳамда тарқатишга бўлган ҳуқуқларининг кафолатларини мустаҳкамлаш Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг Миллий стратегиясида устувор йўналишлар қаторида қайд этилган.

Юртимиздаги оммавий ахборот воситаларида сўнгги йилларда инсон ҳуқуқларига оид мақолалар сони ва салмоғи ортиб бормоқда. Бу эса мазкур йўналишдаги мақолаларни таҳрир қилиш бўйича муайян амалий тамойилларни назарий асосларда ишлаб чиқиш заруратини янада оширади.

Инсон ҳуқуқлари мавзусидаги публицистик мақолалар таҳрири тамойилларини уларга хос хусусиятлар асосида ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ.

“Таҳрир” атамаси арабча “харрара” сўзидан олинган бўлиб, “қутқармоқ”, “озод қилмоқ” деган луғавий маъноларни англатади.

Филология фанлари номзоди, доцент З.Т. Тоҳировнинг қайд этишича, таҳрир деганда:

биринчидан, қўлёзмани тартибга келтириш, ишлаш, нашрга тайёрлаш;

иккинчидан, муайян ишлов берилган матннинг ўзи;

учинчидан, баён этилган фикрнинг муайян ифодаси, шакли тушунилади[1].

Таҳрир иши деганда, аввало, ижтимоий-адабий ва мафкуравий фаолият тушунилади. Бу фаолият нашриёт, матбуот, радиоэшиттириш ва телекўрсатув органлари билан боғлиқдир[2].

“Ўзбекистон миллий энциклопедияси”да келтирилган таърифга кўра, “Таҳрир – матбуотда босиш, радио, телевидениедан ўқиш, кўрсатиш ва бошқа

[1] Тоҳиров З.Т. Таҳрир мантиқи. – Т.: Ўзбекистон, 2016. – Б. 233.

[2] Ўша жойда. – Б. 3.

мақсадлар учун мўлжалланган матннинг таҳририят ходими (муҳаррир, адабий ходим ва б.) томонидан ишланиш жараёни. Шартли равишда адабий, илмий, сиёсий таҳрир фарқланади. Асарнинг мазмуни устидаги таҳрир илмий ва сиёсий таҳрир ҳисобланса, қўлёзманинг шакли (композицияси ва услуби) устидаги таҳрир адабий таҳрир ҳисобланади. Амалиётда таҳрир – ягона ижодий жараён бўлиб, муаллифнинг ўзига хос услубини саклаган ҳолда мазмун ва шаклда мукаммалликка эришиш мақсадига қаратилади. Нашрни бадиий безаш ва безак материалларини тайёрлаш жараёни бадиий таҳрир, матнни матбаада қандай териш (шрифт тури, ўлчами ва б.), қандай саҳифалаш ва бошқаларни белгилаб бериш техник таҳрир дейилади. Ноширликда китоб қўлёзмасини тайёрлашда муҳаррир бадиий ва техник муҳаррирлар билан биргаликда ижодий иш олиб боради”[1].

Мазмуний таҳрир бўйича инсон ҳуқуқлари мавзусидаги публицистик мақолалар таҳрири тамойиллари:

1-тамойил: мақолада ёритилган инсон ҳуқуқларига оид масалалар, шу жумладан воқеа-ҳодисалар ёки муаммолар ижтимоий аҳамиятга эга экани баҳоланади.

2-тамойил: мақола жамиятда қандай ижтимоий фикр шакллантириши мумкинлиги аниқланади.

3-тамойил: мақолада “айбсизлик презумпцияси”га риоя этилгани текширилади.

4-тамойил: мақолада шахсий маълумотлар дахлсизлиги сақлангани, бошқа шахслар камситилиши, дискриминацияга учраши ёки обрўсизланишига йўл қўйилмагани текширилади.

5-тамойил: мақола сарлавҳаси матнга мослиги текширилади.

6-тамойил: мақолада берилган омма учун тушунарсиз қисқартмалар кенгайтириб ёзилади, атамалар эса изоҳланади.

Шаклий таҳрир бўйича инсон ҳуқуқлари мавзусидаги публицистик мақолалар таҳрири тамойили:

агар мақолада схема, диаграмма, инфографика, жадвал каби ахборий-кўргазмавий воситалардан фойдаланилган бўлса, улар шаклан тўғри тайёрлангани ва мақолада керакли ўринда жойлаштирилгани текширилади.

Фактларни текшириш бўйича инсон ҳуқуқлари мавзусидаги публицистик мақолалар таҳрири тамойиллари:

1-тамойил: мақолада инсон ҳуқуқлари бузилишига оид муаммо ёритилган бўлса, муаммонинг ҳақиқатан мавжудлиги муаллиф томонидан тақдим этилган далиллар, агар зарурат бўлса, муҳаррирнинг суриштирув ўтказиш орқали тўплаган далиллари асосида текширилади.

2-тамойил: бирор манбадан олинган иқтибослар (масалан, олимларнинг фикрлари, қонун нормалари ва ҳк.) тўғрилиги текширилади.

3-тамойил: статистик маълумотлар тўғрилиги аниқланади.

---

[1] Ўзбекистон миллий энциклопедияси: 8-жилд // Таҳрир ҳайъати: А. Азизхўжаев, М. Аминов, Т. Даминов ва бошқ. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – Б. 317.

4-тамойил: мақолада фойдаланилган атоқли отлар (шахс ва жой номлари, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар номлари ва ҳк.) тўғри ёзилгани текширилади.

5-тамойил: муаллиф ўз фикр-мулоҳазаларини асослаш учун илгари содир бўлган воқеа-ҳодисалардан факт сифатида фойдаланган бўлса, келтирилган бу фактлар ҳам текширилади.

Грамматик таҳрир бўйича инсон ҳуқуқлари мавзусидаги публицистик мақолалар таҳрири тамойиллари:

1-тамойил: услубий хатолар тузатилади.

2-тамойил: имловий хатолар тузатилади.

3-тамойил: тиниш белгилари билан боғлиқ хатолар тузатилади.

Инсон ҳуқуқлари мавзусидаги публицистик мақолалар таҳрири тамойиллари

Хулоса қилиб айтганда, жамиятда инсон ҳуқуқлари маданиятини юксалтиришда катта аҳамият касб этувчи инсон ҳуқуқлари журналистикасининг ривожланиши учун амалий жиҳатдан долзарб бўлган янги илмий тадқиқотлар олиб борилиши зарур. Шу нуқтаи назардан, инсон ҳуқуқлари мавзусидаги публицистик мақолалар таҳрири тамойилларини ишлаб чиқишга доир тадқиқотимиз соҳа ривожига муайян даражада ҳисса қўшади. Таҳрир юқорида изоҳланган 15 тамойил асосида амалга оширилса, публицистик мақоланинг ишончли, ҳаққоний ва тушунарли бўлишига эришилади.

Шунингдек, мамлакатимизда инсон ҳуқуқлари журналистикасини ривожлантириш, унинг илмий асосларини мустаҳкамлаш, соҳага ихтисослашган журналистлар маҳоратини ошириш мақсадида:

– ўқув қўлланмалари ишлаб чиқиш;

– малака ошириш курсларини ташкил этиш;

– олий таълим муассасаларида "Инсон ҳуқуқлари журналистикаси" фанини жорий қилиш таклиф этилади.

Тадқиқот иши натижасида ишлаб чиқилган инсон ҳуқуқлари мавзусидаги публицистик мақолалар таҳрири тамойилларини оммалаштириш учун улар алоҳида босма нашр сифатида ёки электрон шаклда таҳририятларга беғараз тарқатилиши мақсадга мувофиқ.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YETIM BOLALAR VA OTA-ONA QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHGA OID MILLIY QONUNCHILIK VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARNING HUQUQIY TAHLILI

Turdibekov Ahror,
Toshkent davlat yuridik
universiteti mustaqil
izlanuvchisi

Bola huquqlarini huquqiy tartibga solish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan boshlanadi. Konstitutsiya, mamlakatning asosiy qonuni sifatida, bola huquqlari bo‘yicha huquqiy munosabatlarning konstitutsiyaviy, ya’ni fundamental asoslarini belgilaydi va bolaning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini o‘z ichiga oladi, bu esa juda muhim ahamiyatga ega.

Konstitutsiya va bola huquqlarini ta’minlashga qaratilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bola huquqlarini ta’minlovchi asosiy hujjatlar majmuini tashkil qiladi.

Tadqiqotning mazmuni O‘zbekiston Respublikasida etim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar huquqlarini himoya qilishga oid milliy qonunchilik va institutsional mexanizmlarning huquqiy tahlili va vazifalarini o‘rganishdan iborat.

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda umumlashtirish, deduksiya, tizimli yondashuv qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik va amaliyot materiallarini o‘rganish kabi usllardan foydalanildi.

Bolaning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi uning oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan huquqlari, erkinliklari, majburiyatlari va ularni amalga oshirish kafolatlaridan tashkil topgan. Bu, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44, 50, 77 va 78-moddalarida o‘z aksini topgan”[1].

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida bola huquqlari tushunchasi ilk bor “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunda ta’riflangan. Ushbu Qonundan oldin, bola tushunchasi aniqlanmagan edi. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani aks ettiradi. BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasining 1-moddasiga ko‘ra, “18 yoshga to‘lmagan har qanday inson, agar milliy qonunlarga ko‘ra u balog‘atga etmagan bo‘lsa, bola hisoblanadi”[2].

O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasida quyidagicha ta’rif berilgan: “bola – o‘n sakkiz yoshga to‘lgun-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

[2] BMT Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya // Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalari to‘plami. – T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2023. – B. 82.

ga (voyaga etgunga) qadar boʻlgan shaxs (shaxslar)”[1]. Bu ta’rifdan kelib chiqqan holda, bola tushunchasi oʻn sakkiz yoshga toʻlmagan shaxslarga qoʻllanilishini bilishimiz mumkin. Shuningdek, Qonunda yetim bola ham ta’riflangan, bu boʻyicha yetim bola deb otasi va onasi vafot etgan yoki sud qaroriga asosan vafot etgan deb topilgan bolalar tushuniladi[2].

BMTning Bola huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiyasida bolalik qaysi vaqtdan boshlanishi haqida aniq ma’lumot berilmagan va bu masala milliy qonunchilikka qoldirilgan. Milliy qonunchiligimizda bola huquqlarini ifoda etuvchi koʻplab normalar mavjud. Ushbu normalarda bola tushunchasi, yetim bola tushunchasi, ijtimoiy himoyaga muhtoj bola tushunchasi hamda vasiylik va homiylik tushunchalariga aniq ta’riflar berilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Oila kodeksining 67-moddasiga koʻra, “Bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi (ularning oʻrnini bosuvchi shaxslar), ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi”[3].

“Bola huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisida”gi qonunning 3-moddasiga koʻra, bolaning qonuniy vakillari sifatida ota-onasi, farzandlikka oluvchi shaxslar, vasiylar va homiylar tan olinadi. Biroq, Oila kodeksi va boshqa qonunlarda belgilangan hollarda, bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish vazifasi prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi. Bolaning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi Konstitutsiyada fuqaroning maqomi asosida aniqlanadi. Konstitutsiyada bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga nisbatan davlat va jamiyatning asosiy yondashuv tamoyillari belgilab qoʻyilgan. Bu, bolaning huquqiy maqomi va uning konstitutsiyaviy himoyasiga oid asosiy prinsiplarni oʻrnatadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxs va fuqaroning huquq va majburiyatlarini belgilovchi muhim tamoyillar quyidagicha mustahkamlab qoʻyilgan:

– shaxs va fuqaroning huquq va erkinliklariga xalqaro huquq me’yorlarining ustuvorligi;

– asosiy huquq va erkinliklarning birligi;

– huquq va erkinliklarning toʻgʻridan-toʻgʻri amal qilishi;

– huquq va erkinliklarni noqonuniy cheklashning taqiqlanishi;

– shaxs va fuqaroning huquq va erkinliklarining davlat tomonidan himoyalanganligi;

– barcha uchun teng huquqlilik;

– shaxsning oʻz huqiq va erkinliklaridan foydalanishi boshqalarning huquq va erkinliklariga zarar bermasligi lozim.

---

[1] Oʻzbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi “Bola huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisida”gi OʻRQ-139-sonli qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son; 15.03.2023-y., 03/23/823/0150-son; 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son; 09.09.2024-y., 03/24/957/0689-son; 21.02.2025-y., 03/25/1035/0166-son; 07.02.2026-y., 03/26/1117/0116-son

[2] Oʻsha joyda.

[3] Oʻzbekiston Respublikasining Oila kodeksi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 22.10.2021-y., 03/21/723/0983-son; 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son; 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son; 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son; 08.05.2023-y., 03/23/838/0257-son; 07.02.2024-y., 03/24/905/0106-son; 09.04.2025-y., 03/25/1053/0317-son; 20.10.2025-y., 03/25/1089/0953-son

Ushbu tamoyillar shaxs va fuqaroning huquqiy maqomini ta’minlash va ularga qat’iy e’tibor qaratishning asosiy prinsiplarini ifodalaydi[1].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan inson huquqlari, shaxsning erkinligi va o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini, uning avtonomiyasini ta’minlaydi. Konstitutsiya inson huquqlarini xalqaro standartlar va normativlarga muvofiq tartibga soladi, ijtimoiy munosabatlar va aloqalarni muvofiqlashtiradi hamda davlat faoliyatini shaxsiy erkinlikni cheklamagan holda amalga oshirishni ta’minlaydi. Shu bilan birga, Konstitutsiya davlat tuzilmalarining mutlaq hukmronligi va o‘zboshimchaligini cheklaydi, insonlar va davlat o‘rtasidagi munosabatlarning asoslarini belgilaydi va davlatning jamiyat va shaxs oldidagi mas’uliyatini aniqlaydi”[2].

Demokratik davlatlarning konstitutsiyaviy asoslarida inson huquqlari va erkinliklari juda muhim o‘rin egallaydi. Mamlakatimiz Konstitutsiyasining “Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” bo‘limining alohida ahamiyatga ega ekanligi bejiz emas. Shuningdek, Konstitutsiyaning “Asosiy prinsiplar” bo‘limida inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligini belgilovchi asosiy g‘oyalar mustahkamlangan. Ushbu prinsiplarlar jamiyatning to‘la huquqli a’zolari bo‘lgan bolalarga ham taalluqlidir, chunki ular muayyan zaif qatlami sifatida qo‘shimcha huquq va imtiyozlarga ega[3].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bola huquqlarini himoya qilishning asosiy tamoyillari belgilangan. Ushbu tamoyillarga quyidagilar kiradi:

– bola huquqlari va erkinliklarini ta’minlashda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillari va normalarining ustunligi;

– bola huquqlarining muhofaza qilinishi va himoya qilinishining davlat tomonidan ta’minlanishi;

– yetim bolalar va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarga davlat va jamiyat tomonidan g‘amxo‘rlik ko‘rsatilishi;

– bolalarni kelib chiqishi yoki ota-onasining fuqarolik holati sababli kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

– bolalarga nisbatan xayriya ishlarini amalga oshirishni rag‘batlantirish;

– ota-onalarning o‘z farzandlarini boqish va tarbiya qilish majburiyati[4].

Davlatning bolalar siyosatini belgilashda, O‘zbekiston Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt va uning Fakultativ protokollari, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya va uning Fakultativ protokollari hamda boshqa xalqaro hujjatlar kabi xalqaro huquqiy normalar asosida amalga oshiriladi.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi: Darslik / H.T.Odilqoriyev tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005. – B. 192–194.

[2] Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi va O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi / Mualliflar jamoasi: A.Saidov, F.Bakayeva, K.Arslanova va boshq. Mas’ul muharrir A.X.Saidov. – T.: O‘zbekiston, 2010. – B. 55.

[3] Mo‘minov A.R., Tillabayev M.A., Yuldasheva G. Bola huquqlari: darslik. – T.: TDYU, 2025. – B. 174.

[4] Bola huquqlari. Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / G‘. Abdumajidov tahriri ostida. – T.: TDYI, 2009. – B. 146.

Konstitutsiyada inson huquqlariga oid muhim xalqaro-huquqiy qoidalar mustahkamlangan[1].

Birinchidan, inson huquqlarini tan olish va himoya qilish davlatning majburiyati;

ikkinchidan, inson huquqlari va erkinliklari tizimi xalqaro huquqiy andozalarga mos kelishi va bu sohada xalqaro huquqning ustunligi;

uchinchidan, inson huquqlari va erkinliklari unga tug‘ilganidan boshlab taalluqli ekanligi, ya’ni tabiiy huquq g‘oyasi va nazariyasining e’tirof etilishi;

to‘rtinchidan, hammaga va har bir kimga inson huquqlari va erkinliklarining teng va barobar taalluqliligi;

beshinchidan, inson huquqlari va erkinliklari davlat idoralari faoliyatining mazmunini shakllantirishi;

oltinchidan, fuqarolarning kafolatlangan sud himoyasi bilan ta’minlanishi;

yettinchidan, inson huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslar huquqlarining buzilmasligi zaruriyati.”

Albatta, bu qoidalar inson huquqlarining ajralmas bir qismi sifatida bolalar huquqlariga taalluqli munosabatlarni ham qamrab oladi. Asosiy qonun hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, bola huquqlari bo‘yicha milliy qonunchilik va davlat siyosatining yanada rivojlanishi va takomillashuvi uchun yo‘l-yo‘riq beruvchi dastur vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda davlatimizda bola huquqlari sohasidagi munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda 15 ta kodeks, 20 dan ortiq qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20 dan ortiq farmonlari va Vazirlar Mahkamasining 100 dan ortiq qarorlari, shuningdek 70 dan ortiq idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi[2].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. Xususan:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiya to‘g‘risida”gi farmoni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori;

---

[1] Mo‘minov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. – T.: JIDU, 2010. – B. 31–32.

[2] Aloyev U. Bola huquq va qonuniy manfaatlaini himoya qilishga qaratilgan milliy qonunchilik asoslari // O’zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini boshqarishni zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish: yutuqlar va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro forumining materiallari. 2011-yil 29-30-noyabr. – T.: Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, 2011. – B. 27.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va boshqa qonunchilik hujjatlari.

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT SIYOSATIDA YOSHLARGA DOIR MASALALARNING HUQUQIY TAHLILI

Azimov Azimbek,
Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti doktoranti

Bugungi kunda davlatlar tomonidan huquq ustuvorligini ta’minlashda adolat prinsiplari hamda ijtimoiy tenglik, oshkoralik prinsiplariga asoslangan jamiyat qurishga jiddiy e’tibor berib kelinmoqda. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni izchil tartibga solish va bu munosabatni adolatli va shaffof amalga oshishi uchun huquqiy jarayonlarda yoshlarga e’tibor va ularni qo‘llab-quvvatlash orqali ulkan siljish bo‘lishiga turtki bo‘lmoqda. Jamiyatda yoshlarga davlat siyosati darajasida qaralishi, yoshlar ishlari bilan shug‘ullanuvchi bir qancha tashkilotlar tashkil etilishi, rivojlangan davlatlar tomonidan yoshlarga doir va ularning faoliyatini tartibga solishga qaratilgan harakatlar davlatning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolayotganligi bejizga emas. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, hozirda dunyoda 15 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan 1,2 milliard yoshlar mavjud, bu dunyo aholisining deyarli 20 foizini yoshlar tashkil qiladi. 2030-yil kun tartibidagi Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishishning belgilangan sanasi – 2030-yilga kelib, yoshlar soni 7 foizga, ya’ni qariyb 1,3 milliardga oshishi kutilmoqda[1]. Buning natijasida dunyoda yoshlarga oid davlat siyosatining dolzarbligi quyidagi omillar bilan asoslanadi:

Birinchidan, demografik o‘zgarishlar, ya’ni dunyo aholisi tarkibida yoshlar ulushi soni 7%ga oshadi, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda yoshlar soni tez o‘sadi.

Ikkinchidan, yoshlar sonining oshishi ayrim bir global muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, ta’lim tizimini kengaytirish zarurati, ish o‘rinlari yaratish ehtiyoji, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, yoshlarning diniy-mafkuraviy zaharlanish holatlarini oldini oilish dolzarb masalaga aylanishi kutilmoqda. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda “Yoshlar deganda, muayyan yosh xususiyatiga ko‘ra boshqalardan ajralib turadigan, ijtimoiy maqomi va ijtimoiy tizim, madaniyat, ijtimoiylashuvning faol subyekti, zamonaviy yosh chegaralari asosida aniqlanadigan ijtimoiy-demografik guruh tushunilishi” ta’kidlab o‘tilgan[2].

Hozirgi kunda O‘zbekistonda yoshlar 60 foizdan oshadi, ya’ni bu shuni anglatadiki, yoshlar siyosati O‘zbekiston taraqqiyotining muhim asoslaridan biridir. Dav-

[1] Youth // https://www.un.org/development/desa/youth

[2] Кирницкий В.В. Проблема формирования патриотических ценностей в массовом сознании российской молодежи. – Дисс. ... канд. философ. наук. – Москва, 2016. – 176 с.

latda yoshlar uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar eshigi keng ochilgan. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi[1]. Farmonga muvofiq, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida O‘zbekiston “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati negizida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi.

Qolaversa, O‘zbekiston Prezidenti tomonidan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi va ushbu Farmonning “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” IV bobining 70-maqsadida: yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish aks etgan[2]. Shuni ta’kidlash lozimki, Prezidentimiz tomonidan qabul qilinayotgan bu kabi qaror va ustuvor vazifalar yurtimizda yoshlarning keng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishiga xizmat qilmoqda. Chunki yoshlar milliy davlatchilik asoslarini yaratish jarayoniga keng jalb qilinsa, davlat va jamiyat shunchalik mustahkam bo‘ladi. Ana shundagina yangicha tafakkur zamonaviy sivilizaциуа asosida ilg‘or ong qaror topadi[3].

O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosatini” Konstitutsiyamiz misolida oladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasining 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyasi bilan amaldagi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi o‘rtasida sezilarni farqni ko‘rishimiz mumkin. Birinchi Konstitutsiyamizning faqatgina 56-moddasining birinchi qismida “yoshlar tashkiloti” jamoat birlashmasi sifatida e’tirof etilishi belgilab o‘tilgan va, o‘z navbatida, 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyamizni qolgan qismida yoshlar masalasiga alohida urg‘u berilmagan. Yoshlarga oid davlat siyosati yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning “Oilalar, bolalar va yoshlar” deb nomlangan XIV bobida keltirilgan.

Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 79-moddasida davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlashi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantirishi belgilangan[4]. Ushbu konstitutsiyaviy normaning o‘ziyoq yoshlarga keng huquq va imkoniyatlar yaratib beradi. Shuningdek, ushbu moddaning ikkinchi qismida ham yoshlarga alohida e’tibor qaratilib, davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-sonli farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son, 09.04.2022-y., 06/22/101/0288-son; 03.12.2022-y., 06/22/258/1064-son

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son; 03.01.2024-y., 06/24/221/0003-son; 28.12.2024-y., 06/24/227/1089-son; 01.03.2025-y., 06/25/27/0196-son; 20.05.2025-y., 06/25/87/0451-son; 08.08.2025-y., 06/25/126/0704-son; 17.02.2026-y., 06/26/21/0145-son

[3] Исмоилов Т.И. Ўзбекистонда уюшмаган ёшларнинг ижтимоий фаоллиги. –Т., 2021. – 606 б.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

boʻlgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilab oʻtilgan[1]. Ushbu normada yoshlarning ilmiy-ijodiy sohalarda rivojlanishi, ilmiy ishlar olib borishi, buning uchun davlat tomonidan zarur shart-sharoitlar yaratib berilishi kafolati qayd etilgan.

Shu sabab, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevralda «“Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qoʻllab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida»gi PF-37-sonli farmoni qabul qilindi[2]. Farmonda Konstitutsiyada keltirilgan konstitutsiyaviy normalar asosida yoshlarga keng huquq va imkoniyatlar yaratib berilishi nazarda tutiladi. Yoshlarning jismonan sogʻlom boʻlishi hamda axloqiy jihatdan barkamol boʻlishi uchun ham shu sohaga doir bir qator normativ-huquqiy hujjatlar amaliyotga joriy qilish asnosida yoshlarga huquq va imkoniyatlar yaratib kelinmoqda.

Bugungi kunda yoshlarga oid davlat siyosatini qay tarzda tashkil etilish mexanizmini belgilab berayotgan 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida”gi 406-sonli qonun yoshlarga oid muhim normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Ushbu Qonunning boshqa qonunlardan farqli jihati davlat siyosati darajasida e’tiborga olinganligi va ushbu muhim holatni uning oʻz nomida belgilab oʻtilgani desak yanglishmagan boʻlamiz. Qonunda yoshlarga oid davlat siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yoʻnalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi sifatida ta’kidlab oʻtilgan[3].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida soʻzlaganidek, “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson boʻlib kamolga etishi bilan bogʻliq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning oʻz salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”[4]. Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan islohotlar natijasida yoshlarga jiddiy e’tibor qaratilishi davlatning ichki funksiyalarining asosini tashkil etmoqda.

---

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qoʻllab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisidagi PF-37-son Farmoni // Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 28.12.2024-y., 06/24/227/1089-son.

[2] Oʻzbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida” OʻRQ-406-son qonuni // Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son.

[3] Oʻzbekiston Respublikasining 1991-yil 20-noyabrda 429-XII-son “Oʻzbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari toʻgʻrisida”gi qonun // Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari toʻplami, 2008-y., 52-son.

[4] Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq soʻzladi (2017-yil 20-sentyabr) // https://president.uz/oz/lists/view/1063

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН КОНСТИТУЦИЯСИ ВА КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШИШ МАСАЛАЛАРИ

Юлдашов Фарход,
Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни
муҳофаза қилиш академияси
мустақил тадқиқотчиси

Сўнгги йилларда Янги Ўзбекистонда коррупцияга қарши курашиш йўналишида муҳим ташкилий-ҳуқуқий ислоҳотлар амалга оширилди. Ўзбекистон Республикасининг янгиланган Конституцияси мамлакатда ҳуқуқ устуворлиги, давлат хизматининг шаффофлиги ва жамият олдида ҳисобдорликни таъминлашга қаратилган коррупцияга қарши миллий сиёсатнинг энг муҳим ҳуқуқий негизи ҳисобланади. Конституцияда ифода этилган демократия, очиқлик, адолат ва қонунийлик тамойиллари коррупцияга қарши курашнинг концептуал ва институционал пойдеворини белгилаб беради.

Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси давлат хизмати, очиқлик ва қонун устуворлиги каби тамойилларни мустаҳкамлайди. Муқаддимада "инсонпарвар демократик давлатни, очиқ ва адолатли жамиятни барпо этиш" назарда тутилган. Конституциянинг 2-моддасида "Давлат халқ иродасини ифода этган ҳолда унинг манфаатларига хизмат қилади" дейилади, бу давлатнинг аҳоли манфаатига хизмат қилиш ва жамият олдида масъулиятли эканини таъкидлайди. Шунингдек, 14-моддада давлатнинг фаолияти қонунийлик ва ижтимоий адолат принципларига асосланганлиги қайд этилган. Конституциянинг 15-моддаси қонун ва конституциянинг олий ҳуқуқий кучга эга эканлиги белгиланган бўлса, 16-модда эса қонун нормаларининг Конституцияга зид бўлмаслиги шарт қилади[1].

Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 4 та моддасида коррупцияга қарши курашиш соҳасига тааллуқли нормалар акс эттирилди. Жумладан, Олий Мажлис палаталари томонидан Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тўғрисидаги ҳар йилги миллий маърузани эшитиш, Сенат томонидан Президент тақдимига асосан республика коррупцияга қарши курашиш органининг раҳбарини сайлаш, шунингдек, Вазирлар Маҳкамаси томонидан ижро этувчи ҳокимият органларининг ишида очиқлик ва шаффофликни, қонунийлик ва самарадорликни таъминлаш, уларнинг фаолиятида коррупция ҳолатларига қарши курашиш чора-тадбирларни амалга ошириш.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2025 йил 5 март кунидаги Коррупцияга қарши курашиш миллий кенгаши йиғилишидаги нутқида "Ислоҳотлар йўлидаги энг катта тўсиқ ва ғов – бу коррупциядир. Буни

[1] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Адолат, 2023.

дунё тажрибаси ҳам тўлиқ тасдиқлайди. Коррупция оқибатида жаҳон иқтисодиёти йилига 3 триллион доллар зарар кўраётгани бу глобал хавф эканидан далолат. Коррупция шундай ёвуз иллатки, у халқнинг давлатга, Конституция ва қонунларга ишончига путур етказади, барқарор ривожланиш ва хавфсизлик учун жиддий таҳдидга айланади”[1], дея алоҳида таъкидлаб ўтди.

“Ўзбекистон – 2030” стратегияси мамлакатнинг узоқ муддатли барқарор тараққиётини таъминлашга қаратилган концептуал дастур бўлиб, унда инсон манфаатлари, давлат бошқаруви самарадорлиги ва қонун устуворлигини кучайтириш устувор йўналиш сифатида белгиланган. Ушбу стратегия нафақат иқтисодий ва ижтимоий соҳаларни қамраб олади, балки давлат бошқарувида шаффофлик, ҳисобдорлик ва адолат тамойилларини мустаҳкамлаш орқали коррупцияга қарши тизимли курашни ҳам назарда тутади.

Стратегиянинг 89-мақсади – “Коррупциявий омилларни бартараф этиш тизимининг самарадорлигини ошириш, жамиятда коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни шакллантириш ишларини жадал давом эттириш” — мамлакатда амалга оширилаётган ҳуқуқий ислоҳотлар тизимида фундаментал аҳамият касб этади. Бу мақсад миллий тараққиётнинг барча соҳаларида ҳалоллик, очиқлик ва қонун устуворлигини таъминлашни стратегик вазифа сифатида белгилайди.

Сўнгги йилларда коррупцияга қарши ислоҳотлар доирасида ҳуқуқий базани такомиллаштиришга катта эътибор қаратилган. 2017 йилда қабул қилинган “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонун коррупция тушунчасини аниқлаб, жиноят ва ҳуқуқбузарликлар билан мувофиқликни белгилайди. Шу билан бирга, ишни мувофиқлаштирувчи қатор Президент фармон ва қарорлари қабул қилинди: 2017 йилда Президент фармони билан ислоҳот дастури тасдиқланиб, амалга ошириш чоралари белгиланди; 2019 ва 2020 йилларда коррупция тизимини янада такомиллаштириш бўйича янги фармон қабул қилинди. 2020 йил 29 июнда Президент қарорлари билан махсус коррупцияга қарши курашувчи орган – Коррупцияга қарши курашиш агентлиги таъсис этилди.

Сўнгги йилларда коррупцияга оид жиноятлар ва қонуний жазолаш жараёни аниқ рақамлар билан акс эттирилмоқда. Хусусан, 2024 йилда мамлакат бўйича судлар томонидан 4 649 та жиноят иши бўйича жами 7 354 нафар шахс коррупцияга оид қилмишлар учун жавобгарликка тортилган ва шу фаолият оқибатида давлат манфаатларига 2,812 трлн сўм миқдорида зарар етказилганлиги маълум қилинди. Ушбу жараёнларда ишга жойлаштириш, банк кредитлари ажратиш ёки бюджет маблағларини тақсимлаш каби ишлар билан боғлиқ жиноятлар аниқланганлиги қайд этилган (масалан, ишга жойлаштириш билан боғлиқ 123 та, кредитлар билан боғлиқ 292 та, бюджет билан боғлиқ 640 та ҳолат).

[1] Коррупцияга қарши курашиш бўйича миллий кенгаш йиғилиши бўлиб ўтди (2025 йил 5 март) // https://president.uz/uz/lists/view/7924

Коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашишнинг ҳуқуқий ва институционал асослари такомиллаштирилиб, жамиятда коррупция иллатига нисбатан муросасиз муҳитни шакллантиришга қаратилган тизимли ислоҳотлар давом эттирилди. Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг "Манфаатлар тўқнашуви тўғрисида"ги қонуни қабул қилиниб, манфаатлар тўқнашувининг олдини олишнинг ҳуқуқий асослари яратилди. Агентлик томонидан 2024 йил давомида 221,3 млрд сўмлик 111 та давлат харидида манфаатлар тўқнашуви ҳолатларига йўл қўйилганлиги юзасидан вазирликларга ва идораларга 57 та тақдимнома, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга 54 та сўров киритилиб, 75 та ҳолатда жами 33,6 млрд сўмлик харидларнинг бекор қилиниши таъминланди.

Давлат харидлари махсус ахборот порталида товарлар (ишлар, хизматлар) нархларининг жамоатчилик учун шаффофлиги таъминланди, давлат органлари ва ташкилотларида очиқликни таъминлаш бўйича масофавий мониторинг қилиш тартиби, давлат харидларида Ягона етказиб берувчилар реестрига киритиш бўйича давлат хизматларини кўрсатишнинг маъмурий регламенти тасдиқланди, давлат органлари ва ташкилотларининг очиқликка масъул ходимларини ўқитишга мўлжалланган "E-learning" таълим платформаси (data.anticorrution.uz) ишга туширилди.

Давлат органлари ва ташкилотларининг инсон ресурсларини бошқаришга оид фаолиятини рақамлаштириш ахборот тизими (hrm.argos.uz) йўлга қўйилди. Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали орқали аҳолига кўрсатиладиган хизматлари сони 710 тадан ошган. Жумладан, пенсия тайинлаш учун ариза бериш, тиббий маълумотнома олиш, кам таъминланган оилаларга болалар нафақаси ва моддий ёрдам тайинланиши учун ариза бериш, нафақа тайинлаш, меҳмонхона қуриш учун субсидия олиш, талабалар учун таълим кредити олиш, давлат умумий ўрта таълим ташкилотлари педагог кадрларга сертификатлар бериш ва бошқа хизматларнинг электрон шаклга ўтказилиши бюрократияни ва коррупция омилларини камайтиришга хизмат қилмоқда.

Аҳолининг ва давлат хизматчиларининг коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги билимини узлуксиз ошириб бориш мақсадида "Коррупцияга қарши курашиш виртуал академияси" электрон платформаси ишга туширилди. Давлат органлари мансабдор шахсларининг судлар томонидан ҳақиқий эмас деб топилган қонунга хилоф қарорлари тўғрисида жамоатчиликни хабардор қилиш тизими яратилиб, Ўзбекистон Республикаси Олий судининг расмий веб-саҳифасида давлат органларининг ва улар мансабдор шахсларининг қонунга хилоф қарорларини ҳақиқий эмас деб топиш ҳақидаги суд қарорларини очиқ эълон қилиб бориш тартиби йўлга қўйилди.

Коррупцияга қарши курашиш борасида амалга оширилган ижобий ишлар билан бир қаторда ушбу соҳада тўлиқ фойдаланилмаётган имкониятлар ва эътибор қаратилиши лозим бўлган масалалар ҳам мавжуд. Манфаатлар тўқнашуви, давлат харидлари, давлат органларининг очиқлиги ҳамда бюджет маб-

лағларидан самарали фойдаланиш бўйича коррупциявий ҳуқуқбузарликларнинг содир этилишига имкон бераётган шарт-шароитлар тўлиқ бартараф этилмаяпти.

“Норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг ва улар лойиҳаларининг коррупцияга қарши экспертизаси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг қонунида белгиланган талаблар бажарилмай қолмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тўғрисидаги миллий маърузада вазирликлар ва идораларнинг 2 350 та норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси коррупцияга қарши экспертизадан ўтказилиб, уларнинг 222 тасида, яъни 11 фоизида коррупцияни келтириб чиқарувчи омиллар аниқланган.

Коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги айрим рейтинг индексларида Ўзбекистоннинг ўрни ўтган йилга нисбатан пасайган, “World Justice Project” ташкилотининг Ҳуқуқ устуворлиги индексида (Rule of law) Ўзбекистон рейтинги 142 та давлат орасида 49 балл тўплаб, 83 ўринни эгаллаган ва ўтган йилга нисбатан 5 поғонага пасайган. Коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлигини рейтинг баҳолаш натижаларига кўра, баҳолашдан ўтказилган 102 та давлат ташкилотидан 8 тасининг фаолияти “қониқарсиз” деб баҳоланган[1].

Давлат органлари ва ташкилотларининг коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлигини рейтинг баҳолаш ҳамда давлат органлари ва ташкилотларида очиқлик бўйича амалга оширилаётган ишларнинг самарадорлигини баҳолашга қаратилган Очиқлик индекси жорий этилди. Шунингдек коррупциявий хавф-хатарларнинг олдини олиш бўйича “E-Antikorrupsiya” лойиҳаси ишга туширилди. Ижтимоий соҳада “Электрон меҳнат дафтарчаси”, “Электрон соғлиқни сақлаш” тизими, “Олий таълим жараёнини бошқариш ахборот тизими” (HEMIS), умумтаълим мактабларида “Электрон кундалик” тизими, нафақалар ва моддий ёрдам маблағларини ажратишда шаффофликни таъминлаш имконини берувчи “Ижтимоий ҳимоя ягона реестри” тизими ва бошқа ахборот тизимлари коррупция хавф-хатарларини камайтиришга самарали хизмат қилмоқда.

Шунингдек давлат органлари ва ташкилотларида очиқлик бўйича амалга оширилаётган ишларнинг самарадорлиги ва натижадорлигини баҳолашга қаратилган Очиқлик индекси натижасига кўра, 2024 йил якуни бўйича баҳолашдан ўтказилган 98 та давлат органи ва ташкилотидан 13 тасининг фаолияти “қизил” тоифада баҳоланган.

Коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги ишларнинг самарадорлигини ошириш, халқаро мажбуриятлар ва миллий қонунчиликда белгиланган вазифаларни амалга оширишнинг қуйидаги устувор йўналишлари ҳисобланади:

биринчидан, давлат органлари ва ташкилотларининг коррупцияга қарши ички назорат тизими (“комплаенс назорат”) фаолиятини мувофиқлаштириш ва услубий жиҳатдан таъминлаш, улар ходимларини стажировка ва аттеста-

[1] Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида миллий маъруза (2024 йил) // https://anticorruption.uz/uz/ozbekiston-respublikasida-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-togrisida-milliy-maruza

циядан ўтказиш ҳамда уларнинг малакасини ошириш чораларини янада кучайтириш;

иккинчидан, йирик инвестиция лойиҳаларида коррупцияга қарши халқаро стандартларни жорий этиш ҳамда аукцион шартларини рақобатбардошлик экспертизасидан ўтказиш тартиби ва механизмларининг ҳуқуқий асосларини яратиш;

учинчидан, коррупцияга қарши курашиш соҳасида фуқаролик жамияти институтларининг иштирокини янада кенгайтириш ва илмий тадқиқотларни қўллаб-қувватлаш чораларини кучайтириш;

тўртинчидан, адлия органлари билан ҳамкорликда вазирликлар ва идоралар томонидан ўз фаолият соҳаларини тартибга соладиган амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг коррупцияга қарши экспертизасининг ўтказилиш ҳолатини мониторинг қилиб, "Норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг ва улар лойиҳаларининг коррупцияга қарши экспертизаси тўғрисида"ги қонуннинг ижросини таъминлаш бўйича чораларни амалга ошириш;

бешинчидан, Ўзбекистонда коррупцияга қарши курашиш бўйича миллий стратегияни қабул қилиш ишларини якунига етказиш чораларини кўриш.

Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тўғрисидаги миллий маърузани Олий Мажлис палаталари томонидан эшитилишига оид норманинг Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Конституциясига киритилиши унинг амалий аҳамиятини янада оширди. Лекин, амалдаги қонунчиликда Миллий маърузани Олий Мажлис палаталарига киритишнинг аниқ муддати белгиланмаганлиги сабабли, Миллий маърузанинг Олий Мажлис палаталарига кеч киритилиши, долзарб масалаларнинг ўз вақтида ҳал қилинмасдан қолиши каби муаммоларни юзага келтирмоқда.

Шу муносабат билан "Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг Регламенти тўғрисида"ги, "Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг Регламенти тўғрисида"ги, "Парламент назорати тўғрисида"ги ҳамда "Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида"ги қонунларга Коррупцияга қарши курашиш агентлиги томонидан тайёрланган Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тўғрисидаги миллий маърузани Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис палаталарига тақдим этиш муддатини белгилашни назарда тутувчи қўшимчалар киритиш мақсадга мувофиқ.

Шунингдек, Коррупцияга қарши курашиш агентлигига қўшимча ваколатлар юклатиш, хусусан, давлат органлари ва ташкилотларининг коррупциявий хавф-хатар даражаси юқори бўлган вазифа ва функцияларини рақамлаштириш бўйича таклифлар ва минимал талабларни ишлаб чиқиш, коррупцияга қарши ички назорат бўлинмаларининг ўз зиммасига юклатилган вазифалар ва функцияларни амалга оширишга оид фаолияти Агентлик томонидан мувофиқлаштирилиши каби вазифалар билан таъминлаш зарур.

Ушбу таклифларни киритилиши мамлакатимизда коррупцияга қарши курашиш борасидаги долзарб масалларнинг Олий Мажлис палаталари томонидан ўз вақтида кўриб чиқилиши ҳамда коррупцияга қарши курашувчи органларнинг бу борадаги масъулиятини янада оширишга хизмат қилади.

ОДАМ САВДОСИДАН ЖАБРЛАНГАН ШАХСЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИ: ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР ВА МИЛЛИЙ АМАЛИЁТ

Чибилова Моҳирахон,
Инсон ҳуқуқлари бўйича
Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази
мустақил тадқиқотчиси

Ўзбекистон томонидан БМТнинг Трансмиллий уюшган жиноятчиликка қарши кураш тўғрисидаги конвенцияси (2003 йил 30 август), шунингдек Трансмиллий уюшган жиноятчиликка қарши конвенциясини тўлдирувчи Одам савдосининг, айниқса, аёллар ва болалар савдосининг олдини олиш ҳамда унга чек қўйиш ва унинг учун жазолаш ҳақидаги протоколи (2008 йил 8 июль) ратификация қилинган. Мазкур ҳужжат одам савдосига қарши курашишнинг умумэътироф этилган ягона ҳуқуқий инструменти ҳисобланади.

Ушбу универсал халқаро ҳужжат "Палермо протоколи" номи билан машҳур. Бугунги кунда Протоколни 185 та давлат ратификация қилган бўлиб, ушбу ҳужжатда илк бор "одам савдоси" тушунчасига кенг таъриф берилган. Ҳужжат уни имзолаган мамлакатлар зиммасига одам савдосига қарши курашиш, айбдорларни жазолаш ва қурбонларни ҳимоя қилиш каби мажбуриятларни юклайди.

2024 йилда БМТнинг Гиёҳвандлик ва жиноятчилик бўйича бошқармаси томонидан 2024 йилги Одам савдоси бўйича Глобал ҳисоботини эълон қилди, унда 7 та асосий хулосалар, жумладан, аниқланган одам савдоси қурбонлари ва одам савдоси билан шуғулланувчилар сонининг кўпайиши, COVID-19 пандемияси даврида кузатилган ҳар икки кўрсаткичнинг глобал пасайишига барҳам берилди. Шунингдек, дунё миқёсида одам савдосининг аниқланган қурбонлари орасида болалар сони, хусусан, жинсий эксплуатация учун сотилган қизлар сони 31 фоизга ошган. Дунёнинг аксарият минтақаларида мажбурий меҳнат учун одам савдоси ҳолатлари тобора кўпайиб бормоқда, бу дунё бўйлаб аниқланган одам савдоси қурбонлари умумий сонининг 42 фоизини ташкил қилади.

Одам савдосининг янги шакллари пайдо бўлди, жумладан, онлайн фирибгарлик қилиш учун қўнғироқ марказларида эксплуатация қилиш учун ёллаш. Ҳисоботга кўра, мажбурий жиноятлар учун одам савдоси бутун дунё бўйлаб аниқланган одам савдоси қурбонлари умумий сонининг 8 фоизини ташкил қилади.

2010 йил 30 июлда БМТнинг Бош Ассамблеяси 64/293-сонли резолюцияси билан Одам савдосига қарши курашиш бўйича БМТнинг Глобал ҳаракат дастури қабул қилинган[1]. Мазкур Ҳаракатлар дастурида ушбу жиноятнинг олди-

[1] Birlashgan Millatlar Tashkilotning Odam savdosiga qarshi kurash bo'yicha Global harakatlar rejasi / Mas'ul muharrir A. X. Saidov. – T.: IHMM, 2025. – 114 b.

ни олиш, жабрдийдаларнинг ҳимояси, жиноятчиларни таъқиб этиш ва барча йўналишларда ҳамкорликни мустаҳкамлаш бўйича чора-тадбирлар кўзда тутилган.

БМТнинг Бош Ассамблеяси ўзининг 79-сессиясида мавжуд халқаро мажбуриятларни амалга ошириш бўйича саъй-ҳаракатларни фаоллаштириш ва юзага келаётган чақириқ ва имкониятларга жавоб бериш бўйича аниқ чоралар кўриш мақсадида Келажак саммитини чақирди. Саммит якунлари бўйича Бош Ассамблея 2024 йил 22 сентябрдаги 79/1-сонли резолюциясида Келажак учун пактни қабул қилди[1]. Пактда аъзо-давлатлар, жумладан, технологиялардан фойдаланиш натижасида келиб чиқадиган гендерга хос хавф ва муаммоларни ҳал қилиш, жумладан, одам савдоси ҳамда одамлар, айниқса, аёллар ва болалар савдосига чек қўйиш ва болалар меҳнатининг барча шаклларини ёки қилиш учун зудлик билан ва самарали чоралар кўриш бўйича халқаро, минтақавий ва миллий саъй-ҳаракатларни кучайтириш мажбуриятини олдилар.

2024 йил декабрь ойида Бош Ассамблея Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Кибержиноятларга қарши конвенциясини қабул қилди, унда биринчи марта онлайн болалар жинсий зўравонлик материалларининг халқаро таърифи берилган. Конвенцияда ахборот-коммуникация тизимлари, жумладан, одам савдоси орқали содир этилиши мумкин бўлган кенг кўламли жиноятларга оид электрон далилларни ўз вақтида ҳамда қонуний равишда тўплаш ва алмашишни таъминлашда халқаро ҳамкорликнинг самарали воситасига айланиши мумкин.

Одам савдоси кўпинча ноқонуний тарзда чет мамлакатларга бориб меҳнат фаолияти билан шуғулланиш туфайли юзага келмоқда. Нолегал меҳнат миграцияси натижасида давлат чегарасини ноқонуний кесиб ўтиш, божхона ва солиқ қонунчилигини қўпол тарзда бузиш каби нохуш ҳолатлар юз бермоқда.

Ривожланган давлатлар ҳам одам савдоси жиноятлари билан мунтазам равишда курашиб келмоқда. Масалан, 2013 йилнинг январь ойида Францияда одам савдосидан жабрланганларни янада кўпроқ ҳимоя қилиш мақсадида Аёлларни зўрлик ва одам савдосидан ҳимоя қилиш бўйича идоралараро миссияси (MIPROF) ташкил этилди. 2014 йилга келиб Францияда Одам савдосига қарши курашишга қаратилган Миллий ҳаракат стратегияси қабул қилинди. Ушбу Стратегия учта устувор йўналишни қамраб олди. Яъни одам савдосидан жабрланганларни ҳимоя қилиш, одам савдоси тармоқларини зарарсизлантириш, одам савдосига қарши курашиш бўйича ҳукумат сиёсатини қабул қилиш.

2008 йилда Франция Европа кенгашининг Одам савдосига қарши курашиш тўғрисидаги конвенциясини ратификация қилди. Европа кенгашининг ушбу ҳужжатнинг ижросини кузатиб борувчи махсус орган Одам савдосига қарши курашиш бўйича экспертлар гуруҳи (GRETA) фаолият юритади. Франция ушбу гуруҳ билан конструктив мулоқот қилувчи давлатлар қаторига киради.

[1] Резолюция, принятая Генеральной Ассамблеей 22 сентября 2024 года 79/1. Пакт во имя будущего // https://docs.un.org/ru/A/RES/79/1

Янги Ўзбекистонда одам савдоси ва мажбурий меҳнатга қарши кураш соҳасида давлат органлари фаолиятини мувофиқлаштириш тизимини тубдан янгилаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 июлда “Одам савдосига ва мажбурий меҳнатга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармони қабул қилинган. Фармонга асосан Одам савдосига ва мажбурий меҳнатга қарши курашиш Миллий комиссияси (кейинчалик Одам савдосига қарши курашиш ва муносиб меҳнат масалалари бўйича миллий комиссия) ташкил қилиниб, унинг таркибида Одам савдосига қарши курашиш кичик ҳамда жойларда ҳудудий комиссиялар ташкил этилиб, уларнинг фаолияти учун барча ҳуқуқий асослар яратилди.

Одам савдосига қарши курашиш ва муносиб меҳнат масалалари бўйича миллий маърузачи ташкил этилиб, унга одам савдосига қарши курашиш ва муносиб меҳнат тамойилларини жорий этиш бўйича мамлакатимиздаги ҳамда мазкур йўналишда хорижий давлатлардаги Ўзбекистон Республикаси фуқаролари билан боғлиқ вазиятлар тўғрисида, ушбу соҳада илғор халқаро тажрибани татбиқ этиш, мавжуд муаммоларни ҳал этиш бўйича амалга оширилаётган чора-тадбирлар ҳақида Ўзбекистон Республикаси Президентига ҳар йили ахборот тақдим этиш, шунингдек улар тўғрисида жамоатчиликни ва халқаро ҳамжамиятни хабардор этиш мақсадида оммавий ахборот воситалари учун брифинглар ташкил этиш, Ўзбекистон Республикасининг мазкур соҳадаги миллий манфаатларини халқаро майдонда ҳимоя қилиш ваколатлари берилган. Миллий маърузачининг вазифаларини Миллий комиссия раиси бажариши белгиланган.

Одам савдосига қарши курашиш йўналишидаги фаолиятни тизимга солиш, мавжуд муаммоларни бартараф этиш мақсадида бир қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ишлаб чиқилди. Жумладан, Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 17 августдаги “Одам савдосига қарши курашиш тўғрисида”ги ЎРҚ-633-сонли янги таҳрирдаги қонуни[1] 7 та боб ва 35 та моддадан иборат бўлиб, унда одам савдосининг жабрдийдаларини идентификация қилиш, уларни қайта йўналтириш ҳамда одам савдоси жабрдийдаларига ёрдам бериш ва уларни ҳимоя қилиш механизмлари очиб берилган.

Мазкур Қонунга мувофиқ одам савдосидан жабрланган ёки одам савдосидан жабрланган деб тахмин қилинаётган шахсларни идентификация қилиш ва қайта йўналтириш ҳамда хорижий давлатларда жабрланганларни юртимизга қайтариш ишларини самарали ташкил этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 8 февралдаги “Одам савдосидан жабрланган ёки одам савдосидан жабрланган деб тахмин қилинаётган шахсларнинг ижтимоий ҳимоясини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 60-сон қарори қабул қилинди[2].

---

[1] Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 17 августдаги “Одам савдосига қарши курашиш тўғрисида”ги ЎРҚ-633-сонли қонуни // https://lex.uz/docs/4953314

[2] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 8 февралдаги “Одам савдосидан жабрланган ёки одам савдосидан жабрланган деб тахмин қилинаётган шахсларни миллий даражадаги қайта йўналтириш тизимини тасдиқлаш тўғрисида”ги 60-сон қарори // https://lex.uz/docs/5274299

Мазкур Қарор билан одам савдоси жабрланганларни дастлабки идентификацияни бевосита амалга оширувчи қуйидаги давлат органлари ва уларнинг ҳудудий бўлинмалари белгиланди: Ички ишлар вазирлиги; Бош прокуратура; Давлат хавфсизлик хизмати; Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги ва унинг тизимидаги ташкилотлар; Ташқи ишлар вазирлиги, Ўзбекистон Республикасининг хориждаги дипломатик ваколатхоналари ва консуллик муассасалари; Соғлиқни сақлаш вазирлиги. Якуний идентификация Одам савдосига қарши курашиш ва муносиб меҳнат масалалари бўйича ҳудудий комиссия томонидан коллегиал тарзда амалга оширилади.

Дастлабки идентификация қилиш жараёни ушбу фаолиятни амалга оширувчи давлат органининг махсус жиҳозланган хонасида, ҳар бир шахс билан алоҳида, хавфсиз муҳитда, одам савдосидан жабрланган деб тахмин қилинаётган шахсларнинг асосий эҳтиёжлари (озиқ-овқат ва сув, мос кийим, биринчи зарур тиббий ёрдам) қондирилгандан сўнг амалга оширилади.

Одам савдосидан жабрланган деб тахмин қилинаётган шахсларни аниқлашнинг дастлабки босқичида шифокорлар ёки тиббиёт ходимлари уларнинг соғлиғи ҳолатини, жисмоний шикастланишлар ва касалликлар мавжудлигини қайд этишлари шарт. Агар дастлабки идентификация қилиш босқичида шифокор ёки соғлиқни сақлаш мутахассиси мавжуд бўлмаган тақдирда, дастлабки идентификация қилишни амалга оширувчи ваколатли давлат органининг мутахассиси соғлиқ ва жисмоний шикастланишларни (агар мавжуд бўлса) танасини кўздан кечириш асосида қайд этиши керак.

Шунингдек, дастлабки идентификация қилишда мутахассис одам савдосидан жабрланган деб тахмин қилинаётган шахсларга улар тушунадиган тилда ўзини таништириши ва улар билан ишлашдаги ролларини тушунтириши, шунингдек, идентификация жараёнлари ҳақида тўлиқ маълумот бериши ҳамда зарур ҳолларда психологнинг иштирокини таъминлаши шарт.

Одам савдоси жабрдийдаларига ёрдам бериш бўйича республика реабилитация марказида[1], одам савдоси жабрдийдаларига ижтимоий реабилитация хизматларини таъминлаш учун қулай шарт-шароитлар, яшашлари, овқатланишлари, дори-дармонлар билан таъминланишлари, спорт билан шуғулланишлари ва шахсий гигиена бўйича барча имкониятлар яратилган. Бундай шахсларни нормал ҳаёт тарзига қайтариш борасида, уларга юқори малакали кечиктириб бўлмайдиган тиббий ёрдам, психологик, ҳуқуқий ва ижтимоий хизматлар кўрсатиб келинмоқда. Барча жабрдийдаларнинг соғлиғи ва психологик ҳолати комплекс текширувдан ўтказилиб, уларга ташхис қўйилиб, тегишли ёрдамлар кўрсатилмоқда.

Жабрдийдалар маданий дам олишлари учун Ўзбеккино миллий агентлиги томонидан намойиш этилаётган фильмларга, Ўзбек Миллий академик драма театрига, Муқимий номидаги Ўзбекистон давлат мусиқали театрига саҳналаштирилган спектакллар намойишларига ҳамда “Бунёдкор” спорт комплексига саёҳатга олиб борилган.

[1] Бугунги кунда Марказ Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги тизимига ўтказилди.

Ушбу фаолиятни янада такомиллаштириш мақсадида Одам савдоси жабрдийдаларига ёрдам бериш бўйича республика реабилитация марказининг ҳудудий бўлимлари фаолиятини ташкил қилиш, жабрланган шахсларга якка тартибдаги реабилитация дастури ишлаб чиқиш, шунингдек Марказ ходимларининг одам савдосидан жабрланган, одам савдосидан жабрланган деб тахмин қилинаётган шахсларга хизмат кўрсатишини таъминлашда уларнинг малакасини ошириш бўйича ўқув семинарлари ташкил этиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Бундан ташқари, Одам савдоси жабрдийдаларига ёрдам бериш бўйича республика реабилитация марказини Тазйиқ ва зўравонликка учраган хотин-қизлар ва уларнинг вояга етмаган фарзандларига ижтимоий хизмат кўрсатиш бўйича марказлар, Аёлларни реабилитация қилиш ва мослаштириш республика маркази ҳамда "Инсон" ижтимоий хизматлар марказлари билан фаолиятини уйғунлаштириш, Идоралараро интеграциялашув платформаси орқали интеграция қилинган "Ягона миллий ижтимоий ҳимоя" ахборот тизимига киритиш керак болади.

2025 йил 20 майда "Одам савдоси жинояти учун жазо чоралари кучайтирилаётганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 135-моддасига ўзгартириш киритиш тўғрисида"ги қонун[1] кучга кирди. Жиноят кодексига киритилган ўзгартиришга мувофиқ, қуйидаги ҳолларда одам савдоси учун 5 йилдан 10 йилгача озодликдан маҳрум қилиш тарзида жазо назарда тутилган: икки ёки ундан ортиқ шахсга нисбатан; ожиз аҳволдалиги айбдорга аён бўлган шахсга нисбатан; ҳомиладорлиги айбдорга аён бўлган аёлга нисбатан; айбдорга моддий жиҳатдан ёки бошқа жиҳатдан қарам бўлган шахсга нисбатан; бир гуруҳ шахслар томонидан олдиндан тил бириктириб; хизмат мавқеидан фойдаланган ҳолда; жабрланувчини Ўзбекистон Республикасининг Давлат чегарасидан олиб ўтган ҳолда ёки уни чет элда қонунга хилоф равишда ушлаб турган ҳолда; қалбаки ҳужжатлардан фойдаланган ҳолда, худди шунингдек жабрланувчининг шахсини тасдиқловчи ҳужжатларни олиб қўйган, яширган ёхуд йўқ қилиб юборган ҳолда; инсон аъзоларини ва (ёки) тўқималарини олиш мақсадида. Жиноят кодексининг 135-моддаси 2 ва 3-қисм санкциялари кучайтирилиб, яъни 2-қисми учун 5 йилдан 10 йилгача, 3 қисми учун эса ўн йилдан ўн беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланиши белгиланди.

Бугунги кунда одам савдосига қарши курашиш ва бундай нохуш воқеаларни олдини олиш глобал аҳамият касб этмоқда. Барча давлатларнинг ўзаро ҳамкорлигига эҳтиёж туғдириб, бу борада давлатлараро ва халқаро ташкилотлар доирасида ўзаро мустаҳкам ҳамкорлик ўрнатиш ҳамда кучларни бирлаштириш лозимлигини тақозо этмоқда. Бу борада одам савдосига қарши курашишнинг халқаро ва миллий қонунчилик нормаларида қонуний тартибга солиниши шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилишнинг самарали воситаси ҳисобланади.

---

[1] Ўзбекистон Республикасининг 2025 йил 19 майдаги "Одам савдоси жинояти учун жазо чоралари кучайтирилаётганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 135-моддасига ўзгартириш киритиш тўғрисида"ги ЎРҚ-1065-сонли қонуни // https://lex.uz/docs/7532326

ОСНОВНЫЕ ПРИОРИТЕТЫ НОВОЙ КОНСТИТУЦИОННОЙ РЕФОРМЫ КАЗАХСТАНА

Жиенбаев Ержан,
Самостоятельный соискатель Национального центра
Республики Узбекистан по правам человека

Конституционная реформа Казахстана 2026 года стала одним из наиболее значимых политических процессов в стране. Принятые на референдуме 15 марта изменения затрагивают фундаментальные основы государственного устройства, политической системы и общественных ценностей. Инициатором реформ выступил Президент Республики Казахстан Касым-Жомарт Токаев.

Конституционная реформа Казахстана 2026 года представляет собой комплексный и многослойный процесс, затрагивающий различные аспекты жизни страны. Эти реформы направлены на коренное влияние на политическую и общественную жизнь страны и поднятие защиты прав и свобод народа на новый уровень.

Как известно, проект новой Конституции Республики Казахстан основан на инициативе создания однопалатного парламента, о которой было объявлено в Послании народу Казахстана Президента Касым-Жомарта Токаева от 8 сентября 2025 года.

В рамках этой инициативы началась работа над конституционной реформой, и состав Конституционной комиссии был утвержден Указом Главы государства № 1157 от 21 января 2026 года. В состав Комиссии вошли около 130 человек. В их числе были члены Национального собрания, известные эксперты в области конституционного права, представители бизнеса и корпоративного сектора, представители общественных организаций и правоохранительных органов, эксперты, работники СМИ, представители научного и культурного сообщества, депутаты парламента и государственные служащие.

В ходе работы члены Комиссии рассмотрели все разделы и 77 статей Конституции, то есть 84% от общего содержания. Таким образом, члены Комиссии приняли решение о разработке новой Конституции Казахстана. Были получены предложения и проведены обсуждения от всех граждан и общественных организаций Казахстана. В результате общественных обсуждений был сформирован проект новой Конституции.

Поскольку внесение поправок в Конституцию является вопросом, непосредственно связанным с основами государства и социальной гармонии, заседание комиссии проходило в открытом и публичном формате, а информация о деятельности комиссии была доступна любому гражданину, желающему присутствовать, на официальных сайтах и страницах в социальных сетях.

15 марта 2026 года в Казахстане прошел референдум по проекту новой Конституции. 17 марта Центральная избирательная комиссия огласила официальные результаты голосования, согласно которым, проект нового Основного закона поддержали 87,15% голосовавших. До референдума власти развернули кампанию преследования граждан и журналистов, которые критиковали проект документа или проводили опросы.

Референдум продемонстрировал поддержку значительной части населения, конституционная реформа Казахстана 2026 является частью стратегии по укреплению управляемости государства и перераспределению власти.

Основная идея конституционных реформ заключается в определении современных ценностей государства и общества, обеспечении прав и свобод человека, а также повышении эффективности государственной власти.

Концептуальные изменения новой Конституции, в новом тексте которой права и свободы человека провозглашаются главным приоритетом государства имеют важное значение, поскольку защита прав человека ставится во главу угла законодательной системы Казахстана.

В новом тексте Конституции такие принципы как справедливость, закон и порядок, а также уважение к природе, впервые закреплены на самом высоком правовом уровне. Суверенитет и независимость Казахстана заложены как неизменные ценности. Эти изменения укрепят независимость страны на международной арене.

Еще одним важным событием, заслуживающим внимания является введение новой нормы о защите прав граждан в цифровой среде. Это гарантирует, что законодательство соответствует современным требованиям цифровой эпохи. В новой Конституции четко устанавливается принцип разделения религии и государства, а также определен светский характер системы образования и воспитания.

Одним из центральных элементов реформы стало изменение структуры парламента. Казахстан отказывается от двухпалатной системы и переходит к однопалатной модели. Данная система позволит ускорить законодательный процесс, снизить бюрократические барьеры и повысить эффективность принятия решений.

Новая Конституция предусматривает создание однопалатного парламента и переименование его в Курултай. Курултай будет состоять из 145 членов, избираемых на пятилетний срок по пропорциональной системе, то есть по партийным спискам. Данная реформа повысит эффективность политических институтов в Казахстане и расширит возможности граждан для участия в работе парламента. Кроме того, пропорциональная избирательная система будет способствовать совершенствованию кадровой политики партий и повышению их подотчетности.

Новая конституция учреждает Народный совет Казахстана как новую площадку для национального диалога, который будет высшим консультативным органом, обладающим правом инициировать законодательство. Этот Совет станет важным институтом, представляющим интересы народа страны.

Возвращение должности вице-президента является еще одним важным элементом реформы. Этот институт ранее уже существовал в Казахстане, но был упразднен. Вице-президент становится ключевой фигурой в политической архитектуре, обеспечивая непрерывность власти и поддерживая президента в реализации стратегических инициатив. С точки зрения государственного управления, это усиливает вертикаль власти и повышает управляемость системы.

Кроме того, Конституция затрагивает вопрос защиты прав интеллектуальной собственности и обеспечивает правовую защиту инновационных разработок и научных достижений в стране.

Главной особенностью новой Конституции является приоритет прав и свобод человека, обеспечивающий стабильность страны и социальную справедливость. Еще одним важным нововведением, направленным на защиту прав граждан, является введение правила Миранды. Это изменение повышает уровень защиты прав и свобод граждан. Более того, конституционная реформа 2026 года явно ориентирована на вызовы XXI века. Это особенно заметно в той части выступления Президента К.Токаева, где цифровизация и высокие технологии описываются как процессы, непосредственно затрагивающие права и свободы человека, а защита персональных цифровых данных предлагается как предмет прямого конституционного закрепления.

Конституционная реформа 2026 года выводит стратегию развития Казахстана на качественно новый уровень. Реформа предусматривает переход от экономической модели, ориентированной на сырьевые ресурсы, к модели, основанной на знаниях, интеллекте и развитии человеческого капитала.

В дальнейшем главным богатством государства рассматриваются не минеральные ресурсы, а граждане с высоким интеллектуальным потенциалом, глубокими знаниями и современным мышлением. На конституционном уровне образование, наука, культура и инновации закрепляются как ключевые приоритеты развития страны. Это формирует прочную основу для долгосрочного и устойчивого роста.

В рамках реформы особое внимание будет уделяться повышению качества образования, поддержке науки, развитию культурных ценностей и широкому внедрению инновационных технологий. В условиях эпохи искусственного интеллекта интеллектуальное развитие становится одним из главных факторов конкурентоспособности государства.

Таким образом, Казахстан определяет развитие человеческого капитала как стратегическую цель и ориентируется на формирование современной, об-

разовательной и интеллектуально сильной экономики для будущих поколений. Это не только законодательные изменения, но и обновление общественного сознания и новой философии развития страны.

В целом, новая Конституция Республики Казахстан направлена на модернизацию политической системы страны с учетом актуальных проблем общества и современных вызовов. Это важный шаг на пути к будущему государства, укреплению его международной репутации и защите прав и свобод граждан. Эти реформы модернизируют законодательную систему страны и поднимут политическую и социальную жизнь на новый уровень.

“ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ ВА КОНСТИТУЦИЯНИНГ ЎЗАРО УЙҒУНЛИГИ: ХАЛҚАРО ВА МИЛЛИЙ ҲУҚУҚИЙ КАФОЛАТЛАР ТАҲЛИЛИ”
МАВЗУСИДАГИ ЁШ ОЛИМЛАР ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯСИ
МАТЕРИАЛЛАРИ ТЎПЛАМИ

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ
МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ МОЛОДЫХ УЧЕНЫХ
«ВЗАИМОСВЯЗЬ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА И КОНСТИТУЦИИ: АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНЫХ И НАЦИОНАЛЬНЫХ ПРАВОВЫХ ГАРАНТИЙ»

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE OF YOUNG SCIENTISTS
“HUMAN RIGHTS AND CONSTITUTIONAL HARMONY: INTERNATIONAL AND NATIONAL LEGAL GUARANTEES”
MATERIALS COLLECTION

Муҳаррир	М. Пальнова, Л. Рузикулова
Техник муҳаррир	Н. Сафарова
Компьютерда саҳифаловчи	А. Жуманиязов

Чоп этишга 2026 йил 15 майда рухсат этилди.
Бичими 70 x 100 $^{1}/_{16}$
«Times New Roman» гарнитурасида офсет усулда босилди.
Шартли босма табоғи 10,4. Нашр табоғи 9,1.
Адади 100 нусха. Буюртма № 8.